



MAKTAB TA'LIMI
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/5
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

May, 2/2025



A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2025-yil,
2-son

Toshkent – 2025



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi

Bosh muharrir

ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari

RAJABOV Sherzod Umurzoqovich

Tahrir hay'ati:

YULDASHEV Maksudjon Abdullayevich

RADJABOV Sardor Baxtiyorovich

IBRAIMOV Xolboy Ibragimovich

PIOTR Fokich Borovski

GUNDA Tire

KOVALEVA Galina Sergeyevna

IBRAGIMOV A'lamjon Amrilloevich

ERGASHEVA Malohat Tursunovna

XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna

JUMANAZAROV Sirojiddin Salaydinovich

URINBAYEVA Dilbar Bazarovna

IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich

ALKAROV Elyor Maxmudovich

BADALOVA Maqsuda Umarovna

BOTIROV Hamid Hakimovich

OTAMURODOV G'olibjon Ro'zimurodovich

XURRAMOV Isroil Abdurashidovich

BABAYEVA Nargiza Muzaffarovna

Mas'ul kotib:

DAMINOVA Shoxista Kabulovna

Adabiy muharrir:

MIRZOXIDOVA Laylo Baxtiyorovna

Tarjimon:

ABDULLAYEVA Maxprat Nurmatovna



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and
educational-methodical journal


SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

UO'K 373.3/.5

ISSN: 3060-4788

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning
saodati, davlatning tinchi
va rohati yoshlarning yaxshi
tarbiyasiga bog'liqdir”.**

MUNDARIJA

CONTEKST

Umumiy o'rta ta'limning dolzarb muammolari

5 Xurramov Isroil Abdurashidovich.
Umumta'lim maktab o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik imkoniyatlari

10 Axmadqulova Ozodaxon Xamidullo qizi.
Demografik omillar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri

18 Alimuxamedova Umida Erkinovna.
Antroposen muhitida o'quvchilarning ongli harakatini rivojlantirish

Ta'lim menejmenti va boshqaruv

24 Maryam Raximova O'tkir qizi.
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida psixologik muhitni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Ilg'or milliy va xalqaro tajribalar

31 Rajabov Sherzod Umurzoqovich.
Ilmiy-tadqiqot ishlarini maktab amaliyotiga integratsiya qilish tajribalari

36 Pardayeva Mexriniso Daniyarovna, Odiljonov O'tkir Rustamjonovich.
Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarida kasbiy so'nish: xalqaro holat va yechimlar tahlili

46 Xolmirzayev Furkat Golibovich.
Xalqaro PISA – 2022 tadqiqotida o'quvchilarning kreativ fikrlash bo'yicha natijalari (O'zbekistonning natijalari)

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

54 Ergashev Orifjon Ungarovich.
Geografiya darslarida PISA xalqaro baholash dasturi topshiriqlarining afzalliklari

60 Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna.
Ingliz tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni

66 Abdunazarova Odina Toshqinboy qizi.
O'zga tili o'quvchilarning o'zbek tili bo'yicha nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir aniqlovchi tajriba-sinov materiallar tavsifi

74 Akbarova Saidaxon Rustamovna.
O'quvchilarda qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlash, baholash va ulardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish

83 Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov.
Tarix fanini o'qitishda eng zamonaviy yondashuvlardan foydalanish metodikasi

94 Tuymayeva Xurshidabonu Xurramovna.
Chet tilini o'qitishda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishning afzalliklari

Institut zamon bilan hamnafas

102 Shavkat Xamrayev
Korrupsiyaga qarshi kurashish – davr talabi

PIZA 2025 XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIY SINOV JARAYONLARIDAN LAVHALAR



UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILIRIDA EKOLIGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xurramov Isroil Abdurashidovich,
*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti Ilmiy kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilarning ekologik kompetentligini uzliksiz kasbiy rivojlanish kurslari doirasida shakllantirish masalalari, ayniqsa, milliy an'analar va qadriyatlarga asoslangan etnopedagogik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ekologik ta'limda zamonaviy yondashuv bilan milliy tarbiya uslublarining uyg'unligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik qadriyat, ekologik mas'uliyatlilik, ekologik kompetentlik, etnopedagogika, qadriyatga asoslangan etnopedagogik yondashuv va ekologik irodaviylik.

**Этнопедагогические возможности
развития экологической компетентности
у педагогов общеобразовательных школ**

Хуррамов Исраил Абдурашидович,
ученый секретарь Национального института
педагогического мастерства им. Авлони,
доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы формирования экологической компетентности педагогов в рамках курсов непрерывного профессионального развития, особенно важность этнопедагогического подхода, основанного на национальных традициях и ценностях. Также будет проанализировано сочетание национальных стилей

воспитания с современным подходом к экологическому воспитанию.

Ключевые слова: экологическая ценность, экологическая ответственность, экологическая компетентность, этнопедагогика, ценностно-ориентированный этнопедагогический подход и экологическая воля.

**Ethnopedagogical opportunities for the
development of environmental competence
in secondary school teachers**

Khurramov Isroil Abdurashidovich,
Scientific Secretary of the National Institute
of pedagogical skills named after Avloni, doctor
of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: This article addresses the formation of environmental competence of teachers within the context of continuing professional development courses. It highlights the significance of an ethno-pedagogic approach entrenched in national traditions and values. Moreover, the article analyzes how the integration of national parenting styles with modern methods of environmental education can enhance this competence.

Keywords: environmental value, environmental responsibility, environmental competence, ethnopedagogy, value-oriented ethnopedagogic approach and ecological willpower.

Respublikamizda o'ziga xos va mahalliy sharoitga mos ravishda yangi milliy ta'lim tizimi rivojlanmoqda. Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi tajribasi respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tarzda amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Mazkur jarayonda ekologik ta'lim sifatini, malaka oshirish tizimi samaradorligi hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi maqsadida ".... malaka oshirish kurslari dasturlarida ekologik ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan mavzular kiritish" [1] vazifasi belgilab qo'yilgan.

Mazkur ustuvor vazifadan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimida ekologik muammolarni hal etilishi pedagogik jarayonni milliy va ekologik kontekstda amalga oshirishni ta'minlashga qaratilganligidir. Ekologik qadriyatlarni o'rganish jarayonida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida o'qituvchilar tabiat hodisalari, tabiat obyektlarining bir-biri bilan aloqasi, tabiat va inson orasidagi muvozanatning buzilish sabablarini to'liq tasavvur etmoqlari lozim. Bugungi kunda atrof-muhitni asrash, tabiatni muhofaza qilish insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Natijada, uzluksiz ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi shaxs va jamiyatning yaxlit dunyoqarashi va ekologik madaniyatini shakllantirishdir, uning doirasida o'qituvchi yangi ijtimoiy-ekologik funksiyani bajarishga chaqiriladi.

Ta'kidlash lozimki, ekologik kompetentlikni rivojlanishi bilan hamohang bo'lgan va jamiyat barqaror taraqqiyotiga xalaqit beradigan faktorlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ozon qatlaminin yemirilishi, o'rmonlarning kamayishi, sahrolar hajmining kengayib ketayotganligi, tuproq eroziyasi, sho'rlanishi va yer hosildorligining pasayishi, suv resurslarining ifloslanishi, okean suvlarining ko'tarilishi, lokal

hududlarda radiatsiyaning oshib ketayotganligi, bioxilma-xillikning kamayib ketishi va atmosferada parnik gazlar konsentratsiyasining o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday holatning asosiy sabablarining maktab o'qituvchilari tomonidan tahlil qilinishi, mazmunini, mohiyatini va oqibatlarini tushinib olishlari ularning umimiy ekologik tayyorgarligini oshiradi va ekologik madaniyatini yuksaltiradi. Shu sababdan yuqori saviyaga ega bo'lgan o'qituvchi, maktab o'quvchilariga atroflicha ekota'lim beradi.

Maktab o'qituvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirishning hozirgi paytdagi holati tabiatga yangicha qarashlarni taqozo etmoqda. Uning asosida istiqbolga yo'naltirilgan hamda inson va tabiat orasidagi bog'lanishlarni tasdiqlaydigan ekologik madaniyat munosabatlari yotadi.

Ekologik bilimlarning shaxs madaniyatini tarbiyalashga yo'nalganligi eng nozik pedagogik muammoligicha qolmoqda. Shuning uchun ham yuksak kasb mahoratini egallashi lozim bo'lgan maktab o'qituvchilarni ekologik bilimni rivojlantirish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Maktab o'qituvchilari o'quvchilardagi ekologik loqaydlik, mas'uliyatsizlik, beparvolikka, tabiatga nisbatan muhabbat tuyg'usi va qiziqishlarning rivojlanmaganligiga duch kelayotganlarini ta'kidlashadilar.

Hozirgi rivojlanish bosqichida aholining, shu jumladan yoshlarning ekologik kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktab o'qituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish masalasi davlatimizda ta'limda amalga oshirilayotgan islohatlar ko'lami, mavjud ekologik ahvolni yanada yaxshilash tufayli insonning islohatlardagi faol ishtirokini ta'minlash kabi strategik maqsadlar yechimi bilan hamohangdir.

Mazkur maqsadlar negizida oddiy bilim beruvchi emas, balki o'z namunasida ekologik ong va axloqni ko'rsata oladigan, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya beruvchi o'qituvchi turadi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda etnopedagogik asoslarni belgilovchi fazilatlar katta ahamiyat kasb etadi.

Etnopedagogika – xalqning asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy tajribasi, urf-odatlar va qadriyatlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etishdir. Bu yondashuv orqali ekologik tarbiyaga ichki axloqiy asoslar, milliy ruh, va tarixiy ong kirib keladi.

O'.Xo'janazarov, Sh.Yakubjanovalarning "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" nomli o'quv qo'llanmasida ekologik bilim va madaniyatni belgilovchi fazilatlar belgilangan [2]. U ta'limning barcha bo'g'inlarini – maktabgacha tarbiyadan boshlab, oliy ta'lim va malaka oshirish kurslarini ham qamrab olgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda maktab o'qituvchilarda ekologik kompetentligini rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini belgilovchi etnopedagogik asoslari, ekologik bilim, madaniyatni belgilovchi fazilatlarini takomillashtirildi (1-jadval).

O'qituvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda faqat ilmiy bilimlar yetarli emas – bu jarayon milliy qadriyatlar, axloqiy asoslar va shaxsiy fazilatlar bilan boyitilgan bo'lishi zarur. Etnopedagogik yondashuv bu borada katta imkoniyatlar yaratadi. O'zbek xalqining tabiat bilan uyg'un hayot tarzidan olingan tarbiyaviy namunalar orqali o'qituvchilar bugungi zamon ekologik muammolariga ma'naviy yechim topishda faol ishtirok eta oladi.

Buning barchasi atrof-muhit tushunchalari asosida o'quvchilarni etnopedagogik asoslarini belgilovchi fazilatlar yordamida tarbiyalash uchun zamin yaratadi.

Ekologik kompetentlikni rivojlanganligining samaradorligi ko'p jihatdan jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligini ekologik jihatlarini muvofiqlashtiradigan qadriyat va me'yorlarning qay darajada aniq rivojlantirilganligi bilan baholanadi.

Atrof-muhitdagi har bir "qadam" faqat ilmiy, iqtisodiy emas, balki ma'naviy, ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, mafkura muammolarini hal qilinishi bilan ham bevosita aloqador hisoblanadi.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirish nuqtai-nazaridan insonning tabiatga ehtiyotkorona, tejamkorlik bilan yondoshuvi, uning faoliyati oqibatida tabiat komponentlari: suv, havo, tuproqni ifloslanishi, tabiat boyliklaridan foydalanishga insoniyatning oqilona yondashuvi yohud tabiat boyliklaridan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi bilan ham baholanadi.

Tabiatni muhofaza qilish deganda, uni passiv muhofaza qilish, ya'ni muayyan joylarni, o'simlik, hayvon turlari va boshqalarni xo'jalikda foydalanishdan ajratib olib, tabiiy saqlash, uni qo'riqlash tushunib borish [3].

Jamiyat a'zolari, jumladan yoshlar shu narsani aniq bilishi lozimki, Yer kurrasidagi tabiiy zahiralarni cheklangan, ular qachonlardir tugaydi.

Shu sababdan sayyoramizda yashaydigan barcha insonlar, yerning zahiralardan foydalanish me'yori bilishlari zarur. Jumladan, yoshlarda ekologik kompetentligini rivojlantirish lozim.

Insoniyatning tabiatga ta'siri ekologik me'yorda bo'lishi kerak. Insoniyatning tabiatga ta'sir chegarasi ekologik me'yor darajasidan oshsa, tabiatning tabiiy holati buzilib hosil bo'lgan ekologik zanjir-tizimi holat inson faoliyatiga salbiy ta'sir etadi [4]. Buning oqibatida "aql sferasi" degan g'oya kelib chiqadi. Ana shu aql sferasi butun

insoniyatning ekologik ongi va madaniyatini ifodalaydi.

Maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish ta'lim muassasalarida bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazani yaratish va mustahkamlab borish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollan-


tirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- maktab o'qituvchilarining faoliyati o'ziga xos integrativ tizim ekanligi;
- maktab o'qituvchilarning nazariy bilimlari, kasbiy va shaxsiy sifatlarini o'zaro bog'liqligi;
- maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonlari

1-jadval

O'qituvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini belgilovchi fazilatlar



komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi;

- maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ichki ehtiyojlar va manfaatlarga bog'liqligi, ularni aniqlamasdan rivojlantirishning yo'nalishini majburan belgilashning mumkin emasligi;

- maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida tarbiyaviy munosabatlarning o'ziga xosligi;

- maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida maktab o'qituvchilarida ekologik tafakkur, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid iste'mol madaniyatini shakllantirish, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik tuyg'usi, barqaror rivojlanish tamoyillarini anglash va qabul qilish, yangi g'oyalarni taklif qilish, ekologik metaforalarni keng qo'llash kabi XXI asrning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirish – bu ekologik dunyoqarash, tabiatni idrok etish va tushunish, ekologik bilimlarga ega bo'lish, ekologik qadriyatlarni bilish asnosida ekologik kompetentlikni rivojlantirishning etnopedagogik asoslarini o'rni haqida ko'nikmalarga, shuningdek, ekologik muammolarni modellashtirish va bashorat qilish, ekologik va iqtisodiy vaziyatlarni barqaror rivojlanish konsepsiyasiga amal

qilgan holda qonuniy yo'llar bilan hal qilish malakalariga ega bo'lishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktab o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni rivojlantirish bugungi kunda ekologik muammolarning chuqurlashuvi, tabiatga nisbatan insoniy mas'uliyatning ortib borishi fonida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda o'qituvchining faqat ekologik bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas, balki u milliy qadriyatlarga, etnopedagogik yondashuvga tayangan holda, o'z shaxsiy fazilatlari orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalay olishi lozim. Etnopedagogika xalqning asrlar davomida shakllangan tabiatga bo'lgan hurmati, e'tiqodi va urf-odatlariga asoslangan pedagogik yo'nalish bo'lib, bu yondashuv orqali o'qituvchilar tabiatni muqaddas deb bilish, ekologik qadriyatlarni xalq og'zaki ijodi orqali singdirish, o'z namunasida ekologik ongni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqimizning "tabiat ona" degan e'tiqodi, hasharlar, Navro'z bayramidagi tabiat bilan uyg'unlik marosimlari va ekologik mazmundagi maqollar, rivoyatlarning barchasi maktabdagi ekologik tarbiyaviy jarayonda katta etnopedagogik resurs bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, umumta'lim maktab o'qituvchilarini ekologik kompetentlikni rivojlantirishda etnopedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish o'quvchilarda ekologik ong, mas'uliyat va axloqiy qarashlarni shakllantirishda eng samarali yo'llardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli qarori.
2. Xo'janazarov O', Yakubjanova Sh. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi. – T.: TDPU, 2017. – B. 215.
3. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: O'qituvchi", 1990. – B. 7.
4. F.R.Saydamatov "Maktab geografiya ta'limida ekologik o'lkashunoslik vositasida o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish metodikasi" Avtoref.dis. ... ped.fan.nom. – T.: TDPU, 2022, – B. 26.

DEMOGRAFIK OMILLAR VA ULARNING TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

Axmadqulova Ozodaxon Xamidullo qizi,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti
ozodaxon1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola demografik omillarning umumiy o'rta ta'lim tizimiga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'sirini tahlil qiladi. Aholi sonining o'sishi, yosh tarkibidagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy holat kabi asosiy demografik omillar ta'lim muassasalariga bo'lgan talab, maktablar infratuzilmasini rejalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va resurslarni taqsimlash kabi muhim jihatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maqolada demografik o'zgarishlarning ta'lim sifatiga, o'quvchilarning o'zlashtirishi va ta'lim sifati pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimini samarali boshqarish va rivojlantirish bo'yicha mavjud vaziyat demografik tendensiyalarni hisobga olgan holda muhokama qilinadi. Ushbu tahlil demografik omillarning ta'lim tizimiga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: demografik omillar, migratsiya, yosh tarkibi, ta'lim tizimi, aholi o'sishi, urbanizatsiya.

Демографические факторы и их влияние на систему образования

Ахмадқулова Озодахон Хамидулло кизи,
Докторант Национального института
педагогического мастерства
имени Абдуллы Авлони
ozodaxon1991@gmail.com

Аннотация: Основные демографические факторы, такие как рост населения, изменения в возрастной структуре, миграционные процессы, урбанизация, а также социально-экономическая ситуация, оказывают существенное влияние на такие важные аспекты, как спрос на образовательные учреждения, планирование школьной инфраструктуры, обеспечение учителями, разработка учебных программ и распределение ресурсов. В статье рассматривается ряд проблем, связанных с демографическими изменениями, которые могут привести к снижению качества образования, успеваемости учащихся и качества образования. Обсуждается текущая ситуация по эффективному управлению и развитию системы образования с учетом демографических тенденций.

Ключевые слова: демографические факторы, миграция, возрастная структура, система образования, рост населения, урбанизация.

Demographic factors and their impact on the education system

Akhmadkulova Ozodakhon Khamidullo kizi,
Doctoral student of the National Institute
of Pedagogical Skills named after
Abdulla Avloni
ozodaxon1991@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the multifaceted impact of demographic factors on the general secondary education system. Key demographic elements, such as population growth, changes in age groups, migration processes, urbanization, along with socio-economic conditions significantly influence important aspects like demands for educational institutions, planning school infrastructure, teacher employment, curriculum development, and resource allocation. The article investigates various issues that demographic changes*

may cause potentially leading to a decline in education quality and student performance. It discusses the current situation regarding effective management and development of the education system taking into account of demographic trends. These findings provide a deeper understanding of how demographic factors impact the education system.

Keywords: *demographic factors, migration, age groups, education system, population growth, urbanization.*

Ta'lim tizimi har bir jamiyatning kela-jagini belgilovchi muhim institutdir. Uning samarali faoliyat olib borishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashgaxizmatqiladi. Bu jarayonga turli omillar ta'sir ko'rsatadi, ularning orasida demografik omillar alohida o'rin tutadi. Aholining soni, yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari, ota-onalarning ma'lumot darajasi kabi demografik ko'rsatkichlar ta'lim muassasalariga bo'lgan talabdan tortib o'quv jarayonini tashkil etish, resurslarni taqsimlash, ta'lim sifatini ta'minlashgacha bo'lgan ko'plab jihatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugun dunyo miqyosida kuzatilayotgan demografik o'zgarishlar, xususan, aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, aholining qarishi tendensiyalari, ichki va tashqi migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar va muammolarni qo'ymoqda. Ta'lim siyosatini samarali rejalashtirish va amalga oshirish uchun ushbu o'zgarishlarning ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola demografik omillarning umumiy o'rta ta'lim tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama o'rganishga qaratilgan. Unda aholi soni va uning

hududlar bo'yicha taqsimoti, yosh tarkibidagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya kabi asosiy demografik omillarning ta'lim tizimiga bo'lgan bevosita va bilvosita ta'siri tahlil qilinadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

Demografik omillar har qanday jamiyatning rivojlanish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu omillar ichida ta'lim tizimiga eng ko'p ta'sir qiladiganlaridan biri aholi sonidir. "Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy demografik tavsiflardan biridir. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntaзам, muayyan bir hudud uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgarib turadi" [1]. Aholi sonining ortishi ta'lim muassasalarining ko'payishiga ehtiyoj tug'dirsa, kamayishi ayrim hududlardagi maktablarning yopilishiga olib kelishi mumkin. Aholining tabiiy o'sishi natijasida maktablar sonini oshirish, yangi sinflar ochish va o'qituvchilar sonini ko'paytirish zarurati tug'iladi. Agar ta'lim muassasalari aholining o'sish sur'atlariga mos ravishda kengaytirilmasa, sinflardagi o'quvchilar soni ortib ketishi kuzatiladi, buning natijasida esa ta'lim sifati

pasayishi mumkin. O'qituvchilarning ortiqcha yuklama bilan ishlashi natijasida individual yondashuv imkoniyatlarini kamaytirib, o'quvchilarning bilim olish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar bolalar bilan erkin shug'ullana olmaydi, o'z ustida ishlash va kasb mahoratini oshirish imkoniyatini ham yo'qotadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimi aholining demografik o'zgarishlariga moslashishi zarur, chunki ta'lim yoshidagi bolalar soni maktabning sig'imi va faoliyat sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozir O'zbekistonda 10 mingdan ortiq maktab bor va ular 5 mln 200 ming o'quvchini qabul qila oladi [12]. 2024-yil sentyabr holatiga ko'ra, mamlakatda 6 mln 400 ming nafar o'quvchi tahsil olgan [14]. 2026-yilgacha o'quvchilar soni 7,5 mlnga yetishi prognoz qilingan. Bu jihatdan olib qaralsa, taklifga nisbatan talab ortib ketmoqda, maktablar yetishmovchiligi esa dolzarb muammo bo'lib turibdi [12]. 2023-2024-o'quv yilida maktablarni 414,6 ming nafar o'quvchi bitirgan bo'lsa [9], 2024–2025-o'quv yili uchun 700 ming nafar o'quvchi qabul qilingan. Bu esa o'quvchi o'rniga bo'lgan ehtiyoj ikki baravarga yaqin ortganini bildiradi [11]. Bu raqamlardan maktablar qurilishi mavjud talabga nisbatan kam ekanini xulosa qilish mumkin.

Aholi sonining hududiy taqsimoti ham muhim omildir. Shaharlashish jarayonlari natijasida katta shahar va aholi gavjum hududlarda ta'lim infratuzilmasiga bosim ortadi va buning natijasida ayrim maktablarda o'quvchilar soni sinfda o'quv jarayoni sifatining keskin pasayishiga olib kelayotgan darajada oshib ketadi. Bu jihatga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham alohida e'tibor qaratilgani [1] muammoning dolzarbligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Aholi soni o'sishi ta'sirida ta'lim menej-

menti sohasi oldida yuzaga kelayotgan yana bir masala ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o'quv qurollari va texnologiyalar bilan ta'minlashdir. Bu jarayonda davlat byudjeti va ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'ning hajmi katta ahamiyat kasb etadi. Aholining ko'payishi bilan bu xarajatlar ham oshadi va ta'lim tizimining barqaror ishlashi uchun qo'shimcha resurslar talab etiladi. 2024-yil sentyabr holatiga ko'ra, baholash tizimi joriy etilayotgan 1000 ta maktabning 300 tasida moddiy-texnik baza talabga mutlaqo javob bermaydi [16]. Hukumat va ta'lim tashkilotlari demografik o'zgarishlarni inobatga olgan holda ta'lim infratuzilmasini rejalashtirishi, o'qituvchilar yetishmovchiligini oldini olishi va ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi zarur. Bu esa kelajak avlodning sifatli ta'lim olishiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yuqorida sanalgan muammolar yechimi bo'yicha muayyan ishlar ham amalga oshirilmoqda. Masalan, "Tashabbusli budjet" jarayonining 2024-yil 1-mavsumi doirasida respublika bo'yicha jami 953 ta umumta'lim maktablarida qurilish-ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarini amalga oshirish rejaga kiritildi. Shundan maktablarni moddiy-texnik jihozlari bilan ta'minlash bo'yicha elektron doskalarni xarid qilish yo'nalishida 279 ta maktab, o'quv partalarni yangilash yo'nalishida 234 ta maktab, kompyuterlar bilan ta'minlash yo'nalishida 234 ta maktab g'olib deb topilgan [15].

Jamiyatning yosh tarkibi ham ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim omillardan biridir. Yosh aholining ko'pligi yangi maktablar ochilishini talab qilsa, aksincha, keksayish jarayoni oliy ta'lim va kasbiy o'qitishga bo'lgan talabni oshiradi. Birinchidan, o'rta ta'lim tizimi bevosita yosh

avlod bilan bog'liq bo'lgani uchun, aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar ta'lim sifati, infratuzilmasi va kadrlar siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar sonining ortishi o'rta ta'lim muassasalariga bo'lgan talabni oshiradi. Ko'proq o'quvchiga xizmat ko'rsatish uchun yangi maktablar qurilishi, o'qituvchilar sonining ko'paytirilishi va ta'lim resurslarining kengaytirilishi zarur bo'ladi. Aksincha, yoshlarning kamayishi ayrim hududlarda maktablarning yopilishiga yoki birlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatining pasayishiga va mavjud resurslardan unumli foydalanishning qiyinlashuviga olib keladi.

Ikkinchidan, yoshlarning qiziqishlari va bilimga bo'lgan ehtiyoji o'quv dasturlarini yangilash zaruratini tug'diradi. Axborot texnologiyalari, muhandislik va kreativ sohalarga bo'lgan talab ortib borayotgani sababli ta'lim tizimi zamonaviy kasblarga yo'naltirilgan holda rivojlantirilishi kerak. Yosh tarkibining o'zgarishi ta'lim uslublarining moslashuvchan bo'lishini ham talab qiladi, chunki zamonaviy o'quvchilar interaktiv va innovatsion usullar bilan ta'lim olishga moyil.

Yosh tarkibi mehnat bozoriga ham jiddiy ta'sir etadi, yani ma'lum bir davrda tug'ilishning ko'payishi kelajakda yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini ham keltirib chiqaradi. Bu kabi muammolarga o'rta va oliy ta'limni kengaytirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashish, o'quvchilarni zamonaviy kasb-hunarlariga yo'naltirish kabilar yechim bo'lishi mumkin. Yoshlar sonining ortishi bir tarafdin muammo bo'lsa, bir tarafdin yutuq hamdir. Chunki ular asosiy ishchi kuchini tashkil etadi va mamlakat iqtisodiyoti rivojida muhim o'rin tutadi.

Demografik omillardan yana biri – ichki va tashqi migratsiya jarayonlari jamiyatning turli jabhalariga, jumladan, o'rta ta'lim tizi-

miga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya – “aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi”[6]dir. Migratsiya yuqori bo'lgan hududlardagi maktablarda bir qator muammolar hosil bo'ladi. Masalan: shaharlarga ko'chib kelish natijasida shahar maktablarida sinflarning to'lib ketishi, o'qituvchilar taqsimoti, ta'lim sifati pasayishi va infratuzilmasi o'zgarishi mumkin. Bu jarayonlar ta'lim tizimi uchun ham yangi imkoniyatlar, ham muayyan muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Migratsiya oqibatida ayrim hududlardagi o'quvchilar soni keskin ortadi yoki kamayadi. Masalan, shaharlarga ko'chib kelgan oilalar soni oshganda mavjud maktablar yuklama ostida qoladi, sinflardagi o'quvchilar soni ortib, ta'lim sifati pasayishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilar sonining ko'payishi, hech bo'lmaganda qisqa muddatda, maktablarning mavjud resurslaridan samarali foydalanishni kamaytiradi [4], bu esa mahalliy o'quvchilar uchun ham qator muammolarni keltirib chiqaradi.

O'quvchilar soni kam bo'lgan sinflarda o'qituvchilar har bir o'quvchiga ko'proq individual e'tibor berishi mumkin, natijada o'quvchilar darsni yaxshiroq tushunish va samaraliroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 15-20 nafar o'quvchi bo'lgan sinflarda o'zlashtirish darajasi 30 va undan ortiq o'quvchi bo'lgan sinflarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. “Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida”-gi nizomga ko'ra, mamlakatimizda shahar hududi va tuman markazlarida bir sinfdagi bolalarning soni 25–35 nafargacha, qishloq hududlarida esa 20–35 nafargacha bo'lishi kerak. O'lis tog'li va cho'lli hududlarda joylashgan umumta'lim muassasalari bundan mustasno. O'quvchilar soni mazkur me'yor-

lardan kam bo'lgan hollarda umumta'lim muassasasi hamda tuman (shahar) xalq ta'limi va moliya bo'limlari bilan kelishilgan holda sinflar komplektlanadi [2].

To'lib ketgan sinflar individual yondashuvni qiyinlashtiradi, interaktivlikni pasaytiradi va intizomni saqlashni murakkablashtiradi. Bu esa o'quvchilarga psixologik ham ta'sir qiladi. Masalan, har qanday yaxshi o'zlashtirilmagan o'quvchi o'ziga bog'liq bo'lmagan holda kichik stresni boshidan o'tkazadi. Bu esa o'quvchining sog'ligiga ham jiddiy ta'sir qilishi mumkin. Aksincha, qishloq va chekka hududlardan aholi ko'chib ketishi natijasida o'quvchilar soni kamayadi va ba'zi maktablarning yopilishi yoki birlashtirilishi ehtimoli yuzaga keladi. Ammo ba'zi tadqiqotchilar bu fikrga qo'shilmaydi. Masalan, "Journal of Science Education" jurnalida e'lon qilingan hisobotda 2700 dan ortiq imkoniyati cheklangan o'rta maktab o'quvchilari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Unga ko'ra, sinflardagi o'quvchilar sonini kamaytirishning o'zi yaxshi baholarga olib kelmasligi aniqlangan. Tadqiqotning bosh muallifi, Xitoyning Taychjou universiteti professori Tao Szyan (Tao Jiang) fikricha, o'quvchilarning ta'limda muvaffaqiyatga erishishining asosiy kafolati o'qituvchilarning salohiyatidir. Sinflardagi o'quvchilar sonini kamaytirish hatto bolalarning eng yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini pasaytirishi mumkin [13]. Tadqiqot mualliflari sinflarni kichraytirish muammoga yechim bo'lmasligini, eng samarali yo'l mablag'larni malakali o'qituvchilarni ishga olishga sarflash ekanini ta'kidlashmoqda.

Shahar va qishloq hududlaridagi ta'lim sifati o'rtasidagi tafovut urbanizatsiya jarayoni bilan ham bog'liq. Shahar maktablari-da ta'lim infratuzilmasi rivojlangan bo'lsa,

qishloq maktablarida o'qituvchilar yetishmovchiligi va moddiy-texnik bazaning sustligi kabi muammolar mavjud.

Urbanizatsiya "jamiyat hayotida demokratiya va madaniyatning umumiy rivoji bilan bog'liq holda sanoat, ishlab chiqarish va aholining shaharlarda to'planishi hamda shaharlar mavqei (roli)ning oshib borishidan iborat ijobiy ijtimoiy-demografik jarayon"[8]dir. Bu jarayon turli sohalarga, jumladan, o'rta ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan: maktab infratuzilmasi, ta'lim sifati, o'qituvchilar tarkibi va o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlariga ta'sir etadi.

Urbanizatsiya natijasida shaharlarda kutilmagan o'quvchilar soni ortadi. Bu esa maktablarda o'quvchilar sonining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi ayrim maktablarda bir sinfda 40 nafargacha o'quvchi tahsil oladi. Sinfda o'quvchilar soni ortishi individual yondashuv imkoniyatlarini cheklaydi va pedagogik samaradorlikni pasaytiradi. Shu sababli shahar joylarda yangi maktablar qurish va mavjud maktablarni kengaytirish muhim vazifalardan biridir.

Urbanizatsiya ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirishga ham hissa qo'shishi mumkin. Yirik shaharlarda zamonaviy ta'lim infratuzilmasi, ilg'or texnologiyalar va innovatsion metodikalardan foydalanish imkoniyati kengroq bo'ladi. Shuningdek, shaharlarda xalqaro va xususiy maktablarning ko'pligi ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarga turli metodikalar bo'yicha ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Rus tadqiqotchisi Sergey Smirnov "Ta'lim va urbanizatsiya / dezurbanizatsiya: Rossiya misolida" nomli tadqiqotida ta'lim va urbanizatsiyaning bir-biriga ta'sirini Rossiya misolida o'rganadi va e'tiborga molik xulosalar beradi. Masalan, Rossiyada sha-

har hududlariga migratsiya qilish aholining o'rtacha ta'lim darajasi oshishiga sabab bo'ldi. Qishloq joylaridan shahar hududlariga ko'chib kelgan aholining mehnat bozoriga kirish imkoniyati qishloq joylarga qaraganda ancha yuqori bo'ldi. Shahar hududlarida ta'lim olish va ish topish imkoniyatlari yuqoriligi sababli qishloq aholisi shaharlarga ko'chib kelgan. Biroq oliy ta'limga kirish ko'pincha bilimdan ko'ra moliyaviy imkoniyatlarga bog'liq bo'lgan [7].

Urbanizatsiya o'qituvchilar tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi: shaharlardagi ko'plab ish o'rinlari va professional rivojlanish imkoniyatlari malakali pedagoglarni o'ziga jalb qiladi, natijada qishloq joylarda ularning yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, shahar va qishloq o'rtasidagi ta'lim sifati tafovutini yanada kuchaytiradi, chunki shaharlardagi maktablar zamonaviy texnologiyalar va ixtisoslashtirilgan dasturlar bilan ta'minlangan bo'lsa, qishloq maktablarida bunday imkoniyatlar cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa shahar o'quvchilariga oliy ta'lim va mehnat bozorida ustunlik beradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun qishloq maktablariga qo'shimcha rag'batlantirish tizimlarini joriy etish muhimdir.

Bundan tashqari, urbanizatsiya ta'lim tizimidagi ijtimoiy tengsizlik muammolarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Yirik shaharlardagi iqtisodiy tafovut sababli ba'zi oilalar farzandlarini sifatli ta'lim bilan ta'minlay olmasligi mumkin. Shuningdek, shahar muhitida farzandlarning ijtimoiy muhitga moslashishi va raqobatbardosh bo'lishi uchun qo'shimcha psixologik va pedagogik yordam zarur bo'lishi mumkin.

Ta'lim sifati va unga erishish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi yana bir omil hududiy joylashuvdir. Shaharlarda litseylar va ixtisoslashtirilgan maktablar ko'proq bo'ladi,

bu esa o'quvchilarga sifatli ta'lim olish imkoniyatini kengroq taqdim etadi. Kutubxonalar va qo'shimcha ta'lim markazlari ham bu imkoniyatni yanada oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar, tajribali o'qituvchilar va turli ta'lim dasturlarining mavjudligi shaharlik yoshlarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Qishloq joylarda esa ta'lim sifati va unga erishish imkoniyatlari nisbatan pastroq bo'lishi ehtimoli bor. Ba'zi hududlarda maktablarning uzoqda joylashgani, o'qituvchilarning yetishmovchiligi yoki yetarlicha malakaga ega emasligi muammoga aylanadi. Natijada qishloq bolalari sifatli ta'lim olishda shahardagi tengqurlariga qaraganda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ammo so'nggi yillarda masofaviy ta'lim va onlayn kurslarning rivojlanishi bu farqni bir qadar kamaytirishga yordam bermoqda. Internet orqali darslar o'tish, elektron darsliklardan foydalanish va masofaviy imtihon topshirish imkoniyatlari qishloq hududlaridagi o'quvchilar uchun ham imkoniyat eshiklarini ochadi. Biroq bu ham to'liq yechim emas, chunki tez internet va zamonaviy texnologiyalar hamma ham ega emas.

Ispaniyadagi Kataloniya ochiq universiteti (Universitat Oberta de Catalunya) tadqiqotchisi Marta López Costa Kataloniyaning davlat maktablarida akademik natijalarga hududiy va demografik omillarning ta'sirini o'rganadi va bu bo'yicha muayyan xulosalarga keladi. Uning tadqiqoti natijalariga ko'ra, aholi soni va hududiy joylashuv akademik yutuqlarga ta'sir qilsa-da, bu ta'sir har doim ham aniq va izchil emas. U o'rkazgan tajribada kichik aholi punktlarida o'quvchilar biroz yuqoriroq natijalarga erishgan, lekin bu farq katta emas. Delte de l'Ebre va Barselona hududlarida ta'lim natijalari nisbatan yuqori bo'lgani qayd etilgan. Tarixan qishloq joylardagi o'quvchilar shahardagi

tengqurlaridan pastroq natijalarga ega bo'lishgan, biroq so'nggi tadqiqotlar qishloq o'quvchilari ba'zi hollarda shahar o'quvchilaridan yaxshiroq natijalar ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bois tadqiqot muallifi Tadqiqot muallifi "Aholi soni va hududiy joylashuv o'quvchilarning baholariga biroz ta'sir qilishi mumkin, ammo maktab va oilaviy sharoit kabi boshqa muhim omillarni unutmaslik lozim"[5] degan xulosaga keladi.

Ta'limga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil oilalarning iqtisodiy holati va daromad darajasidir. Yaxshi moliyaviy imkoniyatlarga ega oilalar farzandlariga qo'shimcha ta'lim resurslari, repetitorlar va xususiy maktablarni taqdim eta oladi. Kam daromadli oilalar esa bunday imkoniyatlardan mahrum bo'lib, farzandlarining ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ota-onalarning ta'lim darajasi ham bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi ma'lumotli ota-onalar bolalarining o'qishiga ko'proq e'tibor qaratadi va ularga intizomli bo'lish hamda bilim olishning ahamiyatini tushuntiradi. Aksincha, ta'lim darajasi past oilalarda bolalarga yetarlicha e'tibor berilmasligi yoki bilim olishga rag'bat past bo'lishi mumkin. Shu sababli, jamiyatda ta'limning ahamiyatini oshirish, ota-onalarni rag'batlantirish va ularni bolalarining ta'lim jarayoniga faol jalb etish muhimdir. Tadqiqotlar "Ota-onalarning ma'lumot darajasi ham ta'lim natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi"[9]ni isbotlagan.

Xulosa qilib aytganda, demografik omillar, o'zining murakkab va ko'p qirrali tabiati bilan mamlakatning umumiy o'rta ta'lim tizimiga chuqur va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi maktablar soni, sinflarning sig'imi va o'qituvchilarning yuklamasiga bevosita ta'sir etsa, yosh tarkibidagi o'zgarishlar ta'limga bo'lgan talabga ta'sir o'tkazadi, yosh avlodning ko'pligi esa boshlang'ich va o'rta ta'limga ehtiyojni oshiradi. Migratsiya jarayonlari ta'lim tizimida imkoniyatlarni, muammolarni ham yaratadi. Urbanizatsiya jarayoni ham shahar maktablariga bo'lgan bosimni oshirib, qishloq va shahar o'rtasidagi ta'lim sifati tafovutini chuqurlashtirishi mumkin.

Ushbu demografik tendensiyalarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va ijobiy tomonlarini kuchaytirish uchun davlat siyosati va ta'lim muassasalari tomonidan moslashuvchan, qisqa va uzoq muddatli choralar ko'rilishi zarur. Ta'limni tashkil etishda mavjud demografik holat va uning prognozlarini hisobga olish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, ta'lim sharoiti bilan, jumladan, o'quvchi o'rni yaratish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish muhimdir. Ta'lim tizimi demografik o'zgarishlar inobatga olingan va ular bilan bog'liq muammolarga munosib yechimlar taklif qilingan sharoitdagina barqaror rivojlanishi mumkin. Ta'limni samarali boshqarish va bu orqali uning sifat darajasini yuksaltirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga mustahkam

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi PF-5712-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4312785> (murojaat vaqti: 03.03.2025).
2. Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida nizom: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qarori bilan tasdiqlangan, 30.06.2020-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3271 // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4919258> (murojaat vaqti: 03.03.2025).
3. Akar H. Challenges for schools in communities with internal migration flows: evidence from Turkey // International Journal of Educational Development. – 2010. – Volume 30, № 3. – P. 263-276.
4. Berker A. The impact of internal migration on educational outcomes: Evidence from Turkey // Economics of Education Review. – 2009. – Vol. 28, Issue 6. – P. 739.
5. Marta López Costa. The Impact of Territorial and Demographic Factors on Academic Performance in Public Schools Across Catalonia // International Journal of Education. – 2024. – Vol. 16, No. 2. – P. 48.
6. Миграция // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. Конимех – Мирзоқуш. Таҳрир ҳайъати: М. Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва б. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003. – 640-б.
7. Смирнов С. Н. Образование и урбанизация / дезурбанизация: пример России // ЭСПР. 2018. №2. С. 37-55.
8. Урбанизация // Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Масъул муҳаррир А. Мадвалиев. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 293-б.
9. 414 мингдан ортиқ 11-синф ўқувчилари мактабни тамомламоқда // Миллий статистика қўмитаси Матбуот хизматининг расмий канали. URL: https://t.me/statistika_rasmiy/4727 (murojaat vaqti: 30.04.2025).
10. Aholi soni // Demografiya milliy portali. URL: <https://demografiya.uz/uz/wiki/aholi-soni/> (murojaat vaqti: 27.02.2025).
11. Hilola Umarova O'zbekistonda maktablar yetishmovchiligi muammosiga munosabat bildirdi // Oyina.uz. URL: <https://oyina.uz/uz/posts/24508> (murojaat vaqti: 27.02.2025).
12. Maktab defitsiti: sabab, oqibat va yechimlar // Kun.uz. URL: <https://kun.uz/news/2023/05/23/maktab-defitsiti-sabab-oqibat-va-yechimlar> (murojaat vaqti: 27.02.2025).
13. Sharin H. Why quality teachers make a difference // Talker. URL: <https://talker.news/2024/03/08/how-the-quality-of-teachers-makes-a-difference-in-the-classroom> (murojaat vaqti: 03.03.2025).
14. Statitika // O'zbekiston respublikasi hukumat portali. URL: <https://gov.uz/oz/uzedu/pages/statistika> (murojaat vaqti: 27.02.2025).
15. Umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasi yanada yaxshilanadi // O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" portali. URL: <https://openbudget.uz/portal/news/umumtalim-maktablarining-moddiy-texnika-bazasi-yanada-yaxshilanadi> (murojaat vaqti: 03.03.2025).
16. Президент мактаблари ва ихтисослашган мактаблар тажрибаси оммалаштирилади // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali. URL: https://t.me/Press_Secretary_Uz/4845 (murojaat vaqti: 30.04.2025).

ANTROPOSEN MUHITIDA O'QUVCHILARNING ONGLI HARAKATINI RIVOJLANTIRISH

Alimuxamedova Umida Erkinovna,
*Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi,
tabiiy va aniq fanlar bo'limi bosh mutaxassisi
alimukhamedova72@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroposentrik davrda o'quvchilarning ongli harakatini rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan. XXI asrning ekologik va texnologik o'zgarishlari ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar asosida tadqiqot Muhammad al-Xorazmiy maktabida o'tkazilgan bo'lib, "Yashil bayroq" loyihasi va eko-maktablar tajribasi asosida ekologik ong va ongli harakatni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Maqolada xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda, ekologik ta'lim va ongli harakatni rivojlantirishning pedagogik usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida amaliy qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlarni taklif etilgan.

Kalit so'zlar: antroposentrik davr, ekologik ta'lim, ongli harakat, yashil bayroq, eko-maktablar, pedagogik metodika, ekologik ong, loyihaga asoslangan ta'lim.

Развитие сознательной активности учащихся в антропоценовой среде

Алимухамедова Умида Эркиновна
Научно-практический центр
педагогического мастерства и
международного оценивания Ведущий
специалист отдела естественных
и точных наук
alimukhamedova72@gmail.com

Аннотация: В данной статье проанализирована методика развития сознательной активности учащихся в антропоценовый период. Исследование, проведенное в школе имени Мухаммада аль-Хорезми, основывается на новых подходах к образовательной системе в условиях экологических и технологических изменений XXI века. Разработана методика развития экологического сознания и сознательной активности на основе проекта "Зелёный флаг" и опыта эколо-школ. В статье, опираясь на международные научные исследования, рассматриваются педагогические методы экологического образования и развития сознательной активности. Результаты исследования предлагают методические подходы, которые могут быть применены в образовательном процессе.

Ключевые слова: антропоценовый период, экологическое образование, сознательная активность, Зелёный флаг, эколо-школы, педагогическая методика, экологическое сознание, проектное обучение.

Developing students' awareness activity in the anthropocene environment

Umida Erkinovna Alimukhamedova,
Chief Specialist of the Department of Natural

and Exact Sciences, Scientific and Practical
Center for Pedagogical Mastery and
International Assessment
alimukhamedova72@gmail.com

Abstract: This article analyzes the methodology for developing students' conscious activity in the Anthropocene era. The research, conducted at the Muhammad al-Khwarizmi School, based on new approaches to the education system in the context of 21st-century ecological and technological changes. A methodology for developing ecological awareness and cons-

cious activity has been developed based on the "Green Flag" project and the experience of eco-schools. The article, relying on international scientific research, examines pedagogical methods for environmental education and the development of conscious activity. The research findings recommend methodological approaches that can be practically applied in the educational process.

Keywords: Anthropocene era, environmental education, conscious activity, Green Flag, eco-schools, pedagogical methodology, ecological awareness, project-based learning.

XXI asr texnologik va ekologik o'zgarishlari tufayli ta'lim tizimi yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Antroposentrik davr deb ataluvchi ushbu bosqichda insoniyat faoliyati global ekologik tizimlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ekologik ta'lim va o'quvchilarning ongli harakatini shakllantirish muhim pedagogik muammolardan biriga aylandi. O'zbekiston ta'lim tizimida ekologik madaniyatni oshirish bo'yicha "Yashil bayroq" va eko-maktablar loyihalari joriy etilmoqda.

Mazkur loyihalar Muhammad al-Xorazmiy maktabida ekologik ong va ongli harakatni rivojlantirish metodikasi asosida o'qitildi. Tadqiqot xalqaro ilmiy izlanishlar, ekologik ta'lim bo'yicha ilg'or tajribalarga tayanib maktabda amaliy loyihalar olib borildi va tahlil qilindi.

Antroposentrik davr – inson faoliyatining Yer ekotizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi geologik bosqichi bo'lib, bu tushuncha XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ilmiy muhokamalarga kirib keldi. 2000-yilda Nobel mukofoti sovrindori **Paul Crutzen** ushbu atamani ilmiy muomulaga kiritib, insoniyatning sanoat inqilobidan boshlab global ekologik tizimlarga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

Antroposentrik davrning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

iqlim o'zgarishi – issiqxona gazlari chiqindilarining ortishi natijasida global isish jarayoni kuzatilmoqda;

biologik xilma-xillikning kamayishi – hayvonlar va o'simliklar turlarining tez yo'qolishi (mass extinction);

sanoat va urbanizatsiya ta'siri – tabiiy resurslarning tez tugatilishi va tuproq degradatsiyasi;

plastik va kimyoviy ifloslanish – okean va quruqlikda chiqindilarning ko'payishi;

ekotizimlar barqarorligining buzilishi – inson tomonidan o'rmonlarning kesilishi, yerlarning sho'rlanishi va cho'llanish jarayonlari.

Bu xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat hozirda global ekologik muammolar oldida turibdi va ularni hal qilish uchun ta'lim tizimiga ekologik madaniyat va ongli harakatni shakllantirishga qaratilgan o'zgarishlar kiritilishi zarur.

Ekologik ta'lim nima va uning maqsadi. **Ekologik ta'lim – bu inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rgatish**, ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim jarayonidir.

Ekologik ta'limning asosiy maqsadi:

- O'quvchilarda ekologik ong va barqaror rivojlanish tushunchalarini shakllantirish.
- Ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.
- Ekotizimlarni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Hozirgi kunda ekologik ta'lim quyidagi yo'nalishlar orqali rivojlantirilmoqda:

biologiya, kimyo, fizika, geografiya va tabiiy fanlar darslarida ekologik mavzularni kengroq yoritish, o'quvchilarning ekologik loyihalarda faol ishtirok etishini rag'batlantirish hamda interaktiv va eksperimental o'qitish masalalari kiritilgan.

Ekologiya, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yangi fanlarni ta'lim dasturiga kiritish, talabalarning ekologik tadqiqotlar va amaliy ishlar bilan shug'ullanishini rag'batlantirishni yo'lga qo'yish kerak.

Korxonalarda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni joriy etish va ekologik seminarlar o'tkazish, jamiyatda ekologik targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish zarur. Ekologik ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rne tobora ortib bormoqda, chunki global ekologik muammolarni hal qilish faqat davlat organlari yoki ilmiy doiralar emas, balki har bir fuqaroning mas'uliyatiga bog'liq.

Quyida bir necha loyihalar keltirilgan.

Chiqindilarni ajratish loyihasi.

Chiqindilarni ajratish loyihasi maktab va mahallalarda chiqindilarni saralash tizimini joriy etish, ularni to'g'ri utilizatsiya qilish va qayta ishlash orqali atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu loyiha quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Chiqindilarni turkumlash va ajratish:

Maktab hududida maxsus konteynerlar o'rnatish orqali chiqindilarni organik, plastik, qog'oz va metall kabi turkumlarga ajratish.

Qayta ishlash va utilizatsiya qilish: O'quvchilarga chiqindilarni qayta ishlash jarayoni haqida tushuncha berish va amaliy loyihalar tashkil etish.

Targ'ibot va ta'lim: O'quvchilarga chiqindilarni saralashning ahamiyati, ekologik zararlarni kamaytirish usullari bo'yicha trening va seminarlar o'tkazish.

Hamkorlik: Mahalliy ekologik tashkilotlar va davlat idoralari bilan hamkorlikda chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha loyihalarini rivojlantirish.

"Suvni tejaylik" aksiyasi.

"Suvni tejaylik" aksiyasi O'zbekistonning suv resurslarini tejash va suv tanqisligining oldini olish maqsadida maktablarda va mahallalarda amalga oshiriladigan ekologik loyihalardan biridir. Ushbu loyiha quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Suv resurslarini tejash bo'yicha ta'lim: O'quvchilarga suv tanqisligi muammosi va uni tejash usullari haqida ma'lumot berish.

Amaliy choralar: Maktablarda suvdan samarali foydalanish texnologiyalarini joriy etish (masalan, suvni filtratsiya qilish tizimlari, yomg'ir suvidan foydalanish).

Targ'ibot ishlari: O'quvchilar orasida suvni tejash bo'yicha targ'ibot ishlari olib borish, plakatlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

Hamkorlik: Suv resurslarini tejash bo'yicha mahalliy ekologik tashkilotlar va davlat idoralari bilan hamkorlikda ishlash.

O'quvchilar suvni tejash, jamoaviy ishlash va ekologik mas'uliyatni oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Yashil maktab” loyihasi

“Yashil maktab” loyihasining maqsadi

– maktab o‘quvchilarining ekologik ongini shakllantirish, ularning atrof-muhitga bo‘lgan mas‘uliyatini oshirish va amaliy ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tashabbusidir. Loyiha ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslanib, maktab hududida yashil zonalar yaratish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish va o‘quvchilarga ekologik hayot tarzini singdirish orqali ta‘lim tizimiga ekologik yondashuvni kiritishni maqsad qiladi.

O‘quvchilar ekologik muammolarni tushunish bilan birga ularni amaliy tarzda hal qilish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, maktablarda yashil hududlarni ko‘paytirish orqali havo sifatini yaxshilashga hissa qo‘shiladi. Energiya tejamoq texnologiyalarni joriy etish orqali maktablarning resurslardan samarali foydalanishi ta‘minlanadi. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va mahalliy hamjamiyatning ekologik loyihalarga jalb qilinishi orqali jamiyatda ekologik madaniyat rivojlantiriladi.

“Yashil maktab” loyihasi ekologik muammolarning oldini olish va o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu modelni keng joriy qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- Maktablarda ekologik loyihalarni majburiy ta‘lim dasturlariga kiritish.
- O‘quvchilarga ekologik muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha innovatsion loyihalar yaratish imkoniyatlarini berish.
- Mahalliy ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni amalga oshirish.


Natijalar

O‘zbekiston maktab o‘quvchilari xalqaro ekologik loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda. 2020-yilda “Eco-Schools

International” dasturi doirasida bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Ushbu dastur 1994-yilda Atrof-muhit Ta‘limi Jamg‘armasi (Foundation for Environmental Education - FEE) tomonidan boshlangan bo‘lib, bugungi kunda 70 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi.



Al-Xorazmiy maktabi o‘quvchilari ham ekologik loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 2020-yilda Huawei kompaniyasining “Seeds for the Future” loyihasida qatnashgan o‘quvchilar 5G texnologiyalari, sun‘iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishdi. Shuningdek, maktabda ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish



Yashil bayroq
(Green Flag) – bu maktablarning ekologik faoliyatini

tan olish va rag‘batlantirish uchun beriladigan xalqaro mukofotdir. Bu mukofot maktablarning atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalarni joriy etishdagi muvaffaqiyatlarini e‘tirof etadi. Maktablar bu mukofotni olish uchun ekologik loyihalarni amalga oshirishi, o‘quvchilarni ekologik bilimlar bilan ta‘minlashi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha faoliyat yuritishi kerak.

uchun innovatsion metodikalar asosida fakultativ darslar o'tkaziladi. Artel, UCell, ZTE va Huawei kabi kompaniyalar bilan hamkorlikda maxsus sinflar tashkil etilgan bo'lib, bu yerda o'quvchilar amaliyot olib borishadi va ekologik texnologiyalar bo'yicha bilimlarini oshiradilar. Maktabda robototexnika va elektronika bo'yicha laboratoriyalar mavjud bo'lib, o'quvchilar o'z robotlarini yaratish va ekologik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, IT Park bilan hamkorlikda tashkil etilgan maxsus auditoriyalar orqali o'quvchilar ekologik texnologiyalar bo'yicha bilimlarini yanada rivojlantiradilar.

Bundan tashqari, maktabda ekologik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus darslar va treninglar o'tkazilmoqda. Bu darslarda o'quvchilar ekologik muammolarni hal qilish, barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalar bo'yicha bilimlarini oshiradilar. Bu darslarda o'quvchilar ekologik muammolarni hal qilish, barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalar bo'yicha bilimlarini oshiradilar.

Ekologik loyihalarni maktab o'quvchilarining o'zlari tashkil etib, o'z g'oyalari asosida faoliyat olib boradilar. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi *Dilmurod Yo'ldoshev* ecoschool loyihasi orqali ekologik bilimlarini oshirish va yashil texnologiyalarni targ'ib qilishdagi faoliyati maktabning *Yashil bayroq* mukofotini olishiga hissa qo'shdi. U o'qish davomida maktabda ikkita yirik jamoa tashkil qilgan:

Infinity Team: Bu jamoa o'quvchilari ilmiy va texnologik sohalarda faoliyat yuritib, turli tanlovlarda ishtirok etgan.

Ecoschool: Ushbu loyiha ekologik bilimlarni oshirish va yashil texnologiyalarni targ'ib qilishga qaratilgan. Maktabda ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun

innovatsion metodikalar asosida fakultativ darslar o'tkaziladi.

Umuman olganda, Al-Xorazmiy maktabi ekologik ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, o'quvchilarga zamonaviy ekologik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

Munozara

O'zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf etishda *loyihaga asoslangan ta'lim* (LAT) samaradorligini baholash shuni ko'rsatadiki, ushbu metod o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish va ularni amaliy faoliyatga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, LATning bir qator afzalliklari va qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin.

LAT ekologik ta'limni an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yanada interaktiv va amaliy qilishga yordam beradi. O'quvchilar ekologik muammolarni faqat nazariy jihatdan o'rganib qolmay, balki ularni tahlil qilish va hal etish bo'yicha tajriba orttiradilar. Masalan, "Yashil maktab", "Chiqindilarni ajratish" va "Suvni tejaylik" kabi loyihalar orqali o'quvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha real hayotiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ushbu loyihalar maktab o'quvchilarini ekologik muammolar bilan bevosita shug'ullanishga undaydi va ularning ekologik mas'uliyatini oshiradi.

LATning ta'lim jarayonidagi samaradorligi xalqaro tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan. Xususan, PISA va UNESCO tadqiqotlari loyihaviy ta'limning o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda LATning ekologik ta'limda qo'llanishi nafaqat o'quvchilarning ekologik savodxonligini oshirish, balki ularning ijodiy

fikrlash va ijtimoiy faolligini kuchaytirishga ham yordam beradi.

Biroq, LAT metodini qo'llashda qator qiyinchiliklar ham mavjud. birinchidan, maktablarda yetarli moddiy-texnik baza va resurslar yetishmasligi LAT loyihalari-ning samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Ko'plab maktablarda ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus laboratoriyalar, tajriba maydonchalari yoki ekologik tadbirlarni o'tkazish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetarli emas.

Ikkinchidan – o'qituvchilarning loyihaviy ta'lim metodikasi bo'yicha malaka va tajribasi turlicha. LATdan samarali foydalanish uchun pedagoglar maxsus o'quv dasturlari va metodologiyalar bilan tanish bo'lishi, zamonaviy ta'lim usullaridan foydalana olishi lozim. Shuningdek, LAT doirasida o'quvchilar faolligini oshirish uchun motivatsion omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, LATni ekologik ta'limda qo'llash uchun mahalliy hamjamiyat, davlat tashkilotlari va ekologik muassasalar bilan samarali hamkorlik qilish zarur. Maktab va universitetlarda o'quvchilarni real ekologik muammolarni hal qilishga jalb etish orqali bu jarayonni yanada takomillashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ekologik muammolarni hal qilishda LATning

o'рни katta bo'lib, u o'quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish, ularni atrof-muhit muammolariga befarq bo'lmagan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, LATni samarali joriy etish uchun infrastrukturaning rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

O'zbekistonda ekologik muammolar dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat organlari, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorlikda ishlashi zarur. Eng muhimi, yosh avlodni ekologik ongli qilib tarbiyalash orqali kelajakda barqaror ekologik muhitni yaratish mumkin. Ta'lim tizimida ekologik tarbiyani kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholining ekologik mas'uliyatini oshirish bu yo'lda eng muhim qadamlardan biridir. Ekologik muammolarni hal qilishda yoshlarni jalb qilish, ular orasida mas'uliyat va bilimlarni oshirish kelajakdagi ekologik barqarorlikning muhim qismi hisoblanadi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik metodlar o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ekologik ong va ongli harakatni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni ta'lim tizimiga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2022). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/>
2. OECD. (2021). PISA 2021 Assessment and Analytical Framework. Retrieved from <https://www.oecd.org/pisa/>
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. (2023). O'zbekistonning ekologik strategiyasi. Retrieved from <https://eco.gov.uz/>
4. YUNICEF O'zbekiston. (2022). O'zbekistonda ekologik barqarorlik va ta'lim. Retrieved from <https://www.unicef.uz/>
5. J. Dewey. (1916). Democracy and Education. Retrieved from <https://www.gutenberg.org/>
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023). O'zbekistonda ta'limda loyihaviy yondashuvni joriy etish bo'yicha tavsiyalar. Retrieved from <https://edu.uz/>
7. Xalqaro ekologik tashkilotlar. (2023). Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish. Retrieved from <https://www.worldwildlife.org/>

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDA PSIXOLOGIK MUHITNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Maryam Raximova O'tkir qizi,
*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik muhitni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o'rganilgan. Tadqiqotda pedagogik jamoa va rahbar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida rahbarning liderlik qobiliyati, boshqaruv uslublari, o'qituvchilarning professional holati, kommunikativ ko'nikmalar va maktab tashkiliy sharoitlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat ta'lim siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy muhitning psixologik muhitga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: psixologik muhit, pedagogik jamoa, rahbar, boshqaruv uslublari, liderlik, o'qituvchilarning professional holati, kommunikativ ko'nikmalar, tashkiliy sharoitlar, ijtimoiy muhit, ta'lim siyosati, stress, jamoaviy ruh, psixologik farovonlik.

**Факторы, влияющие на развитие
психологического климата в управлении
общеобразовательными школами**

Марям Рахимова Уткир кызы,
*Магистрант Национального
научно-исследовательского института
педагогического мастерства имени
Абдуллы Авлони*

Аннотация: Данная статья исследует
внутренние и внешние факторы, влияю-

щие на развитие психологической обстановки в общеобразовательных школах. В исследовании рассматриваются основные факторы, влияющие на взаимоотношения между педагогическим коллективом и руководством школы, такие как лидерские качества руководителя, стили управления, профессиональное благополучие учителей, коммуникативные навыки и организационные условия школы. Также анализируется влияние государственной образовательной политики, социально-экономической среды на психологический климат.

Ключевые слова: психологический климат, педагогический коллектив, руководство, стили управления, лидерские качества, профессиональное благополучие учителей, коммуникативные навыки, организационные условия, социальная среда, образовательная политика, стресс, командный дух, психологическое благополучие.

**Factors affecting the development of the
psychological climate in the management
of general secondary education schools**

Maryam Rakhimova, daughter of O'tkir,
*Master's student at the Abdulla Avloniy
National Research Institute
of Pedagogical Excellence*

Abstract: *This article explores the internal and external factors influencing the development of the psychological climate in general secondary education schools. The study examines key factors affecting the relationship between the pedagogical team and the school leadership, including the leadership qualities of the principal, management styles, teachers' professional well-being, communication skills, and organizational conditions of the school. Additi-*

onally, the influence of state education policy, social and economic environment on the psychological climate is analyzed.

Keywords: *psychological climate, pedagogical team, leadership, management styles, leadership qualities, teachers' professional well-being, communication skills, organizational conditions, social environment, education policy, stress, team spirit, psychological well-being.*

Umumta'lim maktablarida ruhiy-ijtimoiy muhit ta'lim sifati, pedagog va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari hamda boshqaruv jarayonining natijadorligi bilan chambarchas bog'liq. Maktab jamoasidagi ma'naviy-axloqiy muhit har bir ishtirokchining ichki holatini shakllantirib, ularning o'z vazifalariga bo'lgan yondashuvini belgilaydi. Maktab muhitining barqarorligi va rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri rahbar shaxsining kasbiy tayyorgarligi, uning boshqaruv jarayonidagi puxta qarorlari va jamoa bilan samarali muloqot qura olish qobiliyatidir. Rahbarning tashkiliy-ma'naviy salohiyati, pedagogik jamoaga ta'siri, shuningdek, psixologik jarayonlarni chuqur anglay olishi maktabdagi ijtimoiy-emosional muhitni belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida ruhiy barqarorlik va axloqiy muvozanatga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishga qaratilib, boshqaruv jarayonini takomillashtirish uchun amaliy yondashuvlarni tavsiya etadi. Shu asosda ta'lim muassasalarida insoniy qadriyatlarga asoslangan ichki muhit shakllantirish yo'llari yoritiladi.

Maktabdagi psixologik muhit – bu o'qituvchilar, o'quvchilar va rahbariyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, hamkorlik darajasi va umumiy hissiy holat bilan bog'liq bo'lgan muhim omildir. Ushbu muhitning

o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ichki omillarni ikkita kategoriya bo'yicha ko'rib chiqishimiz mumkin:

1) Rahbar xodimlar faoliyatiga tegishli omillar;

2) Pedagog xodimlar faoliyati bilan bog'liq omillar.

Quyida mazkur kategoriyalarni aniqlashtirish uchun o'tkazilgan tadqiqot ishini ko'rib chiqamiz:

Bu tadqiqot sifatli metodlar asosida o'tkazilgan bo'lib, bir nechta holatlar (case study) o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – maktab direktorlari va o'qituvchilar o'rtasida sog'lom munosabatlar muhitini yaratishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqish. O'tkazilgan ishning mazmuni maktab rahbarlari qanday yetakchilik uslublaridan foydalanishini va bu uslublarning o'qituvchilar hamda o'quvchilarga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot o'tkazish mobaynida *"Maktab direktorlari o'qituvchilar va o'quvchilar uchun sog'lom muhitni qanday yaratadi?"* savoli negiz masala sifatida qabul qilindi. Ushbu savolga javob topish uchun tadqiqotda quyidagi yondashuvlardan foydalanilgan:

- Direktorlar bilan intervyular o'tkazish;
- O'qituvchilarga so'rovnomalar tarqatish;

Tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlari va o'qituvchilari bilan o'tkazildi.

Tadqiqot doirasida 10 nafar maktab direktori bilan intervyu, shuningdek, o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Intervyular Toshkent shahar 66 va 144-umumiy o'rta ta'lim maktablarining 50 nafar o'qituvchilari va shahar bo'ylab 10 nafar maktab direktorlari orasida o'tkazildi.

Tadqiqotda quyidagi uchta ma'lumot yig'ish usuli qo'llanildi:

1. *Maktab direktorlarining intervyulari.* Direktorlar bilan o'tkazilgan intervyular tadqiqotning eng muhim qismidir, chunki direktorlar maktab muhitini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Direktorlarga berilgan savollardan ba'zilari:

- "O'qituvchilar va o'quvchilar uchun ijobiy muhit yaratish uchun eng muhim omil nima?"

- "Sizning rahbarlik uslubingiz qanday?"

- "O'qituvchilar orasidagi ziddiyatlarga ko'pincha nima sabab bo'ladi?"

2. *O'qituvchilar uchun so'rovnomalar.* O'qituvchilarga tarqatilgan so'rovnomalar ularning direktor bilan munosabatlari va maktab muhitidan qoniqish darajasini o'lchash, ularning ish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan. O'qituvchilarga berilgan savollardan ba'zilari:

- "Direktor tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanayapsizmi?"

- "Direktoringiz oldiga yordam so'rab borishda o'zingizni qulay his qilasizmi?"

- "Maktabdagi professional rivojlanish imkoniyatlari yetarlimi?"

Yig'ilgan ma'lumotlar quyidagi usullar yordamida tahlil qilindi:

1) Intervyular – direktorlarning javoblari yozib olinib, mavzular bo'yicha tahlil qilindi.

2) So'rovnomalar – o'qituvchilar va o'quvchilarning javoblari foiz hisobida tahlil qilindi.

Natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari mak-

tab direktorlarining rahbarlik uslubi, ularning o'qituvchilarga ta'siri va ta'lim muhiti-ning sifati, va ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar bo'yicha tahlil qilindi.

Direktorlar bilan o'tkazilgan intervyular natijalari. Tadqiqot davomida 10 nafar maktab direktori bilan intervyu o'tkazildi. Ushbu intervyular orqali maktab rahbarlarining boshqaruv uslubi va ta'lim muhitiga bo'lgan yondashuvlari o'rganildi. *Direktorlarning boshqaruv uslubi.* Intervyular natijalariga ko'ra, direktorlarning rahbarlik uslubi quyidagicha tasniflandi: 60% (6 nafar direktor) – "Demokratik va jamoaviy rahbarlik" uslubidan foydalanadi. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarni maktab hayotiga jalb qilishga intilishadi. 30% (3 nafar direktor) – "Avtoritar va yo'naltiruvchi rahbarlik" uslubidan foydalanadi. Ular qat'iy qoidalar asosida boshqaradi, lekin ba'zan jamoaviy qarorlarni ham inobatga oladi. 10% (1 nafar direktor) – "Liberal rahbarlik" uslubiga ega. Ular o'qituvchilar va o'quvchilarga erkinlik berib, ularning mustaqil ishlashini rag'batlantiradi.

O'qituvchilarga ko'rsatiladigan yordam. Tadqiqot natijalariga ko'ra, direktorlarning o'qituvchilar bilan qanday ishlashi, shuningdek, jamiyatda o'qituvchilarning qadrlanish darajasi ularning motivatsiyasiga va ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Demokratik rahbarlar o'qituvchilar bilan doimiy muloqot olib boradi va ularning muammolarini tinglaydi. Avtoritar rahbarlar tartib va nazoratga ko'proq urg'u beradi, lekin ba'zan o'qituvchilarning muammolariga yetarli e'tibor qaratmaydi. Liberal rahbarlar o'qituvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini beradi, lekin bu ba'zan tartibsizlikka olib kelishi mumkin.

O'qituvchilar so'rovnomasining natijalari. O'qituvchilarga taqdim etilgan so'rovnomalar maktab rahbariyati, jamiyatdagi

siyosiy-ijtimoiy holat, qonuniy tadbirlar, demografik omillar va shu kabi bir qator ta'sir kuchlarini ularning ishiga qanday ta'sir qilishini baholashga yordam berdi.

Direktor va atrof-muhit tomonidan qo'llab-quvvatlanish. 75% o'qituvchilar jamoa va rahbariyatdan yetarlicha qo'llab-quvvat olayotganini bildirdi. 25% o'qituvchilar esa maktab rahbariyati tomonidan yetarli yordam olinmayotganini ta'kidladi.

Ochiq muloqot qilish imkoniyati. 70% o'qituvchilar o'z muammolarini bimalol ochiq-oshkora yetkazishi mumkinligini va buning to'g'ri qabul qilinishini aytdi. 30% o'qituvchilar esa ayniqsa rahbar xodimlar va yuqori turuvchi tashkilot vakillari bilan muloqot qilish qiyinligini ta'kidladi.

Ish muhiti va ta'lim sifati va maktab infratuzilmasi. 80% o'qituvchilar direktorlari yetakchilik qilayotgan maktab va o'zi istiqo-

Asosiy natijalar:

1. O'qituvchilar rahbariyat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanganda o'z ishidan qoniqish hosil qiladi va yaxshi ishlaydi.

2. Direktorlar jamoaviy rahbarlik yondashuvini qo'llaganda, maktab muhitida ijobiy tashkilotchilik va hamkorlik qilish darajasi yuqori bo'ladi.

3. Pedagog xodimlar direktor bilan ochiq muloqot qila olsalar, o'zlarini maktabning muhim qismi deb his qilishadi. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirilish ularning ishga bo'lgan mas'uliyat va ishtiyoqini oshiradi.

Pedagog va olim Shukur Po'latov kasbiy farovonlikni ta'minlashning ba'zi jihatlarini o'qituvchilar ish faoliyatiga ta'sirini o'z tadqiqotlarida samaradorlikni oshirish mezonlari sifatida ko'rib chiqadi [1]:

Omillar	Faolroq ishlashga undaydi (%)	Ishni jozibaliroq bajarishga yordam beradi (%)	Ikkalasini ham ta'minlaydi (%)
Xizmat pog'onasida ko'tarilish imkoniyati	45	25	21
Yaxshi ish haqi	54	28	16
Natijalari bilan bog'liq ish haqi va ustamalar	43	32	15
Yaxshi bajarilgan ish uchun e'tirof va ma'qullash	51	38	12
Qobiliyatni rivojlantirishga majbur qiladigan ish	40	35	23
Murakkab va qiyin ish	35	32	15
Mustaqil fikrlash imkonini beradigan ish	38	35	21

mat qilayotgan hududni ish muhiti uchun ijobiy deb baholadi. 20% o'qituvchilar esa ish muhitidan qoniqmaganini va rahbariyat va aholining o'qituvchi kasbiga e'tiborini oshirish kerakligini bildirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan rahbariyat – pedagog munosabatlari, qarorlarni qabul qilishda o'qituvchilarning fikrini inobatga olish va shaffof rag'batlan-

tirish tizimi kasbiy motivatsiyani oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ish hajmining me'yoriy taqsimlanishi, stress omillarining minimallashtirilishi hamda psixologik va kasbiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi o'qituvchilarning ishga bo'lgan qoniqish darajasini oshirib, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik farovonlikni ta'minlash va samarali boshqaruv modelini shakllantirish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maktab boshqaruvchisi va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar sifatini baholash uchun Mwita Sospeter (Ta'lim boshqaruvini rivojlantirish agentligi xodimi (ADEM), Tanzaniya), Issaya B. Hassanal (Tanzaniya Hisob institutining o'qituvchisi)lar quyidagi to'rtta mezonni taklif qilishadi [2]:

1. *Hamkorlik* – rahbariyat o'qituvchilar bilan maktabdagi masalalarni hal etishda qay darajada hamkorlik qiladi?

2. *Tahliliy muloqot* – maktab ichida yuzaga keladigan muammolar muntazam muhokama qilinadimi?

3. *Jamoaviy boshqaruv* – rahbariyat qarorlarni qabul qilish jarayonida o'qituvchilar fikrini inobatga oladimi?

4. *Doimiy rivojlanish* – pedagoglar uchun kasbiy malaka oshirish imkoniyatlari mavjudmi?

Ish muhitining o'qituvchilar qoniqishiga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi mezon tanlandi:

• *Qulay ish muhiti* – pedagoglarning yashash va mehnat qilish sharoitlaridan mamnunlik darajasi.

Ishga bo'lgan qoniqish darajasini baholash uchun esa quyidagi ikki mezon asos qilib olindi:

1. *Qoniqish darajasi* – o'qituvchilar rah-

bariyat tomonidan ularning mehnati e'tirof etilayotganini his qiladimi?

Kasbiy sadoqat – pedagoglarning o'z kasbiga bo'lgan sadoqati qay darajada?

Ushbu tadqiqot natijalari xulosalari va mamlakatimizdagi mavjud maktab boshqaruv tizimini taqqoslagan holda biz maktab boshqaruvchisi va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar sifatini yanada yaxshilash uchun rahbar xodimlar ish faoliyatlarida quyidagi xususiyatlar inobatga olinishi lozim deb hisoblaymiz:

- Rahbariyatning pedagogik jamoa a'zolari bilan ochiq va samimiy muloqot o'rnatishi.

- Qarorlar qabul qilish jarayonida pedagoglar fikrini inobatga olish.

- Maktab rahbariyatining pedagoglarga nisbatan hurmat va qadrlash munosabati.

Turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktab boshqaruvi hamda ish sharoiti o'qituvchilarning kasbiy mamnuniyati va faoliyatga sadoqat darajasiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Masalan, Shvetsiyada 2031-yilga qadar 80 000 nafar o'qituvchi lavozimi vakant bo'lib qolishi kutilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, pedagoglarning mehnat sharoitlari va maktab rahbariyati bilan bo'lgan munosabatlari ularning kasbiy qoniqishiga va sadoqatiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, Tanzaniyada o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari yetarlicha e'tiborga olinmagani tufayli ular o'z ish joylarini tark etmoqda[3].

Ko'plab tadqiqotlar ta'sirchan va ravshan ko'rinsada, ularning aksariyati puxta tahlil qilinganda aniq ma'lumotlardan yiroq ekanini namoyon bo'ladi. Rahbarlar uchun berilgan maslahatlar ko'pincha aniq bo'lmagan, bajarilishi qiyin yoki muayyan sharoitlar va omillarga bog'liq bo'lib chiqadi. Shuningdek, tadqiqotlarning aksariyati sababiy

bog'liqlikni isbotlashga emas, balki tavsifiy va korrelyatsion xulosalarga asoslanadi. Maktablarda o'quvchilarning akademik natijalari ko'tarilganda yoki pasayganda, ko'pincha o'qituvchilarning ish samaradorligiga e'tibor qaratiladi. Biroq, maktab rahbariyatining roli va ularning muhit yaratishga ta'siri haqida kamdan-kam o'ylaymiz. Boshqaruv tizimining manbalari va omillari ma'lum jihatdan uning sabablarini hosil qiladi. Boshqaruv tizimi manbalarini ichki va tashqi manbalarga bo'lish mumkin. Ichki manbalar boshqaruv tizimining o'zida, tashqi manbalar esa ta'lim tizimining boshqa tizimlar bilan o'zaro munosabatlarida amal qiladi. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holatda maktab boshqaruvidagi ijtimoiy psixologik sog'lom munosabatlar muhitini yaratish uchun rahbar xodimlar e'tibor qaratishi lozim deb topilgan quyidagi rivojlangan boshqaruv yondashuvlarini taklif qilishimiz mumkin: Ilmiy asoslangan sifat monitoringi metodlari va statistik tahlil vositalaridan foydalanib, o'qituvchilar hamda barcha xodimlarni muammolarni aniqlash va hal qilish jarayoniga jalb etish.

1. Xodimlarga qarorlar e'lon qilinishidan avval ularning fikr-mulohazalarini tinglash va tahlil qilish.

2. Tashkiliy axborot oqimini shaffolashtirish, xodimlar mas'uliyat hissini kuchaytirish maqsadida boshqaruv ma'lumotlarini imkon qadar keng qamrovli muhokama qilish.

3. Ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish jarayonida iste'molchilar – o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglarning fikrlarini tizimli ravishda o'rganish.

4. Boshqaruv tizimini yuqoridan pastga emas, balki interaktiv hamkorlik tamoyillari asosida shakllantirish.

5. O'qituvchilar va pedagogik xodim-

larning kasbiy kompetensiyalarini doimiy takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish.

6. Ta'lim muassasasi xodimlari o'rtasidagi ijtimoiy-emotsional muloqot muhitini shakllantirish va mustahkamlash.

7. Ziddiyatlarni boshqarish hamda mu-zokaralar olib borish bo'yicha xodimlarning bardosh, muvofiqlik va kommunikativ strategiyalarini rivojlantirish.

8. Tashkilot ichida xodimlar manfaatlarini himoya qilish va kelib chiqayotgan muammolar bo'yicha har bir subyektga obyektiv tahliliy yondashuv asosida yechim taklif qilish.

9. Sifat tushunchasini kompleks yondashuvda izohlash, shu jumladan, jamoa shakllantirish, boshqaruv mexanizmi, iste'molchi bilan muloqot va yetakchilik tamoyillarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

10. Liderlik fazilatlarini bo'yicha shaxsiy namuna ko'rsatish, jarayon rivojini kuzatish va xodimlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish.

11. Mustaqil qaror qabul qilish va dialog olib borish imkoniyatini yaratish hamda innovatsion eksperimentlarga ochiqlik tamoyillarini rivojlantirish.

12. Ta'lim muassasasida tashqi iste'molchilar (o'quvchilar, ota-onalar, ish beruvchilar) va ichki iste'molchilar (o'qituvchilar, ma'muriyat) ehtiyojlarini uyg'unlashtirgan holda sifat kafolatini ta'minlash.

13. Boshqaruv informatsion tizimlarini optimallashtirish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni bartaraf etish va qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarni aniq tizimlashtirish.

14. Ta'lim muassasasida menejmentning zamonaviy modellarini joriy etish, bu jarayonda tashkilot tuzilmasini yanada

diversifikatsiya qilish va yangi funksional lavozimlarni kiritish, jumladan, sifat menejeri, marketing bo'yicha direktor o'rinbosari kabi pozitsiyalarni shakllantirish.

Ushbu yondashuvlar pedagogik jamoaning professional rivojlanishi, mehnat samaradorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Po'latov. Ta'lim menejmenti yoxud ta'lim tashkilotini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. – T.: "Yosh kuch", 2022.
2. The Influence of School Leadership Experiences and Working Environment on Teachers' Job Satisfaction in Kilimanjaro and Pwani Regions, Tanzania. AJASSS Volume 4, Issue No. 1, 2022.
3. The Influence of School Leadership Experiences and Working Environment on Teachers' Job Satisfaction in Kilimanjaro and Pwani Regions, Tanzania. AJASSS Volume 4, Issue No. 1, 2022 Mwita Sospeter¹, Issaya B. Hassanali.
4. Спивак Д.К. Социальная психология управления образовательным процессом. – Москва: Педагогика.(2001).
5. Бодди Д., Пэйтон Р. Основы менеджмента: Пер. с англ./Под ред. Ю.Н.Контуревского – СПб, 1999. – 816 с
6. Temirov D. Ta'lim muassalarini boshqarishda pedagogik tamoyillar uzviyligi. "Ta'lim menejmenti" jurn. 2013, №6. 95-96 betlar.

ILMIY-TADQIQOT ISHLARINI MAKTAB AMALIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH TAJRIBALARI

Rajabov Sherzod Umurzoqovich,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Pedagogik innovatsiyalar bo'yicha prorektor, iqtisod fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Maqolada ilmiy-tadqiqot ishlarini umumta'lim maktablari amaliyotiga integratsiya qilish bo'yicha mavjud tajribalar tahlil qilingan. O'quvchilarning ilmiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o'rgatish va mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Maktabda olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlarga ilmiy-tadqiqot yondashuvlarini tatbiq etish orqali o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi roli haqida amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqot, maktab amaliyoti, integratsiya, innovatsion ta'lim, o'quvchilarning izlanish faoliyati, metodik yondashuv, tajriba, fan va ta'lim uyg'unligi.

тику общеобразовательных школ. Актуальным вопросом становится формирование у учащихся навыков научного мышления, обучение анализу проблемных ситуаций, развитие самостоятельной исследовательской деятельности. Даны практические рекомендации по формированию у учащихся не только теоретических знаний, но и жизненных навыков путем применения исследовательских подходов к практическим занятиям, проводимым в школе, о их роли в повышении интереса учащихся к науке.

Ключевые слова: научно-исследовательская, школьная практика, интеграция, инновационное образование, исследовательская деятельность учащихся, методический подход, опыт, гармония науки и образования.

**Опыт интеграции
научно-исследовательской
работы в школьную практику**

Раджабов Шерзод Умурзакович,
проrektora po pedagogicheskim innovatsiyam
Natsional'nogo instituta pedagogicheskogo
masterstva im. Avloni, doktor
ekonomicheskikh nauk (DSc), professor

Аннотация: В статье проанализирован имеющийся опыт интеграции науки в прак-

**Experience of integrating research
findings into school practice**

Rajabov Sherzod Umurzokovich,
vice-rector for Pedagogical Innovation
National Institute of Pedagogical Excellence
named after A.Avloni Doctor of Economic
Sciences (DSc), professor.

Abstract: The article analyzes the current practice regarding the integration of research findings into the actions of secondary schools.

It addresses the urgent need to form students' scientific thinking skills, teach them to analyze problems and foster their ability to conduct independent research. The proposed recommendations aim not only to enhance students' theoretical knowledge, but also to equip them with essential life skills. Furthermore, the article emphasizes the role of students in increasing

their interest in science by applying research approaches to practical activities conducted at school.

Keywords: scientific research, school practice, integration, innovative education, students' research activities, methodological approach, experience, science and educational cohesion.

Respublikamizda so'nggi yillarda Ilmiy-tadqiqot faoliyatini ixtisoslashtirilgan maktablar amaliyotiga integratsiya qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy ko'nikmalarini shakllantirishning boshlang'ich shakllari tatbiq etilmoqda. Xususan, tabiiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning laboratoriya ishlari, kuzatuv va tajribalar orqali fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Tadqiqotlarga yo'naltirilgan darslar o'quvchini faqat tayyor bilimni egallovchi emas, balki bilimni o'zi yaratishga intiluvchi subyekt sifatida shakllantiradi.

Bugungi kun ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoga ilmiy yondasha olish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bu esa ta'lim jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyatini keng joriy etishni taqozo etadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari ni maktab amaliyotiga integratsiya qilish, ya'ni o'quvchilarni dars jarayonlaridayoq izlanishga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o'rgatish ularning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Maktab amaliyotida ilmiy yondashuv asosida ishlash o'quvchilarga hayotiy tajribalar o'tkazish, ilmiy loyihalarda qatnashish, tajriba asosida bilimni mustahkamlash kabi ko'nikmalarni singdiradi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining samarali integratsiyasi uchun pedagogdan yangi-

cha yondashuv talab etiladi. O'qituvchilar dars jarayonida muammoli savollar, ochiq vazifalar, tajriba asosidagi topshiriqlarni qo'llash orqali o'quvchilarning izlanishga bo'lgan ichki ehtiyojini uyg'otishi lozim. Shu bilan birga, har bir fanga oid kichik ilmiy loyihalarni tashkil etish, ularni maktab ichki seminar-treninglarda taqdim etish ham o'quvchilarni izlanishga undaydi. Bunday yondashuv ularning ijtimoiy faolligini, nutq madaniyatini, tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari ni maktab amaliyotiga integratsiya yuzasidan xorijiy tajribalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, **Finlyandiya davlatida** maktab o'quvchilari fanlararo loyihalarda ishtirok etadi, bu esa ularni tadqiqot metodologiyasi bilan erta tanishtiradi. Finlyandiyada ilmiy-tadqiqot ishlari ni integratsiyalashda **fenomen asosidagi o'qitish** muhim o'rin tutadi. O'quvchilar **real hayotdagi muammolar yoki hodisalarni** o'rganish orqali **fanlararo tadqiqot loyihalarini** ishlab chiqishadi. *Masalan:* "Iqlim o'zgarishi" mavzusi biologiya, geografiya, matematika va ekologiya fanlari bilan integratsiyada tadqiq etiladi. Natijada, o'quvchilar o'z loyihalarini rejalashtiradi, ma'lumot yig'adi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi – bu esa to'liq ilmiy-tadqiqot sikliga mos keladi.

Yaponiya davlatida har bir o'quvchi yil davomida **mustaqil tadqiqot loyihasini** amalga oshiradi. Tadqiqotlar ko'pincha bir nechta fanlar kesishmasida olib boriladi.

Masalan: fizikaviy tajribalar orqali ekologik muammolarni hal qilish yoki matematika yordamida ijtimoiy so'rov tahlilini o'rganish. O'quvchilar **ilmiy maqolalar, taqdimotlar tayyorlaydi** va maktab miqyosidagi yoki milliy darajadagi **ilmiy tanlovlarda** (Science Fair) ishtirok etadilar. Ba'zi holatlarda o'quvchilarning tadqiqot ishlari real hayotdagi muammolarni hal qilishda foydali bo'ladi. *Masalan:* chiqindilarni kamaytirish, suv tejamkor texnologiyalar.

AQSh maktablarida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishda asosiy metodlardan biri bu – Inquiry-Based Learning, ya'ni savol berish, muammoni aniqlash, izlanish va yechim topishga asoslangan yondashuvdir. O'quvchilar o'zlari qiziqqan mavzuda **ilmiy savollar** qo'yishadi. Tajriba o'tkazish, kuzatish, tahlil qilish va natijaga erishish – o'quv jarayonining asosini tashkil etadi. Bu yondashuv o'quvchilarning **tanqidiy fikrlash, tahliliy qaror chiqarish va kreativlik** ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Integratsiya jarayonida o'qituvchi-metodist xizmatlarining roli katta. Ular o'qituvchilarni ilmiy izlanishlar olib borishga rag'batlantirishi, ilg'or tajribalarni ommalashtirishi, o'quvchilarni turli tanlov va olimpiadalarga tayyorlashda uslubiy yordam ko'rsatishi zarur. Ilmiy tadqiqot muassasalari va maktablar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, fan sohalari bo'yicha mentorlik tizimini joriy etish, maktab o'quvchilarini kichik ilmiy guruhlariga birlashtirish orqali tadqiqot faoliyati muntazam amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy-tadqiqot yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarni faollikka, ijodkorlikka va innovatsion fikrlashga undaydi. Ayniqsa, STEAM yo'nalishidagi loyihalar, IT hamda biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarda eksperimentlarga asoslangan mashg'ulotlar bu

borada katta natijalar bermoqda. O'quvchilar o'zlarining ilmiy loyihalari ustida ishlash davomida **vaqtni boshqarish, axborot izlash, uni tahlil qilish, jamoada ishlash** kabi zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Maktab ta'limiga ilmiy-tadqiqot ishlarini integratsiya qilish – bu zamon talabi. U nafaqat o'quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularni hayotiy muammolarga mustaqil yechim topishga qodir shaxs sifatida tarbiyalaydi. Mazkur yo'nalishdagi tajribalarni kengaytirish, ilmiy izlanishlarni ta'lim jarayonlariga to'laqonli kiritish, pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish orqali biz raqobatbardosh, fikrlaydigan va yangilikka intiladigan yosh avlodni tarbiyalaymiz. Yuqorida qayd etilganidek, ilmiy-tadqiqot ishlarini maktab amaliyotiga integratsiya qilishda asosiy maqsad – o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ijodkor, muammolarni tahlil qila oladigan, izlanishga moyil shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu esa o'z navbatida ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish imkonini beradi. Ayniqsa, XXI asr kompetensiyalaridan biri bo'lgan "kritik fikrlash" va "muammolarni ijodiy hal qilish" ko'nikmalarini rivojlantirishda ilmiy izlanish faoliyati o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab bosqichidagi ilmiy-tadqiqot faoliyati ko'pincha sodda, hayotiy mavzular asosida quriladi. Bu esa, o'quvchilarga tanish bo'lgan muhitda izlanish olib borishga imkon yaratadi. Misol uchun, ekologiya, sog'lom turmush tarzi, mahalla hayoti, milliy qadriyatlar, tarixiy obidalar yoki fizika va kimyo hodisalari kabi oddiy mavzular bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'quvchilarda nafaqat ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, balki ularning vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatini ham mustahkamlaydi. Tadqiqotga asoslangan ta'lim o'quv-

chiga “nega?” va “qanday?” degan savol-larni tez-tez berishga o'rgatadi. Bu esa, uni tafakkur qilishga, mavjud holatni tahlil qilishga, alternativ fikrlarni ilgari surishga

an'anaviy ta'limga nisbatan ancha samara-liroq bo'ladi. Ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan darslarni an'anaviy ta'limdagi darslar bilan quyidagi mezonlar orqali farqlash mumkin:

(1-jadval)

Asosiy mezon	Ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan dars	An'anaviy dars
O'quvchi roli	Faol ishtirokchi, izlanuvchi, muallif	Bilim oluvchi, tinglovchi
O'qituvchi roli	Yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, muammo qo'yuvchi	Bilim beruvchi, nazorat qiluvchi
Dars maqsadi	O'quvchini muammo yechishga, tadqiqot olib borishga o'rgatish	Tayyor bilimlarni o'rgatish
Metodik yondashuv	Muammoli ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim, tajriba va kuzatuvlar	Ma'ruza, tushuntirish, mustahkamlash
Darsning tuzilishi	Tadqiqot savoli, faraz, tajriba, tahlil, xulosa chiqarish	Kirish, yangi mavzuni tushuntirish, savol-javob, xulosa
O'quv faoliyati turi	Mustaqil izlanish, jamoaviy loyiha, eksperimentlar	Ma'lumot eslab qolish, qayta aytish
Baholash	Jarayonni va natijani baholash (portfolioga asoslangan)	Javob aniqligi, to'g'riligi asosida baholash
Shakllantiriladigan ko'nikmalar	Tanqidiy fikrlash, muammoli yechim, ijodkorlik, axborot tahlili	Eslab qolish, tayyor bilimni qo'llash
Natija	Yangi g'oya yoki xulosaga kelish, bilimni o'zi yaratish	Tayyor bilimni o'zlashtirish

majbur etadi. Ilmiy izlanishlar orqali o'quvchi o'z fikrini asoslashga, dalillashga harakat qiladi, bu esa uning mantiqiy tafakkuri va ifoda ko'nikmalarini kengaytiradi.

Ilmiy-tadqiqot – bu yangi bilimlar yaratish, mavjud muammolar yechimini topish va mavjud nazariyalarni amalda sinash jarayonidir. Maktab darajasida esa bu faoliyat o'quvchilarning mustaqil ishlash, kuzatish, tajriba o'tkazish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan darslar

Biroq bu jarayonda muayyan muammolar ham mavjud. Eng avvalo, barcha maktablarda ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi moddiy-texnik baza mavjud emas. O'quv laboratoriyalarining yetarli emasligi, zarur uskunalar va vositalarning kamligi, ayrim hollarda o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishdagi tajribasining yetishmasligi bu yo'nalishdagi ishlarning to'laqonli amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, o'quv rejalari va yuklamaning haddan ziyod zichli-

gi ham ilmiy izlanishlar uchun yetarli vaqt ajratishni qiyinlashtiradi.

Mazkur muammolarni yechimlar sifatida quyidagi takliflarni keltiramiz. Jumladan:

- maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida uzviy hamkorlikni kuchaytirish;
- fan nomzodlari va professor-o'qituvchilarni maktablarga mentor sifatida jalb qilish;
- onlayn kurslar va platformalar orqali o'qituvchilar va o'quvchilarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan tanishtirish;
- grantlar va qo'llab-quvvatlovchi dasturlar asosida maktablarda kichik laboratoriyalar tashkil etish samarali yechimlardan bo'lishi mumkin.

Har yili maktablar kesimida "Eng yaxshi o'quvchi-tadqiqotchi" yoki "Innovatsion ilmiy loyiha" kabi tanlovlar o'tkazilishi orqali o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ular tomonidan amalga oshirilgan loyihalarni matbuotda yoki onlayn platformalarda e'lon qilish orqali izlanishga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ilmiy-tadqiqot faoliyati maktab ta'limining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu jarayon davomida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining ilmiy yo'ldoshi, ko'makchisi va ilhomlantiruvchisi bo'lishi lozim. O'quvchilar esa bilimni tayyor holatda emas, balki izlanish orqali o'zlashtirish-

ga o'rgatilishi kerak. Shunda ta'lim haqiqatan ham hayotiy va natijador bo'ladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini maktab amaliyotiga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va ijodkorlikka undaydi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat tayyor bilimni egallaydilar, balki uni izlab topish, tahlil qilish, sinovdan o'tkazish va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta'lim – shaxsiylashtirilgan, faol va hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan o'qitishdir.

Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning ilmiy yo'ldoshi sifatida metodik va amaliy jihatdan ularni qo'llab-quvvatlashi, maktablarda esa ilmiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratib borilishi muhimdir. Ilg'or tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy yondashuv asosidagi darslar o'quvchilar bilimni chuqurlashtiradi, ularning tanqidiy fikrlashi, muloqot madaniyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktab amaliyotiga ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiya qilish – bu raqobatbardosh, izlanuvchan, ijtimoiy faolligi yuqori bo'lgan shaxsni tarbiyalash yo'lidagi muhim qadamdir. Bu yondashuvni tizimli va izchil ravishda tatbiq etish kelajak avlodning ilmiy salohiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raqulov A., Xudoyberganova M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 176 b.
2. Karimova D.M. Ilmiy-tadqiqot asoslari: nazariya va metodika. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2021. – 152 b.
3. Soliyev O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning maktab amaliyotidagi tatbiqi. // "Ta'lim va tarbiya" ilmiy-amaliy jurnali. – 2022. – №2. – B. 45-50.

UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KASBIY SO'NISH: XALQARO HOLAT VA YECHIMLAR TAHLILI

Pardayeva Mexriniso Daniyarovna,

*O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi
boshqarma boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Odiljonov O'tkir Rustamjonovich,

*O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: Mazkur tahliliy maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida kasbiy so'nish muammosi xalqaro kontekstda ko'rib chiqilgan. Buyuk Britaniya, AQSH, Rossiya, Portugaliya va Yaponiya kabi davlatlarda kasbiy so'nishning yuqori darajalari va uning asosiy sabablari tahlil qilindi. Shuningdek, Finlyandiya, Kanada, Janubiy Koreya va Avstriya davlatlarida mazkur muammoning oldini olish bo'yicha samarali amaliyotlar va chora-tadbirlar tahlil qilingan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham kasbiy so'nishning oldini olishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqola jahon tajribasini chuqur tahlil qilgan holda milliy ta'lim tizimi uchun takliflarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, kasbiy so'nish, stress, ta'lim tizimi, xalqaro tajriba, ish yuklari, ruhiy sog'lomlik, mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash, profilaktika choralari

**Профессиональное выгорание учителей
общего среднего образования: анализ
международной ситуации и путей решения**

Пардаева Мехринисо Данияровна,
начальник управления Республиканского
научно-методического центра развития
образования Республики Узбекистан,
доктор философии (PhD) по педагогическим
наукам, доцент.

Одилжонов Ўткир Рустамжонович,
начальник отдела Республиканского
научно-методического центра развития
образования Республики Узбекистан.

Аннотация: В аналитической статье рассматривается проблема профессионального выгорания среди учителей общеобразовательных учреждений в международном контексте. Проведён анализ высоких уровней профессионального выгорания и их основных причин в таких странах, как Великобритания, США, Россия, Португалия и Япония. Также изучен положительный опыт Финляндии, Канады, Южной Кореи и Австрии по предотвращению и минимизации данной проблемы. На основе глубокого анализа международного опыта разработаны практические рекомендации по профилактике профессионального выгорания в системе образования Республики Узбекистан.

Ключевые слова: учитель, профессиональное выгорание, стресс, система образования, международный опыт, рабочая нагрузка, психическое здоровье, поддержка специалистов, профилактические меры.

**Professional burnout among general
secondary education teachers: analysis
of international situation and solutions**

Pardayeva Mexriniso Daniyarovna,

Head of the Department, Republican Scientific and Methodological Center for the Development of Education of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor.

Odiljonov O'tkir Rustamjonovich,

Head of the Department, Republican Scientific and Methodological Center for the Development of Education of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *This analytical article explores the issue of professional burnout among secondary school teachers in the context across various countries. It highlights the alarming rates of bur-*

nout and identifies key contributing factors in nations such as the United Kingdom, the United States, Russia, Portugal, and Japan. Additionally, the article examines effective prevention strategies that have been successfully implemented in Finland, Canada, South Korea, and Austria. Based on these international best practice, practical policy recommendations are proposed to mitigate teacher burnout in Uzbekistan's education system. The aim is to inform national policy and enhance the mental well-being and support national education system for teachers.

Keywords: *Teacher, professional burnout, stress, education system, international practice, workload, mental well-being, teacher support, preventive measures.*

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir vazifalar belgilangan[1].

Mazkur vazifalar doirasida, ayniqsa, kasbiy so'nish(professional burnout) masalasi dolzarblik kasb etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifiga ko'ra, ishdagi surunkali stress natijasida yuzaga keluvchi holat bo'lib, unda xodim ruhan va jismonan tobora horib boradi [2]. O'qituvchilar uchun bu muammo jahon miqyosida dolzarb bo'lib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadi-ki, dunyo bo'yicha o'qituvchilarning taxminan 10-30% kasbiy so'nish simptomlarini his qiladi, ulardan taxminan 10% o'ta yuqori darajadagi so'nishga uchraganlar sifatida baholanadi. Turli mamlakatlarda bu ko'rsatkich turlicha: masalan, Tayvanda 26% o'qituvchi, Iroqda 24,5% va Shri-Lankada 11,6% o'qituvchi kasbiy so'nishga uchragani qayd

etilgan. Ayrim rivojlangan davlatlarda esa o'qituvchilarning deyarli yarmi yoki undan ko'prog'i o'z ishidan qattiq charchash va ruhiy so'nish holatini boshidan kechirmoqda – masalan, Germaniyada o'qituvchilarning 47% kasbiy so'nish simptomlarini sezadi. Bu holat ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ruhan so'ngan o'qituvchilarning samaradorligi pasayadi, ishdan qoniqishi yo'qoladi va natijada o'quvchilarning ta'lim natijalariga ham ta'sir qilishi mumkin[3].

Quyida, avvalo, o'qituvchilar orasida kasbiy so'nish darajasi eng baland bo'lgan 5 ta davlat holati va buning asosiy sabablari tahlil qilinadi. So'ng, muammoni samarali hal etish va oldini olish borasida yaxshi natijaga erishgan mamlakatlar tajribasi ko'rib chiqilib, har bir davlat bo'yicha qisqacha xulosalar keltiriladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida mazkur muammoni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar bildiriladi.

Eng yuqori kasbiy so'nish kuzatilgan davlatlar va sabablari

Jahon tajribasida ayrim davlatlarda o'qi-

tuvchilarning kasbiy so'nish darajasi o'ta yuqori ekani ta'kidlangan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari orasida so'nish darajasi eng yuqori bo'lgan besh-ta mamlakat va ulardagi holatning asosiy sabablari tahlil qilinganda quyidagilarni ko'rish mumkin (1-jadvalga qaralsin).

simptomlarini his etayotgani aniqlangan, ularning 38% da esa so'nish "o'tkir fazaga" yetgan, ya'ni ish sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqa bir tadqiqotga ko'ra, har 5 o'qituvchidan 4 nafari (82%) o'quv yili oxiriga kelib so'nish belgilariga duch keladi[5]. O'quv yilining jadal va yuklamasi yuqoriligi

1-jadval

Davlat	Kasbiy so'nish darajasi (o'qituvchilar)	Asosiy sabablari (tahliliy)
Buyuk Britaniya (Angliya)	Taxminan 70% o'qituvchi ishda "juda kuchli stress" his qiladi (<u>Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa – Expresso</u>). 2020-yilgi tadqiqotga ko'ra, 84% o'qituvchi stressdan aziyat chekkan, 51% esa bu sababli yaqin 2 yil ichida kasbdan ketishni o'ylagan(<u>Sest, poplakat, popit chay: mogut li uchitelya spravitsya s professionalnym vygoraniyem? – EdDesign</u>).	Haddan tashqari og'ir ish yuklamasi, keyingi paytlarda yuzaga kelgan keng ko'lamli byurokratik vazifalar (hujjatlarni to'ldirish va hisobotlar)
AQSH	AQSHda o'qituvchilar barcha soha xodimlari orasida eng yuqori darajadagi stressdan aziyat chekadi: har ikki o'qituvchidan biri (52%) "doimiy yoki juda tez-tez" o'zini yomon his qiladi	

Tartibsiz o'quvchi xulqi va sinfdagi intizom muammolari ishdagi stressning asosiy manbai deb topilgan[4]. Shuningdek, o'qituvchilar ish vaqtiga nisbatan maoshning pastligi hamda darsdan tashqari qo'shimcha topshiriqlar (hujjatlarni yuritish, baho qo'yish, hisobotlar)ning ko'pligi kasbiy so'nishni kuchaytiruvchi omillar sifatida belgilangan.

AQSH o'qituvchilari o'rtacha haftasiga 53 soat ishlaydi, bu holat boshqa soha xodimlaridan 9 soatga ko'p bo'lib, yillik maosh o'rtacha \$18 mingga kam ekanligi aniqlangan – buning o'zi ham kasbidan qoniqmaslik hissini oshiradi.

Rossiyada o'qituvchilar orasida kasbiy so'nish sindromi keng tarqalgan bo'lib, ushbu holat o'tkazilgan keng so'rov natijasida o'qituvchilarning 75% kasbiy so'nish

o'qituvchilarning 49%ida so'nishga olib keluvchi asosiy omil deb ko'rsatilgan – ya'ni o'quv yili davomida ish hajmi juda to'lib-toshgan. Yuqori sinf o'qituvchilarida bitiruv imtihonlari oldidagi tashvish kuchli: o'qituvchilarning 73% dan ortig'i milliy imtihonlar (YEGE va OGE) uchun haddan tashqari xavotir olishini bildirgan. Shu bilan birga, katta ish yuklamasi (o'qituvchilarning taxminan 60% buni ta'kidlagan) va ko'p sonli tekshirishlar, nazorat ishlari (35% ta'kidlagan) hamda shaxsiy charchoq singari omillar Rossiyadagi so'nishni kuchaytirmoqda. Kasb spetsifikasi bo'yicha yuqori empatiya va emotsional holatlar talab qilinishi ham uzoq muddatda ruhiy horg'inlikka olib keladi.


Portugaliya – Yevropa bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich: Portugaliyada o'qituv-

chilarning qariyb 90% (aniqrog'i 87,2%) ish davomida ma'lum darajada stress kechirishini aytgan, ularning 35% "juda kuchli stress" (o'ta zo'riqish) va yana 53% "ancha kuchli stress"ni boshdan kechiradi[6]. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha Portugaliya 1-o'ringda, undan keyingi o'rinlarda 70% atrofida ko'rsatkich bilan Vengriya va Britaniya turadi. Portugaliya o'qituvchilari o'rtasida kasbdan qoniqmaslikning bosh sababi iqtisodiy omillar ekani aytilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, portugal o'qituvchilarning 90% ga yaqini o'z maosh va daromadidan norozi (taqqoslash uchun, Belgiya yoki Avstriyada o'qituvchilarning 70% maoshidan mamnun). Bu holatga ikki asosiy omil sabab qilib keltirilgan: lavozim va maosh bo'yicha karyerada o'sishning juda sekin kechishi hamda 2008-2009-yillardagi iqtisodiy inqiroz (Leman Brazers bankrotligi oqibatlar) ning ta'lim sohasiga salbiy ta'siri. Natijada o'qituvchilar maoshni hayotiy ehtiyojlariga kamlik qiladi deb biladi. Shu bilan birga, Portugaliyada o'qituvchilarning katta qismi muddatli shartnomalar asosida ishlaydi – doimiy ish o'rnining yo'qligi va ish xavfsizligiga ishonchsizlik ham ularda stress darajasini oshiruvchi omildir.

Yaponiya – maktab o'qituvchilari orasida so'nish muammosi oxirgi yillarda kuchayib bormoqda. 2023-yilda o'tkazilgan milliy

tadqiqotga ko'ra, o'qituvchilarning 11,7% qismi stress darajasi juda yuqori (tibbiy aralashuv talab qiladigan) holatga yetgan, va bu ko'rsatkich yil sayin ortib, eng yuqori darajaga ko'tarilgan[7]. Yaponiya OECD davlatlari ichida o'qituvchilar eng ko'p ish vaqtiga ega mamlakatlardan hisoblanadi: o'rta hisobda yapon o'qituvchisi haftasiga 56 soatgacha ishlaydi, bu Angliya va Kanadadagi 47 soat, AQSH va Yangi Zelandiyadagi 46 soatdan keskin ko'pdir (taqqoslash uchun, Finlyandiyada bu ko'rsatkich 33 soatni, O'zbekistonda 42 soatni tashkil etadi)[8]. Yaponiyada o'qituvchilarning kasbiy so'nishga uchrashiga olib keluvchi bosh omil – haddan tashqari ko'p tashkiliy yuklamadir (hujjat ishlari, hisobotlar va boshqa ofis vazifalari). Stress sabablari-ning statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, holatlarning 21,4%ida aynan byurokratik vazifalar stressning birinchi raqamli omilidir. Bundan tashqari, yuqori tartib-intizomga ega o'quvchilar bilan ishlash (19%) hamda talabchan "harakeri" ota-onalar bilan murosaga kelishish (12,4%) yirik stress manbalari sifatida qayd etilgan. Ya'ni, o'qituvchi nafaqat dars berishi, balki ko'p vaqtini hujjat to'ldirishga, to'polonchi o'quvchilarni tartibga solishga va ba'zi norozi ota-onalarning shikoyatlariga javob berishga sarflaydi – bu esa ruhiy holatga qattiq ta'sir


Figure 6.1: Proportion of lower secondary teachers experiencing 'quite a bit' or 'a lot' of stress at work, 2018



1-rasm. Portugaliya kasbiy so'nish bo'yicha ko'rsatkich

qiladi. Natijada, oxirgi yillarda Yaponiyada xizmat majburiyatlarini bajarolmay ruhiy sog'liq bo'yicha ta'tilga chiqib ketayotgan o'qituvchilar soni rekord darajada oshib, 2022-yilda 0,71% ga yetdi (ya'ni 12 mingdan ortiq o'qituvchi).

ko'rinadi. Masalan, Angliyada byurokratik nazoratning qattiqligi va ishonchsizlik muhiti asosiy omil bo'lsa, Rossiyada ta'lim mazmuni va imtihonlar bosimi, Portugaliya-da iqtisodiy omillar va qat'iy shartnomaviy munosabatlar, Yaponiyada esa ma'muriy



2-rasm. Yaponiya OECD davlatlari ichida o'qituvchilar eng ko'p ish vaqtiga ega mamlakatlardan hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan o'qituvchilarning so'nish darajalari turli manbalarda har xil usullarda baholangan (ayrim mamlakatlarda "doimiy charchoq yoki stress his qilish" bo'yicha so'rovlar, boshqalarida klinik belgilangan sindrom yoki simptomlar ko'rinishida). Shunga qaramay, bu ma'lumotlar o'qituvchilarda kasbiy so'nish eng katta muammo bo'lgan davlatlarni aniqlash va taqqoslashga imkon beradi. Keltirilgan har bir davlatda o'qituvchilarning ruhiy horg'inligiga olib keluvchi omillar ko'p hollarda o'xshash – kasblar uchun haddan tashqari yuklama va stress manbalari mavjudligi bo'lsa-da, mahalliy sharoitga xos muayyan muammolar ham mavjud ekani

yuklama va ota-ona talablarining yuqoriligi kabi sabablar ustuvordir.

Kasbiy so'nishning oldini olish bo'yicha samarali tajribalar

Kasbiy so'nish muammosini kamaytirish yoki undan samarali chiqish bo'yicha bir qator mamlakatlarda yillar davomida turli chora-tadbirlar sinovdan o'tkazilgan. Ayrim davlatlar ta'lim tizimi tuzilmasi va siyosatini shunday yo'lga qo'yganki, o'qituvchilarda stress va ruhiy charchoqning oldini olishda ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlar misolida bunday profilaktika choralari va ularning natijalari keltiriladi (2-jadvalga qaralsin).

2-jadval

Davlat	Qo'llangan choralar	Natija va ta'sir (tadqiqotga asoslangan)
Finlyandiya	O'qituvchilar uchun ish muhiti va yuklamani boshqarish siyosati: haftalik ish soatlari nisbatan kam (o'rtacha 33 soat/haftasiga) va darsdan tashqari majburiyatlar minimal darajada saqlanadi (<u>Education Today</u>). Masalan, hujjat ishlari va ma'muriy vazifalarga o'rtacha faqat 1,4 soat ajratiladi – bu OECD bo'yicha eng past ko'rsatkichlardan biri (taqqoslash uchun, AQSHda 6+ soat, Yaponiyada 8+ soat) (<u>Education Today</u>). Shuningdek, o'qituvchilarga yuqori erkinlik va ishonch bildiriladi, ular o'quv dasturini bajarishda mustaqillikka ega.	Kam yuklama va ish-hayot muvozanati natijasida fin o'qituvchilari kasbidan ko'proq qoniqish bildirishadi va ruhiy sog'lom qolishadi. Tadqiqotlar Finlyandiyada o'qituvchilarning qoniqish darajasi yuqori hamda o'quvchilarning natijalari ham yuqori ekanini ko'rsatadi[9].
Kanada	O'qituvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tizim: maosh va shart-sharoitlar jihatdan jahonning oldi qatorini egallamoqda. Masalan, Kanadada o'qituvchi mehnatiga munosib haq to'lanadi va zarur resurslar bilan ta'minlanadi; Alberta viloyatida o'qituvchilarning ishidan qoniqishi juda yuqori, ko'pchiligi kasbni o'z xohishi bilan tanlagan va ularning o'quvchilari yuqori yutuqlarga erishadi.	Kanadada o'qituvchilar malakasini oshirish, metodik qo'llab-quvvatlash va maslahatchilar instituti yaxshi rivojlangan[10].
Janubiy Koreya	Qonunchilik va tizimiy choralar orqali o'qituvchi huquqlarini himoya qilish.	2023-yilda Janubiy Koreyada o'qituvchilarning haddan tashqari zo'riqishi va ruhiy tazyiqlarga qarshi maxsus qonunlar qabul qilingan.

Avstriya	O'qituvchi mehnatining munosib rag'batlantirilishi va barqaror kadrlar siyosatini yo'lga qo'yish: Avstriya va bir qator Yevropaning boshqa davlatlarida o'qituvchilarga nisbatan mehnat bozoridagi raqobatbardosh maosh va imtiyozlar taklif etiladi. Masalan, Avstriyada o'qituvchilarning katta qismi o'z daromadidan mamnun. Hukumat ta'lim sohasi xodimlarini baholash va rag'batlantirish tizimini shaffof va barqaror yo'lga qo'yg'an.	Maoshdan qoniqish va kasbiy barqarorlik o'qituvchilarning umumiy ishdan qoniqishini oshiradi, bu esa uzoq muddatda so'nish xavfini pasaytiradi. Masalan, Avstriya va Belgiyada o'qituvchilarning 70% o'z daromadidan mamnun ekani aniqlangan, bu ko'rsatkich Portugaliyaga nisbatan ancha yuqori bo'lib, tegishincha bu davlatlarda o'qituvchi ruhiyatida stress kamroq ekani kuzatiladi. Avstriyalik o'qituvchilarning kasbni tashlab ketish darajasi ham past bo'lib, ta'lim sifati barqaror. Bu tajriba o'qituvchi mehnatini rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish so'nishni oldini olishda muhim ekanini ko'rsatadi[11].
------------------------	---	--

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi kasbiy so'nishini kamaytirishda samara bergan yondashuvlar quyidagi umumiy jihatlarga ega:

- **Ish yuklamasini muvofiqlashtirish:** Finlyandiya tajribasi ko'rsatadiki, o'qituvchi dars soatlari va qo'shimcha vazifalar miqdorini me'yorda ushlash, ortiqcha byurokratik ishlardan ozod etish ularning professional chekinishining oldini oladi. Koreyada ham oxirgi yillarda ish soatini qisqartirishga intilish kuzatildi.

- **Moliyaviy rag'bat va barqarorlik:** Avstriya, Kanada kabi davlatlarda o'qituvchilarga munosib maosh, ijtimoiy kafolatlar va lavozimda o'sish imkoniyati berilgani ularda o'z ishiga qoniqishni saqlab turadi.

- **Psixologik qo'llab-quvvatlash:** ba'zi mamlakatlarda o'qituvchilar uchun maxsus ruhiy qo'llab-quvvat tizimlari yo'lga qo'yilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada Education Support xayriya xizmati tomonidan

o'z ichiga oladigan 24/7 ishonch telefoni tashkil etilgan bo'lib, o'qituvchilar bepul maslahat va psixologik yordam olishlari mumkin. AQSHda Calm Schools Initiative doirasida o'qituvchilar uchun meditatsiya va ruhiy horg'inlikni chiqarishga yordam beradigan maxsus mobil ilova va dasturlar joriy qilingan. Bu kabi choralar har bir davlatda muammoni to'liq bartaraf etmagan bo'lsa-da, o'qituvchilarning muammolarini yengillatishga yordam bermoqda.

- **Qonunchilik himoyasi:** Janubiy Koreya-dagi singari, o'qituvchilarni tazyiq yoki zo'ravonlikdan himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega [12]. Shuningdek, maktablarda yaxshi psixologik muhit yaratish (masalan, mentoring – tayanch ustozlik dasturlari, hamkasblar o'rtasida tajriba almashinuvini rag'batlantirish) ham kasbiy so'nishning oldini oladi. Ayrim tadqiqotlar, masalan, AQSHning Tulsa shahrida olib borilgan tajriba, maktab

jamoasida emotsional-ma'rifiy (SEL) dasturlarni joriy etish o'qituvchilarning depressiya va ishdan ketish ko'rsatkichlarini sezilarli kamaytirganini ko'rsatdi [13].

• **Ish yuklamasini qayta ko'rib chiqish:** O'qituvchilarning ish yuklamasi va hisobotlarini tahlil qilib, imkoni boricha optimalashtirish lozim. Jumladan, bir o'qituvchiga



3-rasm. Janubiy Koreya iyul oyida boshlang'ich maktab o'qituvchisi o'z joniga qasd qilganidan so'ng yuzaga kelgan o'qituvchilarning bir necha haftalik norozilik namoyishlaridan keyin "o'qituvchilar huquqlarini tiklash to'g'risidagi qonun loyihalari"ni qabul qildi.

O'zbekiston uchun amaliy takliflar

O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'qituvchilarda ruhiy horg'inlik masalasiga e'tibor qaratish zarur. Ayni paytda mamlakatda bu muammoni aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan dastlabki qadamlar boshlanmoqda. Jumladan, 2025-yil davlat dasturi doirasida o'qituvchilarning psixologik bardoshlilikini oshirishga qaratilgan maxsus choralar rejalashtirilgan: o'qituvchilarni stressni boshqarish, o'quvchilar bilan samarali muloqotga oid malaka oshirish kurslari tashkil etish, har bir maktabda psixologik maslahat xizmatini kuchaytirish, hamda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun emotsional so'nish profilaktikasi dasturlarini ishlab chiqish taklif etilgan. Bu istiqbol-dagi choralar quyidagi kompleks takliflar bilan to'ldirilishi mumkin:

to'g'ri keladigan dars soatini me'yorlashtirish (masalan, xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish) muhim – bu borada Finlyandiya va Koreya tajribasidan foydalanish mumkin, ya'ni o'qituvchiga darsdan tashqari vaqtini samarali o'tkazishi va o'quvchi bilan ishlashga bag'ishlashi uchun shart-sharoit hosil qilish lozim.

• **Moliyaviy va ijtimoiy rag'bat:** O'qituvchi mehnatiga to'lanadigan haq tadrijiy tarzda raqobatbardosh darajaga chiqarilishi zarur. Oxirgi yillarda O'zbekistonda o'qituvchi maoshi oshirilmoqda, bu choralarni izchil davom ettirib, hech bo'lmaganda mintaqadagi (MDH yoki o'rtacha global) darajaga yetkazish maqsad qilmoq kerak. Maosh va tariflarni oshirish bilan birga, ustozlarga qo'shimcha imtiyozlar (masalan, imtiyozli ipoteka, transport xarajatlarini qoplash,

yil yakunida mukofotlar) berish mumkin. Avstriya va Kanada tajribasi ko'rsatgani-dek, o'z mehnatidan qoniqqan o'qituvchi o'z ishini tashlashga kam moyil bo'ladi va unda so'nish xavfi pasayadi.

- **Psixologik xizmat va maslahat:** Har bir maktabda psixolog faoliyati samaradorligini to'liq ta'minlash va ularning malakasi-ni oshirish zarur. Maktab psixologlari faqat o'quvchilar bilan emas, o'qituvchilar bilan ham ishlash vakolatiga ega bo'lishi, ustoz-lar uchun muntazam stressni boshqarish treninglari, psixoterapevtik suhbatlar uyush-tirishi lozim. Har bir hududda o'qituvchilar uchun ishonch telefon liniyasi yoki onlayn platforma tashkil qilinishi, ularning anonim ravishda mutaxassislardan maslahat olishi yo'lga qo'yilishi mumkin (bunga Britaniya-dagi Education Support ishonch telefoni analog qilinadi). Shu bilan birga, kasbiy so'nish belgilari aniqlangan o'qituvchilarni o'z vaqtida reabilitatsiya qilish, sanatoriy-ga yo'llanmalar ajratish kabi choralar ham qo'llash mumkin.

- **Malaka oshirish:** Yosh o'qituvchilarda kasbiy so'nish ko'proq uchrashi mumkin, chunki ular tajriba kamligi tufayli ko'proq qiyinchilikka duch kelishadi. Shuning uchun har bir yosh mutaxassisga tayanch tajribali ustoz biriktirish tizimini kuchaytirish kerak. "Ustoz-shogird" dasturi doirasida o'qituv-chilar o'zaro tajriba almashishi, qiyin ho-latlarni birgalikda tahlil qilishi va yordam olishi ta'minlanishi lozim. Bunday hamjihat-lik muhiti kasbiy so'nishning oldini olishda samarali ekani ayrim davlatlar tajribasida ko'rish mumkin. Malaka oshirish kurslari-ga stressni boshqarish, ijobiy pedagogika,

sinf boshqaruvi bo'yicha modullar kiriti-lib, o'qituvchilarga muammoli vaziyatlarda emotsional himoya usullarini o'rgatish lozim.

- **Jamoatchilik va ota-onalar bilan ham-korlik:** O'qituvchiga hurmat va ishonch muhitini yaratish butun jamiyat vazifasidir. Maktab-mahalla va ota-ona qo'mitalari hamkorligini takomillashtirib, o'qituvchiga asossiz da'vo va bosim qilish holatlarining oldini olish kerak. Janubiy Koreyada qonun-chilik darajasida hal etilgan "o'qituvchilarni asossiz ayblovlardan himoya qilish" masa-lasi bizda ham dolzarb – ta'lim muassasa-lari ma'muriyati va mahalliy hokimiyatlar o'qituvchi sha'ni va huquqlarini himoya qilishi shart. Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, seminarlar uyushtirib, bola ta'limini kelishilgan hamkorlikda olib bo-rish, o'qituvchi mehnatiga hurmat ruhini singdirish zarur.

O'qituvchilar orasida kasbiy so'nish – ta'limning sifati va barqarorligiga ta'sir etuvchi jiddiy omildir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu muammoni yechish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: mehnat shartlarini yaxshilash, ruhiy qo'llab-quvvat-lash, yuklamani optimallashtirish va jami-yatda o'qituvchi maqomini oshirish. Har bir mamlakatning o'z ijobiy tajribasidan o'rgangan holda, O'zbekiston ta'lim tizimida ham ustozlarni qo'llab-quvvatlashga qara-tilgan islohotlarni tizimli amalga oshirish lozim. Zero, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi zimmasida turgan o'qituvchi sog'lom va ilhomga to'lgan bo'lsagina, kelajak avlod-ning ta'limini yuksak pog'onaga olib chi-qishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Атроф-муҳитни асраш ва “яшил иқтисодиёт” йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-16-сон Фармони (<https://www.lex.uz/docs/7369703>).
2. EdDesign. (n.d.). Сест, поплакат, попит чай: могут ли учителя справиться с профессиональным выгоранием? (<https://eddesign.ru/articles/spravit-sya-s-professionalnym-vygoraniem>)
3. Nature. (2023). Humanities and Social Sciences Communications: Supporting teacher well-being. (<https://www.nature.com/articles/s41599-023-01645-7>)
4. Teacher Well-Being and Intentions to Leave in 2024: Findings from the 2024 State of the American Teacher Survey (https://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/research_reports/RRA1100/RRA1108-12/RAND_RRA1108-12.pdf#:~:text=burnout%20and%20roughly%20three%20times,day%20work)
5. Больше 80% российских учителей заявили о выгорании в конце учебного года – RBK (<https://www.rbc.ru/rbcfreenews>)
6. Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa – Expresso (<https://expresso.pt/sociedade/2021-03-24-Professores-em-Portugal-sao-os-que-revelam-maior-stress-na-Europa-b9879ba4#:~:text=Portugal%20aparece%20no%20n%C3%BAmero%20um%3A,se%20pelos%2031>)
7. Teachers in Japan Suffering from Record High Stress | Nippon.com (<https://www.nippon.com/en/japan-data/h02194/#:~:text=A%20survey%20conducted%20by%20the,in%202023>)
8. Education Today (<https://www.educationtoday.com.au/news-detail/Teacher-Workload-in-Australia-now-amongst-the-highest-in-the-OECD-4615#:~:text=Lower%20secondary%20school%20teachers%20in,class%20hours>)
9. Timoti Uoker. (2023). Finlandiya: ta'lim mo'jizasi. Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti.
10. Humanities and Social Sciences Communications (<https://www.nature.com/articles/s41599-023-01645-7#:~:text=is%20low%2C%20but%20students%E2%80%99%20achievement,The>).
11. Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa – Expresso
12. South Korea passes law to protect rights of teachers after mass protests over abuse from parents (South Korea) The Guardian (<https://www.theguardian.com/world/2023/sep/22/south-korea-teachers-rights-laws-mass-protests-parents-abuse#:~:text=South%20Korea%20has%20passed%20a,to%20malicious%20complaints%20from%20parents>)
13. How SEL Can Reduce Educator Burnout – Learning Forward (<https://learningforward.org/2023/08/07/how-sel-can-reduce-educator-burnout/#:~:text=How%20SEL%20Can%20Reduce%20Educator,they%20spent%20time%20on%20SEL>)
14. Ўзбекистан планирует проверят учителей на склонность к насилию (<https://zamin.uz/ru/uzbekistan/142430-uzbekistan-planiruet-proveryat-uchitelej-na-sklonnost-k-nasiliyu.html#:>)

XALQARO PISA – 2022 TADQIQOTIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH BO'YICHA NATIJALARI (O'zbekistonning natijalari)

Xolmirzayev Furkat Golibovich,
*Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i*

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA – 2022 xalqaro tadqiqotida o'quvchilarning kreativ fikrlash bo'yicha natijalari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot doirasida ilk marotaba kreativ fikrlash baholash yo'nalishi kiritildi va natijalar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston o'quvchilari natijalari tahlil qilinib, kreativ fikrlashning ahamiyati, uni baholash mezonlarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, ushbu natijalar asosida milliy baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: PISA – 2022, kreativ fikrlash, xalqaro baholash, milliy baholash tizimi, ta'lim sifati, innovatsion baholash, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Результаты учащихся по креативному мышлению в международном исследовании PISA 2022 (результаты Узбекистана)

Холмирзаев Фуркат Голибович,
Начальник отдела Республиканского научно-методического центра развития образования

Аннотация: В данной статье анализируются результаты международного исследования PISA 2022 по креативному мышлению учащихся. Впервые в рамках данного исследования была включена оценка креатив-

ного мышления, что оказало значительное влияние на изменения в системе образования. Проанализированы результаты учащихся Узбекистана, раскрыто значение креативного мышления и методология его оценки. На основе полученных данных предложены рекомендации по совершенствованию национальной системы оценки.

Ключевые слова: PISA 2022, креативное мышление, международная оценка, национальная система оценки, качество образования, инновационная оценка, система образования Узбекистана.

Students' creative thinking results in the international PISA 2022 study (Uzbekistan's Results).

Furkat Kholmirzaev,
Head of department the Republican Scientific and Methodological Center for the Development of Education

Abstract. This article analyzes the results of the PISA 2022 international study on students' creative thinking. For the first time, creative thinking assessment was introduced as an innovative domain within this study, significantly impacting educational reforms. The performance of Uzbek students is examined, highlighting the importance of creative thin-

king and its assessment methodology. Based on the findings, recommendations are provided for improving the national assessment system.

Keywords: *PISA 2022, creative thinking, international assessment, national assessment system, education quality, innovative assessment, Uzbekistan education system.*

2022-yilda ilk marotaba kreativ fikrlashni baholash yo'nalishi PISA tadqiqotining innovatsion yo'nalishi sifatida kiritildi, bu esa ushbu tadqiqot sohasining ahamiyatini va unga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirdi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, kreativ fikrlash, tushunish va kashf etish qobiliyati insoniyat madaniyatining barcha sohalari: fan, texnologiya, falsafa, san'at, gumanitar fanlar va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun asosdir. Bugungi kunda, har doimgidek, ijtimoiy, moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, ishlab chiqarishni rivojlantirish innovatsion g'oyalar paydo bo'lishiga, yangi bilimlar va yangi texnologiyalarni yaratishga bog'liq bo'lib kelmoqda.

Kreativ fikrlashning ta'limdagi ahamiyati. Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni jamiyatda yutuqqa erishishlari uchun kerakli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta'minlaydi. Bu ularga muntazam va keskinlik bilan o'zgarib borayotgan hayotga moslashishlariga yordam beradi hamda XXI asrning tanlangan ko'nikmalari bilan qurollangan ishchilarga aylantiradi. Bugungi kunning o'quvchilari dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratilib ulgurmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlashlariga to'g'ri keladi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarga texnologiyalar yordamida osonlikcha bajarib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish, yechimi yaqqol ko'ringan mahalliy va global

muammolarga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyatini yaratib beradi.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga (Hennessey va Amabail, 2010)[1]; jumladan, ular tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Shunday ekan, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy keladigan fikrlardan keskin farq qiladi. Bu bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion g'oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion g'oyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratmoqda (OECD, 2010 [2]).

Kreativ fikrlash jamiyat miqyosidagi ta'sir doirasiga ega bo'lgan o'ziga xos soha hisoblanishi bilan birgalikda, biror kim ishonishi mumkin bo'lganidanda universal va umumlashgan hodisadir. Ya'ni, keng yoki nisbatan tor ma'noda olib qaralganda, har bir inson kreativ fikrlash imkoniyatiga egadir (OECD, 2017)[3]. Bundan tashqari, psixologlar va o'qituvchilar orasida keng tarqalgan umumiy tushunchaga ko'ra, ijodkorlik bilan chambarchas bog'langan va fikrlash jarayonlarida ishtirok etish deb tushuniladigan kreativ fikrlash boshqa alohida bir qator fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi. Jumladan, metakognitiv qobiliyatlarni o'zaro va shaxsiy muammoni

yechish ko'nikmalarini, tenglik tushunchasini rivojlantirilishini, fanlarning o'zlashtirilishini, kelajakda kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishni va jamiyat bilan uyg'unlashuvini yaxshilaydi (Begetto, 2010[4]; Pluker, Begetto va Dau, 2004[5]; Smit 2010[6]; Torrans, 1959[7]; Ijodiy va madaniy ta'lim bo'yicha milliy maslahat qo'mitasi, 1999[8]; Spenser va Lukas, 2018[9]; Long va Pluker, 2015[10]; Barbot, Lubart va Besankon, 2016[11]; Barbot va Hyuzer, 2017[12]; Gajda, Karvovski va Begetto, 2017[13]) (Higgins va boshq., 2005[14]).

Maktablarda ham o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talablari sifatida ortib bormoqda. Maktablar o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashtirishga hamda kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlariga yordam beradi. Maktablar o'quvchilarni o'zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi sifatida va jamiyatning rivoji uchun o'zlari-ning hissalarini qo'shishlari mumkinligini his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlashning baholash mezonlari. Xalqaro PISA tadqiqotida kreativ fikrlash 4 ta yo'nalishga ajratilgan holda baholanadi. Bular: yozma va vizual ifodalash hamda ilmiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali amalga oshirilgan.

Yozma ifodalash;

Yozma ijod qilish qobiliyati mantiqiy bog'liqlikni taqozo etadi, ijodkor yozuvchilar kitobxonlardan tasavvur qilish qobiliyatini ishga solish va tasavvurlariga ishonishlarini so'raydi, chunki bu ularga asar tafsilotlarini yaxshiroq tushunishga va uning davomiyligini (mantiqiy ketma-ketligini) tushunishiga imkon yaratadi. Masalan, aytaylik, hatto maxluqlar va o'zga sayyoraliklar haqida yozilgan fantastik hikoyalar-

da ham muallif tomonidan yaratilgan sirli koinotlarni tushunishda ham ma'lum mantiqiy qonuniyatlarga rioya qilinadi. Ijodkor insonlarning yozish jarayoni va mahoratini namoyon etadi, o'z asarlaridan kutilgan natijani oydinlashtiradi va boshqalar tomonidan yozilgan yozma mahsulotga nisbatan hayolan o'z fikrini bildiradi.

Vizual ifodalash;

Vizual ifodalash o'quvchilarga ichki va yashirin tasvirlarni talqin qilish, muloqot jarayoni va loyihalashtirish ishlari umuman qanday ishlashni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

Kreativ fikrlash ko'nikmasini vizual tarzda ifoda qilish doirasida tuzilgan test namunalarida o'quvchilardan raqamli chizma uskuna vositalaridan foydalanib, ochiq vizual ko'rinishdagi topshiriqlarni bajarish, bo'limda berilgan topshiriq ssenariylari (topshiriqqa oid matnli ma'lumotlar) va rag'batlantiruvchi savollar yordamida vizual ko'rinishda mulohaza taklif etish (masalan, ma'lum chizma uskuna vositalarini yaratish, ma'lum tafsilotlarni kiritish) hamda berilgan ko'rsatmalar yoki qo'shimcha ma'lumotlarga tayanib, (topshiriqning rag'batlantiruvchi qismida berilganidek) turli shakldagi ko'rgazmali ifodalarga o'ziga xos o'zgartirishlar takliflar yaratish talab etilgan.

Ilmiy muammolarni hal qilish;

Fanda kreativ fikrlash o'zini turli yo'l bilan namoyon etadi, masalan, ilmiy bilimni oshirishga yordam beradigan yangi g'oyalar tushunchasida, farazlarni sinashda qo'llaniladigan tajribalar tushunchasida, amaliy qiziqishga ega bo'lgan ma'lum sohalar-da qo'llaniladigan g'oyalar yoki ixtirolar qilishda, yoki ilmiy va muhandislik uchun rejalar va loyihalarni yangidan joriy etilishida namoyon bo'ladi. O'quvchilar (o'zlari tanlagan) istagan usulda materiallar bilan

tajriba o'tkazish, kashf etishda kreativ fikrlarni namoyon qilishlari mumkin.

Ilmiy muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar namunalari turli ilmiy kontekstlarda kreativ fikrlashning ushbu turli jihatlarini qamrab oladi. Topshiriqlarda o'quvchilarga ilmiy hodisani kuzatish va hodisani tushuntirib berish uchun turli savollar yoki farazlarni ilgari surish, boshqa bo'limlarda esa o'quvchilardan turli laboratoriya uskunalaridan foydalanib, laboratoriya sharoitida biror narsani ixtiro qilish so'ralishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bo'limlarda o'quvchilardan o'ziga xos yangi-chayechimni talab etadigan ochiq turdagi texnik topshiriq yoki samarali yoki mahsuldor bo'lgan tizim taqdim etish so'ralgan.

Ijtimoiy muammolarni hal qilish;


O'zlarining kundalik hayotida o'quvchilar shaxsiy, o'zaro hamda ijtimoiy masalalarni yechish uchun kreativ fikrlash ko'nikmasidan foydalanadi. Kreativ fikrlash ko'nikmasini muammoni yechish doirasida tuzilgan test namunalarida o'quvchilardan xoh u individual, xoh modellashtirilgan jamoaviy ssenariy shaklida bo'lsin, ijtimoiy ahamiyatga ega ochiq muammoni yechishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish, berilgan ssenariy asosida ijtimoiy muammolarga yechim topa oladigan g'oyalarni ilgari surish va (topshiriqning rag'batlantiruvchi qismida berilganidek) muammo yechimlariga o'ziga xos o'zgartirishlar takliflar yaratish talab etilgan [Kreativ fikrlashni baholash qo'llanmasi, 2021.].

Mazkur baholash sohalari kreativ fikrlashning kompetensiyaviy modeli asosida amalga oshirilib, bu kompetensiyaviy model o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash maqsadida uch jihatdan ajratiladi. Bular:

Turli g'oyalarni ilgari surish;

Kreativ g'oyalarni ilgari surish;

G'oyalarni baholash va takomillashtirish.



1-rasm. Kreativ fikrlashning asosiy modeli

PISA – 2022 tadqiqotida kreativ fikrlash bo'yicha natijalari [16].

Mazkur yo'nalish bo'yicha eng yuqori va eng past ko'rsatkichga ega mamlakat o'rtasidagi farq taxminan 28 ballni tashkil etdi. Bunda yuqori beshtalikni, Singapur, Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlari egallagan bo'lsa, quyi beshtalikni Albaniya, Filippin, O'zbekiston, Marokash va Dominikan Respublikasi qayd etishgan.

PISA – 2022 tadqiqoti o'quvchilarni 6 ta daraja bo'yicha baholaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, kreativ fikrlash yo'nalishida 3-daraja tayanch hisoblanadi. Bunda, Singapur, Latviya, Koreya, Daniya, Estoniya, Kanada va Avstraliyada o'quvchilarning 88% dan ortig'i 3-daraja erishgan bo'lsa (OECD mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 78% ni tashkil etgan) 20 ta mamlakatlardagi o'quvchilarning 50% dan ortig'i 3-darajaga erisha olmaganligi namoyon bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, ko'plab o'quvchilar topshiriqlardagi bir qator muammolarga yechim sifatida mos g'oyalarni o'ylab topa olmagan hamda nostandart yechimlarni bera olmagan.

Kreativ fikrlash bo'yicha PISA topshiriqlarida asosiy yo'nalish (*o'qish, matematika va tabiiy fanlar*) **sohalarida o'lchangan ko'nikmalardagi farqi.** PISA – 2022 hisobotiga ko'ra, g'oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirish har bir fan sohasidagi asosiy kognitiv jarayonlardir. Shu sababli, o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari matematika, o'qish va tabiiy fandagi yutuqlari bilan ijobiy bog'liqligi (korrelatsiya) mavjud, PISA 2022 tadqiqotidagi kreativ fikrlash topshiriqlarida o'quvchilarning original va nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratgan, bu jihat boshqa yo'nalishlarga qaraganda ustun bo'lgan. Kreativ fikrlashda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilar boshqa fan yo'nalishlarda yaxshi natijalarga erishgan bo'lsa, xuddi shu fanlar bo'yicha yuqori natijalarga erishmagan o'quvchilar kreativ fikrlashda past ball olishlari mumkin.

Singapurdagi o'quvchilar bir nechta turdagi vazifalar, xususan, ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha eng muvaffaqiyatli (ya'ni to'liq kredit(ball)ga erishgan) bo'lishdi. Koreyadagi o'quvchilar esa ilmiy muammolarni hal qilishda hamda o'quvchilardan g'oyalarni baholash va takomillashtirishni talab qiladigan vazifalarni bajarishda kuchliroq bo'lgan bo'lsa, Portugaliyalik o'quvchilar esa vizual ifodalash bo'yicha eng muvaffaqiyatli bo'ldi. Umuman olganda, kreativ fikrlash bo'yicha OECD o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori natijalarga erishgan 12 mamlakatdan 7 tasi (Avstraliya, Kanada, Daniya, Estoniya, Koreya, Yangi Zelandiya, Polsha) har bir topshiriq bo'yicha OECD o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatdi. O'zbekistonlik o'quvchilar 4 ta yo'nalishlardan birortasida ham (yozma, vizual, ilmiy va ijtimoiy) OECDning o'rtacha ko'rsatkichiga yeta olmadi.

O'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holatidagi farqlar O'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham PISA tadqiqotlarida yaxshi natijalarni erisha olishlarini ko'rsatib o'tdi. Masalan, PISAning boshqa barcha baholash yo'nalishlarida bo'lgani kabi, ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari bilan ham ijobiy bog'liq. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida PISA ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holat indeksi (ESCS) ijtimoiy-iqtisodiy holati yuqori bo'lgan o'quvchilar, ijtimoiy-iqtisodiy holati past bo'lgan o'quvchilarga nisbatan – 9,5 ballga yuqori natijani qayd etdi.

PISA – 2022 tadqiqoti bir qancha kamchiliklar o'quvchilarning oilaviy sharoitlari bilan bog'liqligini misollar bilan keltirib o'tdi. Masalan ota-onasi yuqori (oliy yoki undan yuqori) darajadagi ma'lumotga, obro'li va yaxshi haq to'lanadigan ishlarga ega bo'lgan o'quvchilarning oilasi kengroq moliyaviy (masalan, xususiy repetitorlik, kompyuterlar, kitoblar), madaniy (masalan, so'z boyligi, vaqtni to'g'ri taqsimlash) va ijtimoiy (masalan, internet tarmoqlari) resurslarga ega. Imkoniyati mavjud oilalardan bo'lgan o'quvchilar erta bolalik davridagi sifatli ta'lim va g'amxo'rlikdan ko'proq foydalanish imkoniyatiga ham ega. Bu omillar ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan yoki surunkali ishsizlik, kam maoshli ishlar yoki moddiy qiyinchiliklarga uchrayotgan oilalarning o'quvchilariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy holati yuqori bo'lgan o'quvchilarning maktabda muvaffaqiyat qozonishini osonlashtiradi.

O'quvchilar qanday vaziyatlarda kreativ fikrlay oladilar.

O'quvchilar maktab topshiriqlari (ayniqsa yodlab olishga mo'ljallangan) ustida ishlashdan ko'ra, keng ko'lamli, real hayotiy muammolarni hal qilish haqida o'ylashga taklif qilinganda, ular kreativ

fikrlash qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch bildirdilar.

Aksariyat o'quvchilarning kundalik vaziyatlarida kreativ fikrlashni namoyish qilishlari yuqori darajada namoyon bo'lganligi aniqlangan, masalan, muhtoj odamlarga yordam berish uchun ko'plab yaxshi g'oyalarni taklif qilish so'ralganda (OECD o'rtacha 71%) yoki odamlar bilan

kelishmovchiliklarni hal qilish g'oyalarni ilgari surish (OECD o'rtacha 70%ni tashkil etdi) vaziyatlarida. Biroq, maktabdagi vaziyat yoki muayyan baholash haqida o'ylash so'ralganda, kamroq o'quvchilar kreativ fikrlashni namoyish eta olishlarini his qilishdi: masalan, faqat 62% o'quvchilar maktab loyihalari uchun kreativ g'oyalarni ishlab chiqishga ishongan yoki kam ishongan.

PISA – 2022 tadqiqoti kreativ fikrlash bo'yicha topshiriqlarning namunalari.

PISA 2022

Ilmiy loyihalar ko'rgazmasi e'loni
Savol 1 / 2

Savolga javob berish uchun o'ng tarafdagi chizish asboblari va pastdagi matn oynasidan foydalaning.

Ilmiy loyihalar ko'rgazmasi uchun **o'ziga xos Olis koinotdagi hayot** mavzusini yorituvchi reklama e'lonini tayyorlang.

Sizning reklama e'loningiz aksariyat odamlar beradigan javobdan farq qiladigan **o'ziga xos** bo'lishi zarur.

Quyidagi ajratilgan katakda loyihangizni bitta gap bilan tasvirlang.

Sizga mazkur savol uchun **7 daqiqadan** ortiq bo'lmagan vaqt sarflashingiz tavsiya etiladi.

Tasvirlash

Mavjud shtamlar:

Ilmiy loyihalar ko'rgazmasi!
Olis koinotdagi hayot
5-iyul

2-rasm. "Ilmiy loyihalar ko'rgazmasi e'loni" nomli topshiriq.

qo'yadigan ortiqcha tanqid va ortiqcha talablardan qochish.

Individual yondashuv: har bir bolaning xususiyatlarini, uning qiziqishlarini, moyilligini va rivojlanish sur'atlarini hisobga olish lozim.

Ishonch muhitini yaratish: xato qilishdan va yangi narsalarni sinab ko'rishdan qo'rqmaslik uchun o'quvchilar o'zlarini qulay va xavfsiz his qilishlari kerak.

Uzluksiz rivojlanish: o'quvchilarga o'rnak bo'lish uchun o'z ijodingizni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hennessey B. and T. Amabile (2010). "Creativity", Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.
2. OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.
3. OECD (2017), PISA 2021 Creative Thinking Strategic Advisory Group Report, Organisation for Economic Co-Operation and Development, [https://one.oecd.org/document/EDU/PISA/GB\(2017\)19/en/pdf](https://one.oecd.org/document/EDU/PISA/GB(2017)19/en/pdf) (accessed on 26 March 2018).
4. Begetto R. (2010). "Creativity in the classroom", in Kaufman, J. and R. Sternberg (eds.). The Cambridge Handbook of Creativity.
5. Plucker J., R. Begetto and G. Dow (2004). "Why isn't creativity more important to educational psychologists? Potentials, pitfalls, and future directions in creativity research", Educational Psychologist, Vol. 39/2, pp. 83-96.
6. Smith J. and L. Smith (2010), "Educational creativity", in Kaufman, J. and R. Sternberg (eds.), The Cambridge Handbook of Creativity, Cambridge University Press, Cambridge, <http://dx.doi.org/10.1017/CBO9780511763205.016>.
7. Torrance E. (1959). "Current research on the nature of creative talent.", Journal of Counseling Psychology, Vol. 6/4, pp. 309-316, <http://dx.doi.org/10.1037/h0042285>.
8. National Advisory Committee on Creative and Cultural Education (1999), All Our Futures: Creativity, Culture and Education, National Advisory Committee on Creative and Cultural Education.
9. Spencer E. and Lucas B. (2018). Understanding the role of creative self-efficacy in youth social action, University of Winchester.
10. Long H. and Plucker J. (2015). "Assessing creative thinking: practical applications", in Wegerif, R., L. Li and J. Kaufman (eds.), The Routledge International Handbook of Research on Teaching Thinking, Routledge, New York.
11. Barbot, B., T. Lubart and M. Besançon (2016), "Peaks, Slumps, and Bumps": Individual Differences in the Development of Creativity in Children and Adolescents", New Directions for Child and Adolescent Development, <http://dx.doi.org/10.1002/cad.20152>.
12. Barbot B. and Heuser B. (2017). "Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective", in The Creative Self, Elsevier, <http://dx.doi.org/10.1016/b978-0-12-809790-8.00005-4>.
13. Gajda A., Karwowski M. and Begetto R. (2017). "Creativity and academic achievement: A metaanalysis.", Journal of Educational Psychology, Vol. 109/2, pp. 269-299, <http://dx.doi.org/10.1037/edu0000133>.
14. Higgins S. et al. (2005), A meta-analysis of the impact of the implementation of thinking skills approaches on pupils., Eppi-Centre, University of London, <http://eppi.ioe.ac.uk/>.
15. A.A.Ismailov., X.J.Daminov, Z.A.Qosimova, G.A.Pirimov (2021). "Kreativ fikrlash baholash" qo'llanmasi. – Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi". UO'K 37.014.6:001. ISBN 978-9943-6960-1-3.
16. PISA Research, Development and Innovation (RDI) Programme, 2024, <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/creative-thinking/pisa-2022-creative-thinking.html>.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI TOPSHIRIQLARINING AFZALLIKLARI

Ergashev Orifjon Ungarovich,
*Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA baholash dasturining geografiya fanidagi topshiriqlari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qanday rivojlantirishi tahlil qilingan. Tadqiqotda geografiya fanidagi PISA testlarining afzalliklari, shu jumladan, o'quvchilarga haqiqiy dunyo masalalarini tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va funksional savodxonlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, testlarning ba'zi cheklovlari ham muhokama qilingan, masalan, o'quvchilarning individual o'qitish usullari va tayyorlash jarayonlaridagi farqlar. Tadqiqot PISA baholash dasturining geografiya faniga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ta'lim tizimining sifatini oshirishda uning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: PISA baholash dasturi, geografiya fani, tanqidiy fikrlash, funksional savodxonlik, global masalalar, ekologik muammolar, resurslarni taqsimlash, amaliy yondashuv, ta'lim sifati, testlarning cheklovlari, o'quvchi ko'nikmalari.

Преимущества заданий программы PISA в уроках географии

Эргашев Орифжон Унгарович,
Старший преподаватель Центра педагогического мастерства Джизакской области

Аннотация: В данном исследовании анализируется, как задания международной программы оценки PISA влияют на разви-

тие знаний и навыков учащихся в области географии. Рассматриваются преимущества заданий PISA в географии, включая развитие у учащихся навыков анализа реальных мировых проблем и разработки решений, критического мышления и функциональной грамотности. Также обсуждаются ограничения тестов, такие как различия в методах обучения и подготовке учащихся. Исследование помогает глубже понять влияние программы PISA на преподавание географии и ее роль в повышении качества образования.

Ключевые слова: Программа оценки PISA, география, критическое мышление, функциональная грамотность, глобальные проблемы, экологические проблемы, распределение ресурсов, практический подход, качество образования, ограничения тестов, навыки учащихся.

The advantages of PISA international assessment tasks in geography lessons

Orifjon Ungarovich Ergashev,
*Senior Lecturer at the Jizzakh Regional Center
for Pedagogical Excellence*

Abstract: This study analyzes the influence of the PISA assessment program on the development of students' knowledge and skills in Geography. It highlights the advantages of PISA tasks, including their ability to enhance students' skills in analyzing real-world issues, developing

solutions, critical thinking, and functional literacy. The research also addresses some limitations of the tests, such as variations in teaching methods and differences in student preparation. Overall, this study contributes to understand the impact of the PISA program on Geography

education and its role in improving the quality of education.

Keywords: *PISA assessment program, Geography, critical thinking, functional literacy, global issues, environmental problems, resource allocation, practical approach, quality of education, test limitations, student's comprehension.*

Hozirgi davrda globallashtirish, raqamli texnologiyalar rivoji va ekologik muammolarning keskinlashuvi ta'lim tizimiga ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu jarayonda xalqaro miqyosdagi baholash tizimlari, jumladan, PISA (Programme for International Student Assessment) dasturi ta'lim sifatini aniqlashda muhim mezonlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur baholash dasturi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini emas, balki o'zlashtirgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

PISA dasturi OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 2000-yildan boshlab har uch yilda o'tkazilib kelinadi. Bu dastur orqali dunyoning turli davlatlarida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha funksional savodxonlik darajasi baholanadi. Ushbu baholash tizimi orqali ta'lim mazmuni va metodikasi qanday real natijalar berayotgani aniqlanadi [5].

Geografiya fani esa bevosita hayot bilan bog'liq bo'lib, unda tabiiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois PISA dasturining topshiriqlari aynan geografiya darslariga mos keladi, chunki bu topshiriqlar real hayotdagi muammolarni hal qilishni, xarita bilan ishlashni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni va fikr yuritishni talab qiladi [2]. Mazkur maqolada geografiya darslarida PISA topshiriqlaridan foydalanishning

afzalliklari, ularni o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli, shuningdek, pedagogik amaliyotdagi samaradorligi tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, PISA topshiriqlarini geografiya darslariga tatbiq etish orqali nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning fikrlash, tahlil qilish, muammoga yechim topish kabi ko'nikmalarini ham shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro miqyosda baholash mezonlariga yaqinlashtirish imkonini beradi [3].

PISA dasturidagi geografiya bo'yicha baholash metodlari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini turli shakllarda taqdim etilgan testlar, diagrammalar, xaritalar va jadval yordamida baholashga qaratilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarning geografik masalalarni hal qilishda qanday bilim va ko'nikmalarni qo'llashlarini sinovdan o'tkazadi. Quyida ushbu metodlar va vositalarning ba'zi misollarini keltiramiz.

PISA testlarida o'quvchilarga geografik mavzular bo'yicha turli diagramma va jadvallar beriladi. Misol uchun, iqlim o'zgarishiga oid ma'lumotlar yoki energiya resurslarining taqsimoti haqidagi statistik ma'lumotlarni o'quvchilar diagramma yoki jadval orqali tahlil qiladilar [5]. Bunday testlar o'quvchilardan quyidagi kompetensiyalarni talab qiladi:

- Ma'lumotlarni o'qish va tahlil qilish
- Diagramma va jadvalni to'g'ri talqin qilish

• Statistikalardan va vizual ma'lumotlardan muammolarni hal qilishda foydalanish

Misol: Bir test topshirig'ida o'quvchilarga quyidagi jadval berilishi mumkin:

Siz bir shaharni boshqarayotgan hukumatning a'zosiz. Shaharning aholisi 2 million kishidan oshgan. Sizga quyidagi ikkita resurs mavjud:

1-jadval

Mamlakat	Yillik o'rtacha harorat (°C)	Yillik yog'ingarchilik (mm)
A mamlakati	15	800
B mamlakati	25	500

O'quvchidan bu jadvalni tahlil qilib, qaysi mamlakatda qaysi turdagi iqlim mavjudligini va iqlim o'zgarishining u yerlardagi resurslarga ta'sirini baholash talab qilinadi [7].

Xaritalar geografiya bo'yicha PISA testlarida asosiy vosita hisoblanadi. O'quvchilar xaritalar yordamida global va mahalliy masalalarni tahlil qilishadi. Masalan, ular xaritalardan foydalanib, yer yuzasidagi tabiiy resurslar, iqlim o'zgarishlari yoki shaharlar infratuzilmasini tahlil qilishlari kerak. Xaritalar orqali o'quvchilar nafaqat ma'lumotni o'qish, balki uni real dunyo masalalariga qo'llashni ham o'rganadilar.

Misol: O'quvchiga quyidagi xarita berilishi mumkin, unda turli mamlakatlarda iqlim o'zgarishining ta'siri ko'rsatilgan:

Savol: Iqlim o'zgarishining eng katta ta'siri ko'rsatilgan hududlar qaysilar? Bu hududlarda qanday ekologik va iqtisodiy muammolar yuzaga kelishi mumkin? [3]

Simulyatsiyalar o'quvchilarga real dunyo sharoitida geografik ma'lumotlarni qanday qo'llashni o'rgatadi. Bu turdagi testlar o'quvchilardan ba'zi o'zgarishlarga javob berishni yoki qaror qabul qilishni talab qiladi. Masalan, o'quvchilarga shaharlarning ekologik va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida savollar beriladi. Ular shu asosda turli xil resurslarni taqsimlash va ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishlari kerak [6].

Misol: O'quvchiga shunday simulyatsiya berilishi mumkin:

- 2000 megavatt elektr energiyasi
- 300,000 litr suv

Savol: Ushbu resurslarni aholi ehtiyojlariga qarab qanday taqsimlashni tavsiya qilasiz? Iqlim o'zgarishining ushbu resurslar taqsimotiga qanday ta'siri bo'lishi mumkin? [7].

PISA dasturida geografiya bo'yicha testlar nafaqat bilimni o'lchash, balki o'quvchilarning o'qish, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham sinovdan o'tkazadi. Masalan, quyidagi savollar geografiya darslarida PISA testlariga o'xshash tarzda berilishi mumkin:

Misol 1: Sizga quyidagi jadval va xarita berildi:

- Tabiiy resurslar va iqlim o'zgarishi haqidagi statistik ma'lumotlar
 - Yirik shaharlarning energiya iste'moli va ekologik ta'siri
- Savol: Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, iqlim o'zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini tahlil qiling. Qaysi hududda eng katta ekologik xavf mavjud va qanday choralar ko'rish kerak?

Misol 2: Sizga quyidagi xarita va iqlim haqidagi ma'lumotlar berilgan:

- Bir mamlakatda iqlim o'zgarishlari va suv resurslarining kamayishi
- Savol: Bu mamlakatda qaysi sohalarda ekologik va iqtisodiy muammolar yuzaga kelishi mumkin? Ushbu muammolarni qanday yechish mumkin? [8].

Natijalar. PISA testlarining geografi-

ya bo'yicha topshiriqlari o'quvchilarning nafaqat umumiy bilimlarini, balki real dunyo masalalariga nisbatan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. PISA testlarining geografiya bo'yicha topshiriqlari o'quvchilarga keng qamrovli muammolarni hal qilishda amaliy yondashuvni o'rgatadi va bu jarayonni interaktiv tarzda amalga oshiradi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarga murakkab masalalarni o'rganish, tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish uchun kerakli ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Geografiya fanidagi PISA topshiriqlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. O'quvchilar global miqyosdagi masalalar, masalan, iqlim o'zgarishlari, resurslar taqsimoti va ekologik xavf-xatarlar kabi mavzularni tahlil qilish orqali bilimlarini chuqurlashtiradilar. Misol uchun, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yoki suv resurslarini samarali boshqarish bo'yicha keng qamrovli va asosli qarorlar qabul qilish zarurati o'quvchilarga nafaqat mavjud bilimlarni baholash, balki bu bilimlarni zamonaviy muammolarni hal qilishda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu jarayon o'quvchilarga to'g'ri va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni o'rgatadi [7].

Geografiya bo'yicha PISA topshiriqlari o'quvchilarga murakkab global muammolarni hal qilishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Misol uchun, shahar infratuzilmasini rejalashtirish, resurslar taqsimoti va ekologik muammolarni hal qilish kabi masalalar bo'yicha berilgan topshiriqlar, o'quvchilarga turli nuqtai nazardan tahlil qilishni va turli yechimlarni ishlab chiqishni o'rgatadi. Shunday qilib, geografiya bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatgan davlatlarda o'quvchi-

lar, masalan, iqlim o'zgarishi yoki energiya manbalarining taqsimoti bo'yicha konkret va amaliy tahlillarni amalga oshiradilar.

PISA testlarining geografiya bo'yicha topshiriqlari o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'quvchilarga faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki ularni real dunyodagi vaziyatlarga tatbiq qilish imkoniyatini taqdim etadi. Geografiya darslarida amaliyotga asoslangan yondashuv orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganadilar va murakkab muammolarni yechishda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni hisobga olishni o'rganadilar. Misol uchun, ekologik muammolarni hal qilishda yuqori baholarni olgan o'quvchilar, ekologik tizimlar, iqlim sharoitlari va tabiiy resurslar kabi mavzularda aniq, asosli va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishadi.

PISA geografiya testlari o'quvchilarga faqat o'quv materiallarini o'rganish emas, balki ularni global masalalarda qanday boshqarish va qarorlar qabul qilishni o'rgatadi. Masalan, iqlim o'zgarishi yoki suv resurslarining taqsimoti kabi masalalar bo'yicha o'quvchilar keng qamrovli tahlil va muammolarni hal qilishga tayyorlanadilar. O'quvchilar global muammolarni o'rganish orqali jahon miqyosida faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu ularni ijtimoiy mas'uliyatli va global miqyosdagi muammolarni hal qilishda boshqaruvchilarga aylantiradi [5].

PISA testlarida geografiya fanidan ekologik masalalarga e'tibor qaratish o'quvchilarning ekologik muammolarni hal qilishdagi qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi. O'quvchilar iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, suv resurslarining kamayishi kabi dolzarb ekologik masalalar haqida bilimlarga ega bo'lib, ularni amaliy yechimlar bilan qo'llashni o'rgan-

dilar. Bu bilimlar va ko'nikmalar, kelajakda ekologik barqarorlikni ta'minlashda va tabiatni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Geografiya darslarida PISA baholash dasturining topshiriqlari o'quvchilarni faqat geografik bilimlar bilan tanishtirib qolmay, balki ularga bu bilimlarni amaliyotda qanday qo'llashni o'rgatadi. PISA testlari o'quvchilarni global masalalarni, ekologik, iqtisodiy, va ijtimoiy masalalarni tahlil qilish va ularga samarali yechimlar topish orqali tanqidiy fikrlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, PISA dasturi o'quvchilarga bilimlarni interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa o'quvchilarning ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga olib keladi. Biroq, testlar ba'zi cheklovlarga ham ega, bu esa o'quvchilarni baholashda ba'zi kamchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin [8].

PISA testlarining geografiya bo'yicha topshiriqlari o'quvchilarni faqatgina ma'lumotlarni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarga amaliy muammolarni hal qilishda bilimlarini qo'llashni o'rgatadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning murakkab, global miqyosdagi masalalarni tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Masalan, o'quvchilar iqlim o'zgarishlari, ekologik barqarorlik yoki resurslarni taqsimlash kabi mavzularni o'rganish orqali, ularga faqatgina ushbu mavzularni nazariy jihatdan tushunish emas, balki real hayotda amaliy ravishda bu muammolarni qanday hal qilishni o'rganadilar. PISA testlaridagi geografik savollar o'quvchilarga keng qamrovli tahlillarni amalga oshirishni va yechimlarni ishlab chiqishni o'rgatadi. Bu amaliy yondashuv o'quvchilarning fikrlash jarayonini kengaytiradi va ularga faqatgina ma'lumotlarni eslab qolish emas, balki bu ma'lumotlarni real muammolarni hal qilishda qo'llashni o'rgatadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. PISA testlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar faqatgina o'zlarining geografik bilimlarini tahlil qilmaydilar, balki bu bilimlarni kengroq nuqtai nazardan baholashni o'rganadilar [8]. Geografiya bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarga turli nuqtai nazarlardan masalalarni ko'rib chiqish va ilmiy asoslangan qarorlar chiqarishni o'rgatadi. Masalan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yoki ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi masalalarda o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlab, turli xil ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning qarorlar qabul qilishda nafaqat ilmiy asosga tayanishini, balki ijtimoiy va axloqiy masalalarni hisobga olishni ta'minlaydi.

PISA testlari o'quvchilarga faqat geografik bilimlarni emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga nisbatan yondashuvni ham o'rgatadi. Geografiya darslarida o'quvchilar resurslarni taqsimlash, ijtimoiy tengsizliklar yoki iqtisodiy rivojlanish kabi masalalarni o'rganadilar. PISA testlari bu mavzularni tahlil qilish va real dunyodagi yechimlarni topish orqali, o'quvchilarning global ijtimoiy masalalarga qarashini rivojlantiradi. Shunday qilib, o'quvchilar, nafaqat geografik bilimlarni o'zlashtirish, balki bu bilimlarni jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun qanday qo'llashni o'rganadilar.

PISA testlari o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga katta yordam beradi. Geografiya bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarga bilimlarni real dunyo sharoitida qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. O'quvchilar nafaqat geografik bilimlarni o'rganadilar, balki ular bu bilimlarni muammolarni hal qilishda qo'llashga o'rgatadilar. Funksional savodxonlikning oshishi, o'quv-

chilarning turli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarga qarshi aniq va samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa ularni kelajakda murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlaydi [5].

PISA testlarining cheklovlari. PISA baholash dasturining geografiya bo'yicha topshiriqlari, albatta, ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, ba'zi cheklovlarga ham ega. Masalan, PISA testlari o'quvchilarning faqat umumiy bilimlarini baholaydi va ularning individual o'qitish usullarini hisobga olishda ba'zi kamchiliklar mavjud. Har bir o'quvchining o'qish uslubi va yondashuvi farq qiladi, lekin PISA testlari barcha o'quvchilarni bir xil formatda baholashga qaratilgan. Shuningdek, PISA testlari ba'zi o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishdagi bilimlarini chuqurroq o'rganishga imkon bermaydi. Testlarning natijalari faqat umumiy ko'rsatkichlarni taqdim etadi va individual yondashuvni hisobga olishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tayyorlashdagi farqlar. Bundan tashqari, PISA testlariga tayyorlanish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi o'quvchilar

PISA testlariga tayyorlanish uchun maxsus o'quv dasturlari yoki qo'shimcha materiallardan foydalanishadi, bu esa test natijalarining to'g'riligini ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, ba'zi o'quvchilarni sinovlarga tayyorlashdagi o'zgarishlar talab qilinadi, chunki har bir o'quvchining tayyorgarligi va testga yondashuvi farq qiladi.

PISA baholash dasturi geografiya fani bo'yicha o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va amaliy yondashuvlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. PISA testlari o'quvchilarga faqat geografik bilimlarni o'rganishni emas, balki bu bilimlarni real dunyo muammolarini hal qilishda qo'llashni o'rgatadi. Shuningdek, testlar o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, samarali qarorlar qabul qilish va ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, PISA testlarining ba'zi cheklovlari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarni individual ravishda baholashda ba'zi qiyinchiliklar yaratishi mumkin. Shunday qilib, PISA dasturi geografiya darslarida ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, ammo uning cheklovlarini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. (2013). PISA 2012 Results: What Students Know and Can Do: Student Performance in Mathematics, Reading and Science. Volume I. OECD Publishing.
2. Tibbets, A., & Butler, R. (2016). Geography Education: A Critical Introduction. Routledge.
3. Aas M., & Røthing Å. (2019). Geography Education and the Global South: From Theory to Practice. Springer.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. (2020). Geografiya o'qitish metodikasi: o'quvchilarni geosiyosiy va ekologik masalalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilarni tayyorlash markazi.
5. OECD. (2020). PISA 2018 Results (Volume II): Where All Students Can Succeed. OECD Publishing.
6. Foskett N., & Hemsley-Brown J. (2001). Geography and the Global Curriculum: Developments in Secondary Education. Open University Press.
7. Ho A. (2014). Critical Thinking and Problem-Solving: PISA's Role in Teaching and Learning. Educational Research Review, 10, 23-35.
8. Abduqodirov T. (2019). Geografiya fani va uning ta'limdagi ahamiyati. Tashkent: Fan va texnologiya.
9. Ho A. (2014). Critical Thinking and Problem-Solving: PISA's Role in Teaching and Learning. Educational Research Review, 10, 23-35.

INGLIZ TILI DARSLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna,

*A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti
hojiyevamaftuna011@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tarixiy rivojlanishi va uning afzalliklari, shuningdek, o'qituvchilarning o'quvchilarga individual yondashishi zarurligi ta'kidlangan. Ushbu ta'lim texnologiyasini amalga oshirish davomida kelib chiqadigan vaqtni boshqarish va o'quvchilarning motivatsiyasini saqlash kabi muammolar va ularni hal qilishga ko'maklashuvchi omillar ham yoritib berilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi zarurligi ham ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodkorlik, o'quvchi, motivatsiya, pedagogik faoliyat, yondashuv, texnologiya, rivojlanish.

Роль технологий персонализированного обучения на уроках английского языка

Хожиева Мафтуна Улугбековна,
докторант, Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация: В статье подчеркивается историческое развитие персонализированного обучения, его преимущества, а также необходимость индивидуального подхода учителей к ученикам. Рассматриваются проблемы, возникающие при внедрении этой образовательной технологии, такие как управление временем и поддержание мотивации учащихся, а также факторы, спо-

собствующие их решению. Также подчеркивается важность постоянного профессионального развития учителей для успешного внедрения персонализированного обучения.

Ключевые слова: персонализированное обучение, креативность, ученик, мотивация, педагогическая деятельность, подход, технология, развитие.

The role of person-oriented teaching technologies at the english lessons

Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna,
Doctoral student, National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: The article highlights the historical development of person-oriented teaching, its advantages, and the necessity for teachers to adopt individualized approach to students. It discusses the challenges that arise during the implementation of this educational technology, such as time management and maintaining student motivation. Additionally, it addresses the factors that can help mitigate these issues and emphasizes the importance of continuous professional development for teachers to successfully implement person-oriented teaching.

Keywords: person-oriented teaching, creativity, student, motivation, pedagogical activity, approach, technology, development.

Bugungi globallashtirish davrida ingliz tilini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchi yoshlar ingliz tilini bilish orqali dunyo miqyosidagi eng so'nggi ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishlari, dunyoning ko'plab mamlakatlarida yashovchi odamlar bilan suhbat qura olishi, kelajakda nufuzli ta'lim muassasalarida o'qish va yirik kompaniyalarda ishlash imkoniyatini qo'lga kiritishlari mumkin.

Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganish ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinib, til o'rgatishda samarali va ommabop usullar va metodikalarni ishlab chiqishga e'tibor berilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitish sifatini va darajasini doimiy ravishda oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-son qarorlar qabul qilindi. Unga muvofiq dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish; xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida til o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish va har bir til o'rganuvchining shaxsiy qobiliyatlari va bilim olish darajasiga mos keluvchi dasturlarni yaratish lozim.

Til o'rganishga talabning ortishi o'qituvchilardan tezroq va sifatli til o'rgatish maqsadida yangi metodlarni ishlab chiqish, eski an'anaviy metodlardan (grammar-tarjima metodi, audio-lingvistik o'qitish, mavzuli o'qitish) voz kechish yoki ularni takomillashtirgan holda darsda qo'llashni talab qilmoqda. Bundan tashqari ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda hali hamon o'z yechimini topmagan muammolar talaygina. Ulardan biri o'qitish samaradorligi pastligi va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatining kamligidir. Yurtimiz va xorijdagi pedagog olimlar bu muammolarni hal qilishga yordam beruvchi o'qitish metodlarini topish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Zamonaviy texnika texnologiyalarning rivojlanishi "hammani bir vaqtda bir xil o'qitish" tamoyilini bir chetga surib, har bir o'quvchiga individual yondashishni talab qilmoqda. Demak, har bir o'quvchini shaxs sifatida qabul qilib, uning individual qobiliyatlari va sifatlarini inobatga olgan holda darsni tashkil etish pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega va zamon talablari bilan mos keladigan asosiy vazifadir. Bu yondashuv, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, har bir o'quvchining o'z potensialini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Avvalo, shaxs o'zi kim degan savolga to'xtaladigan bo'lsak, shaxs tushunchasi har qanday pedagogik jarayonning asosiy mezon bo'lib, pedagogik tizimning strukturasi belgilovchi omil hisoblanadi. Shaxs, mavjudlik va hayotiy jarayonni ifodalovchi hodisa sifatida qaraladi. Shu sababli, o'qituvchi shaxsning rivojlanishini ta'minlash uchun ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi zarur.

Hozirgi kunda shaxs tushunchasining yagona va to'liq ta'rifi mavjud emas. Shaxs, avvalo, ijtimoiy hodisa va faol subyekt sifa-

tida o'zini namoyon etadi. Masalan, A.V.Petrovsky shaxsni boshqalar bilan birlashgan alohida individ sifatida ta'riflaydi. Bunday holatlarda shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tizimi paydo bo'ladi [1].

Shaxsning individualligi uning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik faoliyatning o'ziga xos bir turi bo'lib, maqsadlari, vazifalari, mazmuni va texnologiyalari bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida, o'qituvchilardan pedagogik faoliyatda aniq qadriyatli munosabatlarni ifodalashni talab qiladi. O'qitish jarayonida yuqori darajadan past darajaga, yaxshidan yomonni, to'g'ri tanlovdan noto'g'ri tanlovni ajratish qobiliyatini talab etiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ilk ko'rinishlari qadim zamonlardayoq namoyon bo'la boshlagan. O'sha davr pedagoglari talabalarni ularning qobiliyatiga qarab o'qitish va barcha odamlarni kelib chiqishidan qat'iy nazar tabaqalarga ajratmagan holda ta'lim berish g'oyalarini ilgari surishgan. 1960-1970-yillarga kelib o'qitish texnologiyalarini o'quvchilarning shaxsiy farqlariga moslashtirish bo'yicha birinchi urinishlar amalga oshirildi, bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi va ko'rsatmalarini yaratishga olib keldi.

Ta'lim jarayonining o'quvchi atrofida emas aksincha o'qituvchi atrofida tashkilashtirilganligi o'quvchi shaxsiyatini o'rganishda muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Yan Zhao o'tkazgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, o'qituvchilarning aksariyati ta'lim jarayonida talabalar bilan faol aloqada bo'lmasligi aniqlandi. So'rovnomani natijalariga ko'ra, faqat 32,3% o'qituvchilar o'quvchilar bilan muntazam ravishda muloqot qilsa, 18,9% o'qituvchilar o'qituvchi-o'quvchi o'zaro aloqasining ahamiyatini past baholashgan, 2,3% esa o'quvchilar bilan hech

qachon suhbatlashmagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'quvchilar muammolar yuzaga kelsa ham o'qituvchilar yoki tengdoshlar bilan muloqot qilmaydi [2]. Ushbu muammolarning yechimi sifatida o'quvchilarga individual yondashish va o'quv jarayonida ularning shaxsiy sifatlarini e'tiborga olish lozimligi ko'pgina pedagoglar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim har bir o'quvchining kuchli tomonlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'limni tashkil etishni anglatadi. Bu o'quvchining nima, qanday, qachon va qayerda o'rganishini tanlash va o'z fikrini bildirish imkoniyatlarini yaratishni o'z ichiga oladi, shuningdek, eng yuqori darajadagi standartlarga erishishni ta'minlash uchun moslashuvchanlik va qo'llab-quvvatlashni taqdim etadi [3].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bu har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos keladigan o'qish tezligini va o'qitish yondashuvini optimallashtiruvchi ta'lim jarayonidir [4]. Tezlik, ya'ni o'quvchining shaxsiy o'sishi va vaqt o'rtasidagi nisbat, o'quvchilarning o'z yo'nalishlari bo'yicha yetarlicha taraqqiy etayotganini aniqlovchi muhim ko'rsatkichdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda, o'quvchilar o'z bilimni yetarli darajada egallamagan bo'lsa, ularga qo'shimcha vaqt beriladi va javob berishi qo'llab-quvvatlanadi. O'quvchilarning o'z o'sish tezligi va vaqt o'rtasidagi nisbat ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini aniqlashda muhim ko'rsatkichdir. Agar o'quvchining o'qish tezligi ularning shaxsiy o'sishiga mos kelsa, bu uning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Ayniqsa, ko'pchilik o'quvchilarda eng katta muammo bu ularning gapirish – til ko'nikmasining pastligi va fikrini chet tilida tez ifoda eta olmasliklaridir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda, har bir o'quvchiga o'z o'rganish ritmini saqlash imkoniyatini berish, ularning maksimal

potensialiga erishishiga yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida asosiy maqsad o'quvchilarni qiziqtirgan holda o'qitish va ularning bilimlarni to'liq o'zlashtirishini ta'minlashdir. Bunda o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyati yaratilib, ta'lim jarayoni ularning hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimlari va shaxsiy qiziqishlariga asoslangan tarzda tashkil etiladi [5]. Bunday ta'lim modeli nafaqat o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham turtki beradi, chunki ular o'z ehtiyojlariga mos o'qish va o'qitish tarzini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa umumiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi va o'quvchilarning individual rivojlanishiga katta yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchining o'рни beqiyos. Pedagog oldindan o'quvchilarning til o'rganishdan maqsadlarini aniqlashi, mavzular va materiallarni o'quvchilarning qiziqish va xohishlari, yosh xususiyatlariga qarab tanlashi va taqdim etishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi bunday ta'lim berish jarayonida nazoratchi sifatida emas, balki maslahat beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy ta'lim metodlaridan yana bir farqli jihati, o'qituvchi mavzuni ma'ruza (grammatik qoidalarni o'rgatish) shaklida o'quvchilarga taqdim etmaydi aksincha o'quvchilarning o'zi tengdoshlari bilan muhokama, baxs munozara yo'llari orqali yangi tushunchalar va lug'atlarni o'zlashtirishga harakat qilishadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amaliyotga joriy etish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi o'z o'qish tezligida o'rganish imkoniyati o'quvchilarga o'z sur'ati va vaqti asosida materiallarni o'rganish va mashqlarni bajarishga yordam

beradi. Bu o'quvchilar uchun an'anaviy sinfda mavjud bo'lmagan imkoniyatdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shuningdek, o'quvchilarga materiallarga qayerda, qachon va qanday foydalanishni o'zlariga boshqarish erkinligini beradi, bu esa uning mustaqil o'rganuvchilik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchilarga an'anaviy sinfda yuz bermaydigan ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar o'qituvchilarning materiallarni taqdim etish va o'quvchilarning topshiriqlarini tekshirish uchun kerak bo'lgan vaqt bilan bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish turli xil topshiriqlarni talab qiladi va bu topshiriqlarni tekshirish uchun ko'proq vaqt talab qiladi. O'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasining har xilligi o'qituvchidan o'quv materiallarni moslashtirish va til bilish darajasi past o'quvchilarga ko'proq e'tibor qaratishni talab etadi [6].

O'qituvchilar duch keladigan yana bir muammo o'quvchilarining motivatsiyasi va o'qituvchi-o'quvchi o'zaro aloqasidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarga o'rganishda erkinlik taqdim etsa-da, u o'quvchini til o'rganishga bo'lgan o'z ichki motivatsiyaga ega bo'lishini talab qiladi va afsuski, bu o'qituvchilar hal qilishi kerak bo'lgan katta muammolardan biri hisoblanadi [7].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchilar ko'proq individual yondashuvni ta'minlashlari kerak, bu esa ta'lim jarayonida vaqtni samarali boshqarishni talab qiladi. O'quvchilarning o'qish ritmini kuzatish va ularga yordam ko'rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchilarni onlayn platformalar orqali individual ravishda monitoring qilish, mashqlarni avtomatik tekshirish kabi vositalar yordamida vaqtni samarali boshqarish mumkin.

Dars jarayonida vaqtni boshqarish yillar davomida o'ttirilgan tajriba va bilimlar natijasida yuzaga chiqadigan ko'nikmadir. Bu borada o'qituvchilarga vaqtni boshqarish va individual yondashuvni samarali amalga oshirish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasini yuqori darajada ushlab turish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq, ba'zan o'quvchilar o'z bilimiga ishonchsizlik hissi yoki darsdan zerikish mumkin. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o'quvchilarni darsga faol jalb etishi lozim. Darslarni o'quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda tashkil etish, interaktiv o'yinlar, muhokama va guruhli ishlar orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Bu o'quvchilarni jarayonga faol ishtirok etishga undaydi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab turadi. Ta'kidlab o'tganimizdek ichki motivatsiyani rivojlantirish Har bir o'quvchining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta'lim rejalarini ishlab chiqish, o'quvchilarga o'zlarining rivojlanish tezligi va yo'nalishiga qarab tanlov imkoniyatini berish ularning ichki motivatsiyasini oshiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining ijodkorligi katta ahamiyatga ega. Chunki uning ijodkorligi o'quvchilar bilan ruhiy aloqani kuchaytiradi va til o'zlashtirish jarayonini samarali o'tkazishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi o'quvchilar bilan yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni yengishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu qarama-qarshiliklar, asosan, quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

o'quv dasturidagi o'quv yuklamasi bilan o'quvchilarning individual imkoniyatlari orasidagi farq;

o'quv materialining ko'plab qoida va

ta'riflari bilan o'quvchilarga g'oyalar, dunyoqarashlar va yondashuvlarni o'rgatishga intilish o'rtasidagi ziddiyat;

o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishdagi o'z yondashuvi bilan ilmiy qarashlar orasidagi farqlar.

Bunday vaziyatda, o'qituvchi avvalo qarama-qarshiliklarni fikran hal qiladi va o'zining ijodiy qarashlari samarali natijaga olib kelishini sezganidan keyin ularni pedagogik faoliyatida qo'llaydi.

Ushbu ta'lim texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonida har bir o'qituvchi quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishi maqsadga muvofiq:

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishi;

o'quvchilarning bilish faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olishi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishi;

o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish bosqichlari izchilligini belgilashi va ularning shaxsiy takomillashish yo'llarini izlashi lozim [8].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – ta'lim jarayonidagi innovatsion yondashuv. Biroq, bu yondashuv samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar uni yaxshiroq tushunishlari kerak. Hozirgi kunda odamlarni cheksiz ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradigan sharoit shaxsga yo'naltirilgan ta'limning majburiy amalga oshirilishi zaruratini keltirib chiqaradi, shuning uchun har bir pedagog ushbu ta'lim turining mazmun mohiyatini chuqur tahlil qilishi va uni ta'lim jarayoniga muvofiqiyatli tatbiq etish maqsadida vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaqt va ichki motivatsiya kabi muammolarni inobatga olishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Basham J.D., Hall T.E., Richard A.Carter Jr., R.A., Stahl W.M. (2016). An Operationalized Understanding of Personalized Learning. *Journal of Special Education Technology*, 31(3), 126- 136. DOI: 10.1177/0162643416660835.
2. Chen, X., Zou D., Xie. H. & Cheng.G. (2021). Twenty Years of Personalized Language Learning: Topic Modeling and Knowledge Mapping. *Educational Technology & Society*, 24 (1), 205-222.
3. Marion S. Worthen M. & Evans, C. (2020). *How Systems of Assessments Aligned with CompetencyBased Education Can Support Equity*. Vienna, VA and Dover, NH: Aurora Institute and Center for Assessment.
4. Sturgis C., & Casey K. (2018). *Designing for equity: Leveraging competency-based education to ensure all students succeed*. Vienna, VA: Aurora Institute. Retrieved from [https://www.inacol.Org/resource/designing-equity-leveraging-competency-based education-ensurestudents-succeed/](https://www.inacol.Org/resource/designing-equity-leveraging-competency-based-education-ensurestudents-succeed/).
5. Yusupova M.U. Teaching English through personalized learning technologies. *Innovation: the journal of social science and researches*. 2023.
- Zhao, Y. (2020). A Personalized English Teaching Design Based on Multimedia Computer Technology. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 15(08), pp. 210-222. <https://doi.org/10.3991/ijet.v15i08.13695>.
- Zhang L., Basham J.D., Yang S. (2020). Understanding the implementation of personalized learning: A research synthesis. *Educational Research Review*, 31, <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2020.100339>
- Петровский А.В., Шпалинский В.В. Социальная психология коллектива: Учеб. пособие. – М.: 1978.

O'ZGA TILLI O'QUVCHILARNING O'ZBEK TILI BO'YICHA NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ANIQLOVCHI TAJRIBA-SINOV MATERIALLAR TAVSIFI

Abdunazarova Odina Toshqinboy qizi,
*A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti doktoranti
abdunazarovaodina25@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada o'zga tilli o'quvchilarning o'zbek tili bo'yicha nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari va metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'riflanib, o'zga tilli o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklari va ularni bartaraf etishning usullari keltirilgan. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda, ayniqsa, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi komponentlarning o'rne muhokama qilinadi. Tajriba-sinov ishlari orqali o'quvchilarning o'zbek tilidagi muammolari aniqlanib, raqamli texnologiyalar yordamida bu muammolarni hal qilishning samaradorligi ko'rsatilgan. Maqola shuningdek, o'quvchilarda kasbiy dunyoqarashni shakllantirishda o'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish zaruratini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zga tilli o'quvchilar, o'zbek tili, nutqiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, tajriba-sinov, ta'lim metodologiyasi, til o'rganish, pedagogik yondashuv, interaktiv metodlar.

Описание опытно-экспериментальных материалов, направленных на развитие речевой компетенции учащихся, изучающих узбекский язык как иностранный

Абдуназарова Одина Тошқинбой кизи,
докторант, Национальный институт
педагогического мастерства
имени А. Авлони

Аннотация: В статье анализируются опытно-экспериментальные работы и методические подходы, направленные на развитие речевой компетенции учащихся, изучающих узбекский язык как иностранный. Описана эффективность использования цифровых технологий, приведены трудности, с которыми сталкиваются учащиеся, изучающие язык как иностранный, и методы их преодоления. В статье обсуждается роль компонентов, таких как аудирование, говорение, чтение и письмо, в развитии речевой компетенции учащихся. Через экспериментально-исследовательские работы выявлены проблемы учащихся в узбекском языке, и показана эффективность решения этих проблем с помощью цифровых технологий. Статья также подчеркивает необходимость совершенствования методологии преподавания узбекского языка для формирования профессионального мировоззрения у учащихся.

Ключевые слова: ученики, говорящие на

других языках, узбекский язык, речевая компетенция, цифровые технологии, экспериментально-исследовательская работа, методология образования, изучение языка, педагогический подход, интерактивные методы.

Description of experimental materials aimed at developing the language competence of students learning uzbek as a foreign language

Abdunazarova Odina Toshqinboy qizi,

Doctoral student, National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *The article analyzes piloting activities and methodological approaches aimed at developing linguistic competence of students learning Uzbek as a foreign language. It describes the effectiveness of using digital techno-*

logies and, addresses the difficulties faced by students during the learning process along with effective solutions to these challenges. The role of key components – listening comprehension, speaking, reading, and writing in developing students' linguistic and communicative competence is also discussed. Through piloting studies, the article identifies specific issues met by students in learning Uzbek, and presented effective strategies for resolving these issues with the help of digital technologies. Moreover, it emphasizes the need to improve the methodology of teaching Uzbek to help shape students' professional worldview.

Keywords: *non-native students, Uzbek language, linguistic competence, digital technologies, piloting, teaching methodology, language learning, pedagogical approach, interactive methods.*

Zamonaviy raqamli texnologiyalar-ning kengayishi bilan ta'lim sohasida yangicha yondashuvlar va metodikalar ishlab chiqilishi, o'quvchilarning til o'rganish jarayonini ancha yengillashtirdi. Ayniqsa, o'zga tilli o'quvchilarni ta'lim olishda o'zlarini ifoda etish, tilni o'rganishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish va nutqni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali vosita sifatida ajralib turadi. O'zga tilli o'quvchilarning nutqini rivojlantirish ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, raqamli texnologiyalar ularning til o'rganish samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi" [1].

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim-tarbiya,

xususan, o'zbek tilini o'rganish va o'qitish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6084-son Farmoni qabul qilindi. Farmonda mamlakatimizda davlat tilini to'laonli joriy etishni ta'minlash, o'zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o'rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tilining nufuzini va mavqeyini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Haqiqatdan ham, respublikamizda istiqomat qiluvchi rusiy-zabon va boshqa turli millat vakillarining mamlakatimizning teng huquqli fuqarolari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda keng faoliyat olib borishlari uchun davlat tilini bilishlari va erkin qo'llay olishlari kerak bo'ladi. Shu bois bugungi kunda o'zbek tilini o'rganish shaxsiy ehtiyojgina emas, balki

jamiyatning muhim ijtimoiy talablaridan biriga aylandi. Bu ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan sinflarda o'zbek tilini o'qitish va mazmunini yanada boyitish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim yetti tilda: o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, rus, qoraqalpoq tillarida amalga oshiriladi. O'zbek tilidan boshqa tilda ta'lim oluvchilar o'zga tilli o'quvchilarni tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda ta'lim o'zga tilda olib boriladigan sinfdagi o'quvchilarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda jami o'quvchilarning 14,3 foizi o'zga tilda o'qitiladigan o'quvchilar hisoblanadi. Jumladan, rus tilida 10,3 foiz, qoraqalpoq tilida 1,9 foiz, tojik tilida 1 foiz va qolgan qozoq, qirg'iz hamda turkman tillarida 1,1 foiz. O'zga tilda olib boriladigan darslarning 55,6 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent viloyati va Toshkent shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Demak, darslar o'zga tilda olib boriladigan sinfdagi o'quvchilarni o'zbek tili bo'yicha nutqini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Rusiyazon o'quvchilarning nutqini o'stirish metod va usullari G.V.Rogova, I.N.Vereshchagina va boshqa xorij tadqiqotchilari olimlarining, shuningdek, o'zbek olimlaridan R.Yo'ldoshev, X.Muxitdinova, S.Adilova, N.Z.Umarova, G.N.Qurbonova, G.Z.Muhammadjonovalarning tadqiqot ishlari, monografiya va metodik qo'llanmalari, ilmiy maqolalarida tadqiq etilgan.

O'zga tilli o'quvchilarga o'zbek tili o'qitilishidan ko'zlangan asosiy maqsad mam-lakatimizda yashovchi turli millatlar farzandlarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, o'zbek tilini kundalik turmushda va ijtimoiy faoliyati jarayonida turli insonlar o'rtasidagi og'zaki va yozma muloqot

yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi to'rt komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1) tinglab tushunish (eshitilgan va eshitirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

2) gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);

3) o'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish;

4) yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish) [3].

Tadqiqot mavzusi asosida o'quvchilar nutqiy kompetensiyasidagi muammolarni aniqlash va bu muammolarni samarali metodlar oraqali bartaraf etish maqsadida aniqlovchi tajriba sinov ishlari o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilandi:

- aniqlovchi tajriba-sinov ishlari;
- ta'kidlovchi, izlanuvchi tajriba-sinov ishlari;
- shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari;
- yakunlovchi tajriba-sinov ishlari.

O'zga tilli o'quvchilarning o'zbek tilida so'zlashganda nutqidagi muammolar, qiyinchiliklarni o'rganish va darsda raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini o'rganish uchun tajriba-sinov dasturiga muvofiq aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 122-maktab, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi 1-, 45-, 46-maktab, Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi 7-, 13-maktab, Samarqand viloyatidagi 22-, 40-maktablarda olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari davrida, asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zga tilli o'quvchilari jalb qilindi (1-jadval).

raqamli texnologiyalarni qanday integratsiya qilishni sinovdan o'tkazish.

Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining

1-jadval

Hudud	Maktab	Sinfi	Tajriba sinovining bosqichi
Toshkent shahri	127	7-8	Aniqlovchi
Toshkent viloyati	1-45-46	7-8	Aniqlovchi
Namangan viloyati	7-13	7-8	Aniqlovchi
Samarqand shahri	22-40	7-8	Aniqlovchi

Tajriba-sinov uchun quyidagilar maqsad qilib olindi:

1. Tajriba-sinov ishlari belgilangan umumta'lim muassasalari o'quvchilarida o'zbek tili tushunchalarni hosil qilishdagi muammolarni o'rganish va bartaraf etishga erishish yuzasidan mavjud holatni o'rganish;

2. O'quvchilarda o'zbek tili o'qitish vositasida kasbiy dunyoqarashni shakllantirishning metodik shartlarini ishlab chiqish;

3. Umumta'lim maktablarda o'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish orqali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish va amaldagi holatni tahlil qilish;

4. O'zbek tilini o'qitishda o'qituvchilarning xalqaro ta'lim dasturlariga oid bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish;

5. O'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha metodik tizimini va usullarini ishlab chiqish;

6. Maktablarda o'zbek tili o'qitishning mazmunini belgilovchi modelni ishlab chiqish hamda o'quvchilarni raqamli texnologiyalarga doir kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

7. Raqamli texnologiyalarning o'zga tilli o'quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini o'rganishdir;

8. O'quvchilarning tilni o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarini bartaraf etishda

mazmunini amaldagi holat va erishilgan natijalar umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida olib borilgan so'rovnoma-anketalar, suhbat, seminar va testlar asosida aniqlandi.

Aniqlovchi tajriba-sinovi 2024-yilning dekabr va 2025-yil mart oylari davomida amalga oshirildi.

Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining o'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish zaruratini aniqlashdan iboratdir. Bu ishlar orqali, o'quvchilarning o'zbek tilini o'rganish jarayonidagi amaldagi holat va samaradorlikni o'rganish, o'qituvchilarning faoliyatini yaxshilash va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir metodik yondashuvlarni aniqlash rejalashtirilgan.

Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish orqali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish va amaldagi holatni tahlil qilish.

2. Maktablarda o'zbek tili o'qitishning mazmunini belgilovchi modelni ishlab chiqish va o'quvchilarni nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

3. Maktablarda o'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha

o'qituvchi faoliyati modelini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

4. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida o'zbek tili o'qitishda o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Aniqlovchi tajriba-sinov ishlarida bir nechta metodlar va yondashuvlar qo'llanilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar:

1. Xorijiy tajribani o'rganish. O'zbek tili o'qitish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tajribasini o'rganish. Bu metod, boshqa davlatlardagi ilg'or amaliyotlardan foydalanilgan holda, o'quvchilarga samarali ta'lim tizimini yaratishga imkon beradi.

2. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish. Mavzuga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va o'rganish, bu esa o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

3. O'quvchilarning amaldagi bilimlarini tahlil qilish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning o'zbek tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish. Bu metod orqali o'quvchilarning mavjud bilim darajasini aniqlash va o'qitish jarayonini optimallashtirish yo'llarini topish mumkin.

4. Raqamli texnologiyalar yordamida tahlil qilish. O'quvchilar va o'qituvchilar bilan so'rovnoma-anketalar, suhbatlar, testlar va seminar-treninglar o'tkazish. Raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayon yanada samarali bo'lib, o'quvchilarning tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini baholash imkonini beradi.

Guruhlar quyidagicha tashkil etildi:

1. *Eksperimental guruh.* Ushbu guruhda

raqamli texnologiyalar, masalan, mobil ilovalar, onlayn kurslar, video materiallar, interaktiv o'quv platformalaridan foydalanish rejalashtirildi.

2. *Nazorat guruh.* An'anaviy ta'lim metodlari (kitoblar, darsliklar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar) asosida o'qitish amalga oshiriladi.

Aniqlovchi tajriba-sinov natijasida o'zga tilli o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasida uchraydigan muammolar aniqlandi. Tajriba sinovining natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

1. *So'z boyligi va lug'atdagi cheklovlar.* O'zbek tilini o'rganayotgan o'quvchilarning arimlari o'zbek tilining so'z boyligi bilan tanish emas. Bu esa ularning nutqiy ifodalarini kamaytiradi va tushunish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. *Grammatika va sintaksisdagi qiyinchiliklar.* O'zbek tilining grammatikasi va sintaksisiga nisbatan tushunmovchiliklar yuzaga keldi. Masalan, so'z tartibi, fe'l shakllari, fe'lni qo'llash va boshqa grammatik qoidalar o'quvchilar uchun murakkab.

3. *Fonetik farqlar.* O'zbek tilni o'rganayotgan o'quvchilar tovush tizimini tushunish va to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

4. *Nutq tezligi va aniq ifodalash muammolari.* O'zga tilni o'rganayotgan o'quvchilar nutq tezligini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

5. *Madaniyat va kontekstdagi farqlar.* O'zga tilda nutq hosil qilishda, o'quvchilar kontekstual ma'lumotlarni to'g'ri tushunish va ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Masalan, madaniy kontekstga mos kelmaydigan iboralar yoki an'anaviy gaplar o'quvchiga tushunarsiz bo'lishi mumkin.

6. *Qisqa vaqt ichida fikrni aniq ifodalash muammolari.* O'quvchilar tezkor ravishda

fikrlarni aniq va to'g'ri ifodalashda muammolarga duch kelishi mumkin. Bu ko'pincha o'quvchining o'z fikrlarini shakllantirish va tahlil qilish qobiliyatiga bog'liq.

7. *Nutqiy ishtirokning pastligi.* Ba'zi o'quvchilar o'zlarining nutqiy faolligini past tutishi mumkin, chunki ular yangi tilni o'zlashtirishda yoki xatolar qilishdan qo'rqishadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun individual yondoshuvlar, grammatika va so'z boyligini o'rganish, talaffuzni yaxshilash bo'yicha mashqlar va madaniy kontekstga oid materiallar orqali ishlash, dars jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash muhimdir.

Texnologiya yordamida ta'lim – bu ma'lumot va aloqa texnologiyalarini o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash jarayoni bo'lib, uning maqsadi talaba uchun o'rganish tajribasini yaxshilashdir [4].

Bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida o'qituvchilar o'zga tilli o'quvchilarga yangi tilni o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga tilni o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishi ortadi va ular o'zlarini xohlagan vaqtda, istalgan joyda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'rganish tajribasi o'quvchiga o'ziga eng mos keladigan o'rganish tezligi, joyi va usulini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. O'rganish, mavzuni o'qish yoki aytib berish o'rniga, video, simulyatsiya va kengaytirilgan haqiqat kabi turli media vositalari orqali tajriba qilinishi mumkin, bu materiallarga kontekst beradi [5].

Eksperimental guruhda raqamli texnologiyalardan quyidagilarni qo'llash rejalashtirildi:

1. *Mobil ilovalar:* o'rganish ilovalari yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashadi. Ushbu ilovalar o'quvchilarga o'zlashtirgan til ko'nikmalarini doimiy ravishda takrorlash imkonini beradi.

2. *Interaktiv onlayn platformalar.* Platformalarda o'quvchilar bilan interaktiv darslar o'tkaziladi. Bu platformalar orqali o'quvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatiladi va muhokamalar, guruh ishlari amalga oshiriladi.

3. *Video materiallar.* Video platformalarda o'quvchilarga til o'rganishni osonlashtirish uchun turli xil interaktiv videolar, animatsiyalar va taqdimotlar taqdim etiladi.

4. *Onlayn testlar va o'quv materiallari.* O'quvchilar testlar, viktorinalar va interaktiv mashqlar yordamida o'z bilimlarini tekshirib, o'zlashtirish darajasini o'lchaydilar.

Tadqiqotchi olim N.Z.Umarovanning ta'kidlashicha: "O'zbek tili mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish maqsadida elektron darsliklar, elektron ishlanmalar, "slayd paketlar", ensiklopediya, lug'atlar yaratish, elektron pochtdan foydalanish zarur" [6].

Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali interaktiv o'yinlar, AI, multimediali resurslar va onlayn platformalar yordamida o'zga tilli o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning til o'rganish jarayonini yanada samarali va motivatsiyalanuvchan qilish imkonini yaratadi [7].

Interaktiv metodlar va o'yinlar. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarga interaktiv o'yinlar va mashqlar orqali til o'rganish imkoniyati berilishi mumkin. Bunday metodlar o'quvchilarning tilni qiziqarli va faol tarzda o'rganishiga yordam beradi, chunki o'yinlar va interaktiv mashqlar motivatsiyani oshiradi va til o'rganishni osonlashtiradi.

AI va tilni aniqlash texnologiyalari. Sun'iy intellekt (AI) va tilni aniqlash texnologiyalaridan foydalanish, o'zga tilli o'quvchilarning talaffuzini va nutq rivojlantirishda yordam berishi mumkin. Masalan, raqamli yordamchilar yoki talaffuzni tekshiradigan ilovalar o'quvchilarga nutqlarini yaxshilashda ko'maklashadi.

Multimediali resurslar. Raqamli texnologiyalar orqali videolar, audiolar, interaktiv dasturlar va boshqa multimediali materiallar yordamida o'quvchilar turli kontekstlarda va real hayotdagi holatlarda tilni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'zga tilli o'quvchilarga tilni samarali o'rganish uchun zarur bo'lgan turli tillarni va nutq shakllarini o'rganish imkonini beradi.

Motivatsiya va o'quvchilarga individual yondashuv. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarga individual ehtiyojlarga mos keladigan o'rganish materiallari va vositalari taqdim etiladi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganish jarayonida o'zlarini yanada faol ishtirokchisifatida his qilishlariga imkon yaratadi.

Tilni o'rganishdagi ilg'or metodologiyalar. Raqamli texnologiyalar orqali innovatsion metodologiyalarni, masalan, "flipped classroom" (orqaga burilgan sinf) yondashuvidan foydalanish mumkin. Bu yondashuvda o'quvchilar uyda mustaqil ravishda raqamli materiallarni o'rganadilar va darsda o'rganilgan bilimlarni amaliy mashqlar bilan mustahkamlashadi.

Til o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini oshiradi.

O'zbek olimasi S.Adilova kompyuterining axloqiy-ma'naviy tarbiyadagi ahamiyatini quyidagicha bayon qiladi: ...misol, matn, mashqlarda yoki audio va videomateriallarda, hatto ekranning badiiy bezatishida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, sharqona odob-axloq namunalari o'z aksini topsa, rusiy zabon talabada yashab turgan yurtiga nisbatan vatanparvarlik hissi yanada kuchayadi, davlat tilini bilishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi va, albatta, o'quv jarayonining muhim maqsadlariga – ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda amalga oshirish hamda jamiyatimiz uchun ma'naviy barkamol, yetuk mutaxassislarini tayyorlab berishga erishiladi [8].

Aniqlovchi tajriba sinovi shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasida ma'lum darajada muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalar o'zga tilli o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ularning yordamida o'quvchilar o'rgangan materialni mustahkamlash, til ko'nikmalarini oshirish va mustaqil ishlashda katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, o'z-o'zini baholash va rivojlantirishga yordam beradi.

Kelgusida raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi yanada kengaytirilishi va yanada samarali metodikalar ishlab chiqilishi kutilmoqda. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli foydalanib, o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Yusupova, S. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv o'qitish metodlari. – Toshkent: "Akademiya" nashriyoti, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6084-son Farmoni.
3. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3/ISSUE 1/2022.
4. Kirkwood, A., & Price, L. (2014). Technology-enhanced learning and teaching in higher education: What is "enhanced" and how do we know? A critical literature review. Learning, Media and Technology, 39(1), 6-36.
5. Cook D. A., Brydges R., Hamstra S. J., Zendejas B., Szostek J. H., Wang A.T., Hatala R. Comparative effectiveness of technology-enhanced simulation versus other instructional methods: A systematic review and meta-analysis. Simulation in Healthcare: Journal of the Society for Simulation in Healthcare, 2012. 7(5), 308-320.
6. Umarova N.Z. Talabalarning o'zbekcha yozma nutqini o'stirishda elektron ishlanmalardan foydalanish usullari: Oliy o'quv yurtlarining rusiyazon guruhlar uchun o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: O'zMU, 2007. 13 b.
7. Kelly M. Using Digital Technology to Improve Language Learning. Cambridge University Press, 2020.
8. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta'lim muassasalarining rusiyazon guruhlarida): Ped.fan.nom. dis... – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. 12 b.

O'QUVCHILARDA QAROR QABUL QILISH VA AMALGA OSHIRISH UCHUN ILMIY MA'LUMOTLARNI IZLASH, BAHOLASH VA ULARDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Akbarova Saidaxon Rustamovna,
Toshkent shahar Yunusobod tumani
220-maktab kimyo-biologiya o'qituvchisi,
E-mail: saidaxon7902@.com

Annontatsiya: Bugungi kunda o'quvchilarga nafaqat maktabda to'g'ri ta'lim berish, balki qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlashi, ularni baholay olishi hamda ulardan foydalana olishini o'rgatish ham zarur. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada o'quvchilarni ilmiy ma'lumotlarni izlash va baholashning yangi yondashuvlari tobora murakkablashib borayotgan va global jamiyat uchun zarur bo'lgan ongli qarorlar qabul qilishga yo'naltirish ayni muddao ekanligi tahlil qilinadi. Bu yerda ifodalangan fan ko'nikmalari ilmiy tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan eksperimental ko'nikmalarni tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada bir vaqtning o'zida ikkita usulni o'zaro tajribadan o'tkazishga imkon beradigan oddiy o'quv dizayni taqdim etilgan. Ulardan biri qarorlar qabul qilish uchun gipoteza yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash vositalaridan foydalanishga qaratilgan. Hamda bilimlar integratsiyasi o'quvchilarning ilmiy izlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma haqidagi g'oyalarni qanday birlashtirganligini o'lchash uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: tabiiy ilmiy savodxonlik, ilmiy ma'lumotlarni izlash, qaror qabul qilish va amalga oshirish, ilmiy ma'lumotlarni baholash va ulardan foydalanish.

Развивать у учащихся навыки поиска, оценки и использования научной информации для принятия и реализации решений

Акбарова Саидахон Рустамовна,
Юнусабадский район г. Ташкента
Учитель химии и биологии школы № 220,
mail: saidaxon7902@.com

Аннотация: Сегодня необходимо обучать учащихся в школе не только тому, чтобы дать им полноценное образование, но и умению искать, оценивать и использовать научную информацию для принятия и реализации решений. С этой точки зрения в данной статье анализируется необходимость ориентирования учащихся на поиск и оценку научной информации с использованием новых подходов, что особенно важно для осознанного принятия решений в условиях усложняющегося глобального общества.

Представленные здесь научные навыки помогают понять экспериментальные умения, необходимые для проведения научных исследований. В статье предложен простой учебный дизайн, позволяющий одновремен-

но апробировать два метода. Один из них направлен на формирование гипотез, анализ и оценку данных как инструментов принятия решений. Другой предназначен для измерения того, как интеграция знаний способствует объединению идей учащихся о навыках, необходимых для научных исследований.

Ключевые слова: естественнонаучная грамотность, поиск научной информации, принятие решений и их реализация, оценка и использование научных данных.

Fostering decision-making competence: developing students' skills in searching, evaluating and using scientific information

Akbarova Saidakhon Rustamovna,
Chemistry and Biology teacher
at school No. 220 Yunusabad district,
Tashkent city

Abstract: In today's education scenery, it is essential to equip students not only with a

comprehensive understanding of various school subjects, but also to search for, evaluate and apply scientific information in decision-making processes. This article explores the necessity of guiding students in these areas through innovative approaches, particularly in the context of an increasingly complex global society.

The skills discussed here are crucial for understanding the experimental skills required for conducting scientific investigations. We propose a straightforward instructional design that enables the simultaneous trying of two techniques: one focused on hypothesis formation, data analysis, and evaluation as tools for decision-making, and the other aimed at assessing how knowledge integration can unite students' understanding of the skills essential for effective scientific inquiry.

Keywords: science literacy, searching for scientific information, decision making and applying, evaluation and use of scientific data.

Tabiiy fanlarni bilish zamonaviy ta'limning asosiy jihatlaridan biridir. Hozirgi kunda bilimlarni kundalik hayotda qo'llash qobiliyatiga talab ortib bormoqda. Bu muammo XXI asr ta'lim muammolari-ning asosiga aylantirdi. Bugungi jamiyat ma'lumotlarni yaratish, saqlash va qayta ishlashda har bir kishi faol ishtirok etadigan bilimga ega bo'lishga chaqiradi. Bu esa ta'limning qadr-qimmatini oshirishga olib keladi. O'z navbatida bugungi kunda ta'limda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan eng muhim jihatlardan biridir.

Zamonaviy ta'limda ta'limga yondashuvni o'zgartirish zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda "Yoshlarning keyingi avlodi ishchi o'rinlarini izlamaydi, balki yaratadi va murakkablashib borayotgan dunyoda umumiy taraqqiyot yo'lida

birlashadi"[1]. Bu ulardan qiziquvchanlik, tasavvur, hamdardlik, tashabbuskorlik va sabot-matonatni, omadsizlikka amaliy yondashish qobiliyati va xatolardan xulosa chiqarish qobilyatini talab etadi. Shubhasiz, "O'quvchilardan doimiy moslashuv va rivojlanishni taqozo etadigan dunyoda uzluksiz ta'limga potensialni va ishtiyoqni oshirish zarurati paydo bo'ladi"[2]. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa "yoshlarni hayotga tayyorlash"da markaziy o'rinni egallaydi[3]. O'quvchilarda "zamonaviy dunyo muammolarini muvaffaqiyatli yengishga yordam beradigan kompetentsiyalarni rivojlantirish ayniqsa muhimdir"[4]. Turli davrlardagi tabiiy fanlar-

ni o'rganishda va tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi asosiy kompetensiyalar rivojlantiriladi:

- Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish;
- Ilmiy izlanishlar uchun loyihalarni tuzish va baholash hamda ilmiy ma'lumotlar va dalillarni tanqidiy talqin qilish;
- Qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlash, baholash va ulardan foydalanish.

Qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlash, baholash va ulardan foydalanishda quyidagi ko'nikmalar namoyish etiladi:

- ilmiy ma'lumotlarni qidirish, baholash va hayotiy masalalarni hal qilish uchun qo'llash;
- shaxsiy, mahalliy va global muammolarni hal qilish uchun ilmiy yondashuvlarni tanlash;
- qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlash, baholash va ulardan foydalanish;
- ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy jihatdan qarorlar qabul qilishda ahamiyatga ega yoki foydali bo'lishi mumkin bo'lgan turli axborot manbalarini qidirish, baholash va ularning nisbiy afzalliklarini muloqot qilish, shuningdek, ularning argument yoki yechimni qo'llab-quvvatlash darajasini aniqlash;
- "kuchli ilmiy dalillarga asoslangan da'volarni, ekspert va no-ekspert fikrlarni va shaxsiy mulohazalarni farqlash hamda bu farqlarni asoslab berish"[5];
- ma'lumotlar to'plamidan tegishli ilmiy xulosani qo'llab-quvvatlash uchun argument tuzish;
- epistemik va metodologik bilimlardan foydalangan holda ilmiy argumentlardagi umumiy xatolarni tanqid qilish, masalan, noto'g'ri taxminlar, sabab va korrelyatsiya o'rtasidagi chalkashliklar, xato tushuntirish-

lar yoki cheklangan ma'lumotlar asosidagi umumlantirishlar;

- ilmiy argumentlardan foydalanib, zamonaviy muammolarni yoki barqaror rivojlanishni hal qilishga hissa qo'shadigan individual yoki jamoaviy qarorlarni asoslash[6].

Ma'lumotlardan foydalanish va qaror qabul qilish kundalik hayotda nima uchun eng muhim deb o'ylaysiz va nega?

Chunki, o'zingiz va jamiyat uchun dolzarb qarorlar qabul qilishda qo'llaniladi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun qayta ishlash yoki qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarga tabiiy fanlarning asosiy tamoyillarini yaxshiroq tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilarning bilimi standartga to'liq javob berishi uchun ularda ma'lumotlardan foydalanish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini oshirishimiz lozim. Maktab o'quvchilariga tabiiy fanlarini o'qitishda har bir topshirig'ining statistik natijasi olindi va aniqlangan bo'shliqlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar mezonlariga kiradi:

Vazifani atrofdagi dunyoning haqiqiy muammolari bilan bog'lash;

har xil turdagi ma'lumotlardan foydalanish: matnlar, diagrammalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, videolar va boshqalar;

kognitiv potentsialning mavjudligi (maktab o'quv materialini kengaytirish va uning doirasidan tashqariga chiqish);

texnologiyalar, jarayonlar va ishlab chiqarish mexanizmlari kabi amaliy jihatlarga e'tibor qaratish;

tabiiy ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

tabiiy fanlar sohasida mavjud bo'lgan fanlararo integrasiyalarni hisobga olish;

savollar/topshiriqlar turlarining xilma-xiligi va topshiriqda javoblarning mavjudligi;

Material o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.

Tabiiy fanlaridan (kimyo) "CHSB sinov natijalari tahlil qilinganda aynan o'quvchilarda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish ko'nikmasini baholashga old savolga (Q29) kam sonli o'quvchilar javob bergan"ligini ko'rish mumkin[7].


O'quvchilarning kimyo fani bo'yicha savodxonlik darajasini baholashda bir nechta bo'shliqlar aniqlandi. Nazorat savollaridagi topshiriqlar tahlilida past ko'rsatkichga ega bo'lgan savollar uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Masalan, rasmda propanol-1, propanol-2 va 2-metilpropanol-2 kislotali muhitda kaliy bixromat, kuchli oksidlovchi ta'siri ko'rsatilgan. Spirtlarning oksidlanish jarayonlari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.




1-rasm. Sirtlarning oksidlanish jarayonlari

1. Propanol-1 oksidlanishi:



2. Propanol-2 oksidlanishi:



3. Birinchi va ikkinchi probirkalarda propanol-1 va propanol-2 bo'lishi mumkin chunki, CrO₃ va sulfat kislotaning suvli eritmasi ishtirokida eritma ko'k yashil rangga o'tadi.

4. Uchinchi probirkada ikkilamchi spirt 2-metil propanol-2 mavjud Ikkilamchi spirtlar oksidlanishga uchramaydi. O'quvchilar ushbu topshiriqni bajarishda 10-sinf "Kislorodli organik birikmalar" bobidagi bir atomli to'yingan spirtlarning kimyoviy xossalarini bilishlari ya'ni, oksidlanish jarayonida birlamchi spirtlar aldegidlar hosil qilishi, ikkilamchi spirtlar esa ketonlarga aylanishini bilishi lozim. O'quvchilar topshiriqni bajarishda kimyo fanidan olgan bilimlariga tayangan holda rasmda berilgan tanish bo'lgan ma'lumotlarni qo'llashlari kerak.



2-rasm. Kislorodli organik birikmalar bobining kichik mazmun sohalari

Berilgan qonuniyatlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etadilar.

Xrom angidridi va xromli aralashma shtirokida oksidlash

Spirtlarni alkan va alkinlardan xrom angidridi CrO_3 ta'sirida oksidlash reaksiyasi orqali farqlash mumkin. CrO_3 va sulfat kislotaning suvli eritmasi ishtirokida ikki minut davomida shaffof qovoq rang eritma ko'k yashil rangga o'tadi va loyqalanadi.

Bir atomli to'yingan spirtlar

Spirtlar sinfi uchun umumiy sifat reaksiyasi mavjud emasligi, bu sinf vakillarini tahlil qilish uchun turli o'ziga xos reaksiyalardan foydalanishini yodga olishlari kerak.

Kislorodli organik birikmalar

Bir atomli to'yingan spirtlarning kimyoviy xossalari bilishlari ya'ni, oksidlanish jarayonida birlamchi spirtlar aldegidlar hosil qilishi, ikkilamchi spirtlar esa ketonlarga aylanishini bilishi lozim.


Keling, misol sifatida bir nechta turli turdagi vazifalardan foydalangan holda yuqoridagi talablarning bajarilishini ko'rib chiqaylik.

Grafikda alkanlar, aldegidlar va spirtlarning qaynash harorati ularning molekulyar og'irligiga bog'liqligi ifodalangan. Ushbu organik birikmalarga berilgan mulohazalarning to'g'ri variantini aniqlang.


Berilgan topshiriqda "Uglevodorodlar" va "Kislorodli organik birikmalar"ning fizik xossalarga oid faktlarni o'zaro taqqoslashlari talab etiladi.

Berilgan ma'lumotlardan xulosalar chiqarishlari va o'z tushunchalarini yangi vaziyatlarga tatbiq etishlari zarur. Topshiriq konteksti boblararo integratsiyaga mo'ljallangan.

Ushbu vazifani sifatli bajarishni o'rgatish uchun quyidagi bosqichlarni ketma-ketlikda amalga oshirish tavsiya etiladi.



3-rasm. Organik birikmalarning qaynash harorati ularning molekulyar og'irligiga bog'liqligi



4-rasm. Mavzular integratsiyasi

I. O'quvchilar avval topshiriq kontekstidagi axborotni bilishi, ya'ni grafikdagi ma'lumotni o'qishni bilishi kerak.

O'quvchidan grafikda qanday ma'lumot keltirilganligi va 3 ta chiziq nimani anglatishi, vertikal va gorizontaal o'qda qaysi kattalik aks etganiga e'tibor berishi va grafikka qarab berilgan tasdiqlar nima uchun to'g'ri ekanligi haqida tushuncha berishini so'raladi.

- 1) birinchi egri chiziqli spirtlar;
- 2) spirtlar nisbiy molekulyar massasi 35 g/mol dan oshganda qaynash harorati 50°C dan ortadi;

- 3) ikkinchi egri chiziqli aldegidlar;
- 4) 60 g/mol nisbiy molekulyar massali aldegidlarning qaynash harorati 50°C dan ortadi;

- 5) spirtlar nisbiy molekulyar massasi 90 g/mol da qaynash harorati taxminan 150°C ga yetadi;

- 6) uchinchi egri chiziqli alkanlar;

- 7) nisbiy molekulyar massasi 60 g/mol aldegidlar 50°C dan yuqori haroratda qaynaydi;

- 8) 20 g/mol nisbiy molekulyar massali alkaning qaynash harorati 150°C .


Tavsiya:

1. Yuqoridagi tasdiqlar orasiga bir nechta noto'g'ri ma'lumot kiriting va o'quvchilardan ular orasidan to'g'ri tasdiqni topishini so'rang.


O'quvchilardan grafikni o'qib yuqoridagi berilgan tasdiqlardan yana boshqa yangi bir nechta ma'lumot aytib berishini so'rang.

- II. Grafikdagi ma'lumotni bilgan va tushungan o'quvchi mulohazaga doir topshiriqni bajarish uchun qo'llash ko'nikmasini shakllantirish bosqichiga o'tadi.

Grafikdagi ma'lumotni oson o'qish va



5-rasm. Organik birikmalarning qaynash harorati ularning molekulyar og'irligiga bog'liqligi



6-rasm. Organik birikmalarning qaynash harorati ularning molekulyar og'irligiga bog'liqligi


bilish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchilarga grafikda keltirilgan ma'lumotlarni qiyoslashi uchun savollar berilishi, yoki quyida keltirilgan tasdiqlar nima uchun to'g'ri ekanligini so'raladi.

1. Spirtlar aldegidlarga nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega;
2. Alkanlar molekulyar og'irligi ortishi bilan qaynash harorati ortadi;

3. Alkanlar, aldegidlar va spirtlar qaynash harorati molekulyar massasiga bog'liq;

4. Spirtlar alkanlarga nisbatan yuqoriroq haroratda qaynaydi;

5. Molyar massasi 60 g/mol ga teng alkan va aldegidning qaynash harorati bir xil emas.



7-rasm. Organik birikmalarning qaynash harorati ularning molekulyar og'irligiga bog'liqligi

Tavsiya:

1. Yuqoridagi tasdiqlar orasiga 3 ta guruhni taqqoslash bo'yicha bir qancha noto'g'ri ma'lumot kiriting va o'quvchilardan ular orasidan to'g'ri tasdiqni topishni so'rang.

2. O'quvchilardan fikrlash orqali yuqorida berilgan tasdiqlarga yana yangi boshqa bir nechta ma'lumot aytishini so'rang.

III. Bilish va qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchigina mulohaza qilish mahoratiga ega bo'ladi.

Mulohaza ko'nikmasini shakllantirishga doir savollarda bitta ma'lumot olish uchun turli mavzu va hatto bir nechta bo'limlar aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan:

1) har qanday organik sinfnig molekulyar og'irligi ortishi bilan qaynash harorati ortishi ular tarkibidagi uglerod atomlarining ortishi bilan bog'liq;

2) aldegidda molekulararo vodorod bog'lanish bo'lmaganligi sababli qaynash harorati spirtlardan pastroq;

3) aldegidda qaynash harorati alkanlarga nisbatan yuqori, chunki ularda molekulararo vodorod bog'lanish mavjud emas;

4) alkanlar, aldegidlar, spirtlar qaynash harorati molekulyar massasiga bog'liq bo'lib grafikdagi egri chiziq ortib boradi;

5) "spirtlar alkan va aldegidlarga nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega, bu vodorod bog'lari bilan bog'liq"[8].

Tavsiya:

1. Yuqoridagi tasdiqlar orasiga ma'lumotlarni talqin qilish bo'yicha noto'g'ri ma'lumot kiriting va o'quvchilardan ular orasidan to'g'ri tasdiqni topishni so'rang.

2. O'quvchilardan talqin qilish va mulo-

haza orqali yuqorida berilgan tasdiqlarga yana boshqa yangi bir nechta ma'lumotni kiritishni so'rang.

Demak, birinchi egri chiziq spirtlar, chunki ular alkan va aldegidlarga nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega, bu vodorod bog'lari bilan bog'liq.

Xulosa qismi

Har xil turdagi ma'lumotlardan foydalanish: matnlar, diagrammalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, videolar va boshqalar o'quvchilarning faol o'zaro munosabatda bo'lishiga, fikr almashishiga imkon beradi, bu esa berilgan ma'lumotni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Doimiy ravishda bilim diagnostikasini o'tkazish, o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha tushunish va izohlash vakolatlarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli vazifalar maktab o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini baholash, o'quvchilar bilimidagi kamchiliklar va xatolarni aniqlash, shuningdek, o'qituvchilarga o'qitish usullarini takomillashtirish va har bir o'quvchi bilan ishlash uchun to'g'ri strategiyani tanlashga yordam beradi.

O'quvchilarining tabiiy fanlarga tayyorlik darajasini oshirishda tabiiy fanlar darslarida qaror qabul qilish va amalga oshirish uchun ilmiy ma'lumotlarni izlash, baholash va ulardan foydalanish topshiriqlardan foydalanish metodikasi samaradorligini tasdiqlaydi.

Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini oshirish uchun diagnostika vazifalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning yanada samarali vektorlarini ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.
2. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?/ so'z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir D.Norboeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboeva. – Toshkent: "Zamin Nashr" nashriyoti, 2022 – 344 bet.
3. Ismailov A., Tog'ayeva G., S.Akbarova, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash. Qo'llanma. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi, 2019. – 112 b.
4. Qodirova, M. (2020). Zamonaviy pedagogika: kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
PISA – 2025 Science Framework, OECD, <https://pisa-framework.oecd.org/science-2025>
- OECD (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.
5. D.Davidova, I.Saibova, U.Alimuxamedova, S.Akbarova va b.q. "Loyihaga asoslangan ta'lim".// Toshkent 2024 yil, 219 bet.
6. Brown, T. L., LeMay, H. E., & Bursten, B. E. (2014). Chemistry: The Central Science (13th ed.). Pearson Education.

TARIX FANINI O'QITISHDA ENG ZAMONAVIY YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov,
*Termiz shahridagi Prezident maktabi
tarix fani o'qituvchisi, magistr*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishdagi eng zamonaviy yondashuvlar, ya'ni tarix fanini tadqiqotchilik asosida o'qitish, tarix fani mashg'ulotlarini loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvi asosida tashkil etish, tarix faniga oid sinfdan tashqari ishlarni sifatli amalga oshirish usullari, tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishning afzalliklari va o'quv mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyaviy metodlar o'rin egallagan. Ushbu yondashuvlar asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etilganda bolalarda jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash, kreativlik va shu kabi hayotiy ko'nikmalar rivojlanadi. XXI asr mehnat bozori qanday ko'nikmalarga ega mutaxassislarni kutmoqda? Tadqiqotlarga ko'ra, XXI asr mehnat bozorida muloqot va hamkorlik qilish, jamoaviylik, tanqidiy hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega kadrlarga ehtiyoj ortmoqda. Demak, bugungi kun ta'lim boshqaruvi ham, o'qitish-o'rgatish tizimi ham eskicha qoliplar bilan yuksak natijalarga erisha olmaydi. Shunday ekan, shaxs kamoloti yo'lida muhim ahamiyatga ega tarix fanining yangicha yondashuvlar bilan boyib borishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, loyihaviy topshiriqlar, metodik o'yinlar, pantamimo, etnik jarayonlar, shajara, kommunikativlik, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash.

**Методика использования самых
современных подходов в преподавании
истории**

Фазлиддин Шамсиддин угли Абдураимов,
магистр, учитель истории Президентской
школы города Термез

Аннотация: В данной статье рассмотрены наиболее современные подходы преподавания истории, а именно на основе научных исследований, организации проектного образовательного подхода, методов качественной реализации внеклассной деятельности, связанной с историей, преимущества интеграции истории с другими предметами, а также рекомендуемые методы, которые можно использовать во время учебных занятий. При организации образовательной деятельности на основе этих подходов у детей развивается умение работать в команде, развивается критическое мышление, творческие способности и другие жизненные навыки. Какие навыки ожидают рынок труда 21 века? Согласно исследованиям, рынок труда XXI века требует кадров, обладающих навыками общения и сотрудничества, работы в команде, критического и творческого мышления. Поэтому сегодняшняя система управления образованием и преподавания-обучения не может достичь высоких результатов по старым моделям. Поэтому желательно, чтобы историческая наука, важная для развития человека, обогащалась новыми подходами.

Ключевые слова: исследование, проектные задания, методические игры, пантомима, этнические процессы, генеалогия, общение, работа в команде, критическое мышление.

Methods for using the most modern approaches in teaching history

Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov,
History teacher of the Presidential school
in Termez, Master's Degree in History

Abstract: This article presents the most modern approaches to teaching History, focusing on several key techniques: teaching History based on research, planning and delivering lessons through a project-based learning approach, implementing high-quality extracurricular activities related to History, and integrating

History with other subjects. These methods aim to develop essential skills in learners, such as teamwork, critical thinking, creativity, and other life skills.

What skills does the 21st century labor market demand? In the 21st century labor market increasingly demands graduates with strong communication, cooperation, teamwork, critical and creative thinking, decision-making skills. As a result, traditional education methods are no longer sufficient to achieve high outcomes in the field of education management and teaching system. Consequently, it is crucial for the study of History as an important component of personal development, to be enriched with new approaches.

Keywords: research, project-based assignments, methodological games, pantomime, ethnic processes, genealogy, communication skills, teamwork, critical thinking.

Tarix – keng ma'noda odamzotning o'tmishi: kelib chiqishi, turmush tarzi, mashg'ulotlari; odamlar jamoasi-ning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti, kasb-kori haqida hikoya qiluvchi fandir. Shu bilan birgalikda, davlatlarning tashkil topish tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda tanazzul sabablarini ham o'rgatadi.

Termiz shahridagi Prezident maktabida tarix fanini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, voqealarni mantiqan tahlil qilish, o'z hayotida tasavvur qilib, kerakli xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beriladi. O'quvchilar dasrlikdagi mavjud ma'lumotlarni o'rganibgina qolmay, balki qo'shimcha adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan ham bilimlarini mustahkamlab boradilar. Qolaversa, bugun tarix fani ingliz tili, ona tili va adabiyot, geografiya hamda boshqa fanlar bilan integratsiya qilgan holatda o'rgatib borilmoqda.[8]

XXI asr mehnat bozori qanday ko'nikmalarga ega mutaxassislarni kutmoqda? Tadqiqotlarga ko'ra, XXI asr mehnat bozoriga **muloqot va hamkorlik qilish, jamoaviylik, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega** mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda. Demak, bugungi kun ta'lim boshqaruvi ham, o'qitish-o'rgatish tizimi ham eskicha qoliplar bilan yuksak natijlarga erisha olmas ekan [1].

Shunday ekan, bu kabi ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning, jumladan, tarix fanining ahamiyati beqiyosdir. Tarix tahlil qilishni, taqqoslashni va xulosa chiqarishni o'rgatadi. Istiqbolli g'oyalarning tug'ilishiga turtki beradi.

Demak, biz tarixchi ustozlar tarix fanini o'qitishning yangi yondashuvlarini o'zlashtirishimiz va o'zaro tajribalarinimizni bo'lishishni izchil yo'lga qo'yimog'imiz lozimdir.

TARIX FANINI TADQIQOTCHILIK ASOSIDA O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim – o'quv jarayonida asosan o'quvchi roliga urg'u beradigan ta'limiy yondashuv. O'qituvchi o'quvchilarga bilishi kerak bo'lgan narsalarni o'zi aytib berishi o'rniga, o'quvchilarni o'zlari mustaqil o'rganishlariga, savollar berishga va fikr almashishga undaydi.

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim o'rganishga turli yondashuvlardan, jumladan, muhokamalar qilish, kichik guruhlarda ishlash va aynan ma'lum bir yo'nalish bo'yicha o'rganishdan foydalanadi. O'quvchilar faktlar va ma'lumotlarni yodlash o'rniga, amalda o'rganadilar. Bu ularga tadqiqot, tajriba va munozaralar orqali bilimlarni shakllantirish imkonini beradi [6].

Quyida 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligidagi **"Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi"** mavzusi doirasida o'quvchilarga mustaqil topshiriq berib, o'z oilalari

shajaralarini tuzib kelishni so'rash va buni nazorat ishining bir qismi sifatida baholash mumkin. Bu orqali bola o'z bobo-buvisi, ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan muloqotga kirishadi va kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qolaversa, bu kichkina tadqiqot ishi bolani o'z oilasi tarixini yaqindan bilib, faxr-u iftixor tuyishga, kerakli xulosalar chiqarishga undaydi, shu bilan birga, bola bu ishni elektron tarzda bajarish orqali AKT savodxonligini ham oshirib boradi [4].


Ayni shu darslikdagi **"VI-VII asrlarda Turon xalqlarining madaniy hayoti"** mavzusini tadqiqotchilikka asoslanib tashkil etib ko'ramiz. Ya'ni sinf o'quvchilarini 3 ta guruhga bo'lib olamiz va ularga o'z guruhlarining yangi "alifbo"larini yaratib, uning asosida matn tuzishlari va shundan so'ng bir-birlarining matnlarini alishib, o'qishga harakat qilishlari so'raladi [6].

Xulosa shu bo'ladiki, o'quvchilar bu tadqiqotchilikka asoslangan amaliy-ijo-






7-sinf O'zbekiston tarixi darsligi doirasida tadqiqotchilik asosida bajarilgan o'quvchilarning oila shajaralari jadvali.

**Termiz shahridagi Prezident maktabining 7-“Blue” sinfio‘quvchisi Erkinov Isroilning tarix fanidan tayyorlagan mustaqil ishi
 “MENING AJDODLARIM”**



diy ish orqali alifbo xalqlarning uzoq yillar davomidagi aql-zakovat mahsuli ekanligini va unga katta mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kerakligini tushunib yetadilar [4].



TARIX FANI MASHG'ULOTLARINI LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Loyihaga asoslangan ta'lim – o'quvchilarning muammoni hal qilish uchun amaliy yechimlarni topish, loyihalash va ishlab chiqishini o'z ichiga oladi. Loyihaga asoslangan ta'limning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarni odatda kichik jamoalarda birgalikda ishlashga, qiyin yoki murakkab muammolarni hal qilish uchun ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Odatda, loyihaga asoslangan ta'limda o'quvchilar quyidagi bosqichlar asnosida ishlaydilar:

- Muammoni aniqlash;
- Muammoning yechimini topish yoki ishlab chiqish (ya'ni, yechimga qanday erishish mumkin?);
- Yechimning prototipini loyihalash va ishlab chiqish;
- Ekspertlar, o'qituvchilar va (yoki) tengdoshlarning fikr-mulohazalari asosida yechimni takomillashtirish [1].

O'quvchilarda loyiha ishini bajarish uchun tavsiya etiladigan loyiha taqdimoti shakllari:

- loyiha ishi bo'yicha yozma hisobot;


- loyiha yuzasidan ma'ruzaning ko'rgazmali taqdimoti;
- rasmlar, bukletlar ko'rgazmasi;
- intervyu namoyishi;

- sahna ko'rinishi;
- kinofilm namoyishi;
- referat himoyasi;
- maket tayyorlash;
- taqdimot tayyorlash;
- publitsistik yoki ilmiy maqola yozish;
- hikoya yozish;
- jadval, sxema tayyorlash.[1]

Quyida biz loyihaga asoslangan ta'lim asosida o'quvchilarga berilishi mumkin bo'lgan mustaqil topshiriqlarga misol keltiramiz. Ya'ni sinf o'quvchilari guruhlariga qur'a orqali bo'linadi va o'zlari o'rganayotgan tarixiy davr (qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr tarixi)ga daxldor bo'lgan imorat maketini yaratadilar. Buning uchun guruhlariga 2 hafta yoki 1 oygacha ham vaqt berilishi mumkin. Ushbu loyihaviy ish quyidagicha mezonlar asosida nazorat ishinin amaliy qismi sifatida baholanishi mumkin:

- maketning hajmi – 15 ball,
- maketning asliga o'xshashligi – 15 ball,
- maketni tayyorlashdagi kreativlik va yangicha yondashuv – 20 ball
- maketning ko'rinishi va dizayni – 15 ball,
- maket uchun ishlatilgan sifatli xomashyo – 20 ball,
- tarixiy obida haqida tomoshabinlarga yetarlicha ma'lumotlar bera olish – 15 ball.

Jami ball: 100.



TARIX FANIGA OID SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Sinfdan tashqari ishlar – umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi[5].



O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar, viktorina va ko'rgazmalar, turli ekskursiya-

lar, to'garak ishlari, mustaqil ishlar va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Ona-Vatan tarixini puxta o'rganish, uning porloq kelajagiga yuksak daxldorlik va muhabbat hissini shakllantirish maqsadida tarix fanidan 2 bosqichli **"USTOZ STIPENDIYASI"** ko'rik-tanlovini o'tkazish mumkin.

"USTOZ STIPENDIYASI" NIZOMI:

1. Tanlov 2 bosqichdan iborat bo'lib, savollar chorak davomida o'tiladigan mavzulardan tuziladi.
2. Tanlov darsliklar kesimida bo'lib o'tadi.
3. Maktabning har bir o'quvchisi nafaqat o'zi tahsil oladigan sinfi, balki boshqa sinflarning tanlovida ham ishtirok etishi mumkin.
4. Qancha ko'p sinflarda g'olib bo'lsan-



giz, shuncha ko'p sovringa ega bo'lishingiz kafolatlanadi.

5. Tanlovning 1-bosqichi 2-chorak oxirida, 2-bosqich esa 4-chorak so'ngida bo'lib o'tadi. 1-bosqichda I-II chorak mavzularidan; 2-bosqicha III-IV chorak mavzularidan savollar tuziladi.

6. Savollar test, yozma, amaliy va shunga o'xshash mantiqiy fikrlashga undovchi shaklda tuzilishi mumkin.



O'quvchilarning yozgi ta'tilini yana-da mazmunli o'tkazish maqsadida iyul-avgust oylarida tariz fanidan II bosqichli masofaviy olimpiada tashkillashtirilishi mumkin.

Tanlov Nizomi:

1. Tanlov 2 bosqichli bo'lib, har bir bosqich 100 ballda baholanadi. Jami: 200 ball.

2. 1-bosqichda ma'lum bir darslik doirasida 25 dona test sinovi bo'lib o'tadi. Ushbu testlarning kamida 15 tasiga to'g'ri javob bergan o'quvchilar 2-bosqichga yo'llanma oladilar. Test sinovi savollari masofaviy to'garak guruhiga yuboriladi va o'quvchilar 20 daqiqa ichida (javoblarni rasmga olib yuborish bilan birga) ruchka bilan belgilangan qog'ozni sifatli rasmga olib, yana shu guruhga yuborishi talab etiladi.

3. 2-bosqich MASOFAVIY, VIDEO ALOQA ko'rinishida bo'ladi.

4. Ma'lum bir darslik doirasidan tuzilgan tezkor 10 ta savolga og'zaki javob berish – 20 ball;



5. Darslikdagi siz uchun ideal davlat qaysi va nega? Uning qaysi yutuqlarini Vataningizda joriy etgan bo'lardingiz? (Ol-



dindan ma'lumot tayyorlab, og'zaki javob berish kerak) – 20 ball.

6. Siz yashaydigan tuman yoki mahallada joylashgan tarixiy obida-yodgorlik haqida mukammal taqdimot. Sharti: taqdimotni o'zbek va ingliz tilida tayyorlash talab etiladi. Taqdimotda o'zingizning yodgorlikka borgan rasm va videolaringiz bo'lishi talab etiladi. O'zbek va ingliz tilidagi ma'lumotlar to'g'ridan to'g'ri ko'chirilishi mumkin emas. Ma'lumotlar ikki tilda ham bir xil bo'lishi va foydalangan manbalaringiz ko'rsatilgan holda shaxsan o'zingiz tominingizdan tarjima qilingan bo'lishi talab etiladi – 20 ball.

7. Darslikdagi siz uchun ideal shaxs kim va nega? – 20 ball.


8. Darslikdagi biror bir tarixiy jarayon, voqeani tasavvur qiling va shaxsan o'zingiz rasmini qog'ozga chizing va izohlab bering. Darslikdagi rasmlardan foydalanish mumkin emas – 20 ball.

9. Bonus ball – 5 ballgacha. Erkin mavzu.



5-sinf tarixdan hikoyalar darsligining **“BMT va dunyo bolalari”** mavzusi asosida **“Bola huquqlari to'g'risida”**gi Konvensiya moddalarini o'zida aks ettirgan rasmlar ko'rgazmasini tashkil etish mumkin.

Ushbu ko'rgazma maktabning 5-sinf o'quvchilarining tarix fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, bunda bolalar Konvensiya moddalarini rasmlarda tasvirlashga hamda har bir moddaning mazmunini ochib berishga harakat qiladilar.[3]



Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan o'tkazish mumkin bo'lgan “Amir Temur va Temuriylar davri bilimdoni” tanlovining nizomi bilan tanishing:

Tanlov 8-sinflar o'rtasida o'tkaziladi.

1. Guruhga nom qo'yiladi va sharhlanadi, shior tanlanadi – 10 ballgacha;

2. Amir Temurga atalgan she'r aytish – 5 ballgacha;

3. Amir Temur haqida xorij tilida (ingliz, rus va boshqa) ma'lumotlar aytish – 5 ballgacha;

4. Amir Temur va Temuriylar davri hamda **“Temur tuzuklari”**dan tuzilgan savollarga javob berish. “Zakovat” o'yini shaklida. 20 ta savol – 20 ballgacha;

5. Sahna ko'rinishi - 30 ballgacha;

6. Sardorlar bellashuvi. Xotira jangi. Eng ko'p ma'lumotlar aytish – 10 ballgacha;

7. Guruhlar o'rtasida o'zaro savol-javob. Sinflar bir-biriga 10 ta savol berishlari mumkin – 10 ballgacha;

8. Amir Temur haqida darsliklardan tashqari ma'lumotlar aks etgan taqdimot – 10 ballgacha;

9. Erkin mavzu – 10 ballgacha;

10. Yoddan Amir Temur hikmatlarini eng ko'p aytib bergan o'quvchi – 20 ballgacha.

Jami: 130 ball.

Barcha jamoalarga omad tilaymiz.


TARIX FANINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRASIYA QILISHNING AFZALLIKLARI

Zamonaviy ta'limda **fanlararo integratsiya** turli fanlar va sohalarni bir-biriga bog'lash orqali o'quvchilarga qulaylik yaratishni maqsad qiladi. Bu integratsiya usullari o'quvchilarga turli fanlarni birga o'rganish, masalalar va muammolarga integratsiyalashish orqali tushunchalarini kengaytirish va ularning fikrlarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu usullar o'quvchi uchun ko'nikmalarni birlashtirib, ulardagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Integratsiya (lotin tilida *integratio* – tiklash, to'ldirish, *integer* – butun so'zidan kelib chiqqan). Bu so'z bir necha ma'nolarda o'z funksiyasiga ega. Ammo ayni pedagogik ta'limdagi o'rni fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayonini anglatuvchi tushuncha ma'nosida yoritiladi.[1]

Nazorat ishi (BSB)larning ma'lum qismini ingliz tili fani bilan hamkorlikda ham amalga oshirish mumkin. Quyidagi misolda har bir o'quvchi 7-sinf O'zbekiston tarixida keltirilgan buyuk allomalarimiz hayoti va

ijodiga oid ma'lumotlarni ingliz tilida taqdim etadilar. Darsga taklif qilingan ingliz tili fani o'qituvchisi bolani tinglab, uning ingliz tilida tarixiy bilimlarni bayon eta olishiga baho beradi.



O'QUV MASHG'ULOTLARIDA QO'LLASH MUMKIN BO'LGAN TAVSIYAVIY METODLAR

1. "Qaynoq mikrafon" – ushbu metod oldingi mavzuni takrorlashda yoki yangi

Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilgan holda o'qitishning bir qancha afzalliklari mavjud. Bular:

1. Keng qamrovli tushuncha shakllanishi: tarixni boshqa fanlar, masalan, geografiya, adabiyot, san'at yoki iqtisodiyot bilan birgalikda o'qitish, o'quvchilarga voqealar va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: tarixni boshqa fanlar bilan bog'lash o'quvchilarda turli nazariyalar, tafakkur usullari va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, tarixni adabiyot bilan birlashtirib, o'quvchilar voqealarni turli badiiy nuqtayi nazardan tahlil qilishadi.

3. O'quvchilarning qiziqishini oshirish: Fanning integratsiyasi o'quvchilarni mavzularga yana-da kengroq jalb qiladi. Tarixni faqat faktlar va sanalar orqali emas, balki boshqa fanlar bilan bog'lab, masalan, san'at asarlari yoki tarixiy filmlar orqali o'qitish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzularni chuqurroq o'rganishga yordam beradi [7].

Umuman olganda, tarixni boshqa fanlar bilan integratsiya qilgan holda o'qitish o'quvchilarga har bir fanning o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam beradi va ularni turli nuqtayi nazarlardan fikr yuritishga o'rgatadi.

o'tilgan mavzuni mustahkamlashda samarali hisoblanadi. Ustoz ixtiyoriy 5 tagacha o'quvchilarni doska qarshisiga taklif qiladi va o'yin shartlari bilan tanishtiradi: "Hurmatli o'quvchilar, qo'limda "qaynoq" mikrafon turibdi, hozir ushbu mikrafonni qo'lingizga olasiz va mavzu bo'yicha bir dona ma'lumot aytasiz va keyingi o'quvchiga mikrafonni uzatasiz. Ammo ehtiyot bo'ling, mikrafon juda ham "qaynoq". Men 5 gacha sanagunimcha ma'lumot ayta olmay, mikrafonni ushlab qolsangiz, qo'lingiz "kuyadi" va siz o'yinni takr etasiz".

2. "Kursi egasi" – ushbu metod ham o'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun samarali hisoblanadi. Sinf 3 ta guruhga bo'linadi va har bir guruhdan vakillar taklif qilinadi hamda o'quvchilarga shart tushuntiriladi: "Bolajonlar, ushbu kursi sehrli hisoblanib, kim unga ko'proq o'tira olsa, barcha orzulari ro'yobga chiqadi. Uni egallash uchun mavzuga doir bir dona ma'lumot aytasiz va kursini egallaysiz, ammo keyingi o'quvchi ma'lumot ayta olsa, siz kursini unga bo'shatib berishga majbur bo'lasiz. Agar 5 gacha sanagunimcha ma'lumot ayta olmasangiz, o'yinni takr etasiz. Kursini eng ko'p egallagan o'quvchi o'yinimiz g'olibiga aylanadi."

3. "Tarix tilga kirganda yoxud meni top"

– ushbu metod darsingizni nihoyatda zavqli bo'lishini ta'minlay oladi va bolalarga quvvat ulashib, ularni faol harakatlantiradi. O'quvchilarga qirqilgan qog'oz parchalar tarqatib chiqiladi va shunday ko'rsatma beriladi: “Qani, bolajonlar, sizga 3 daqiqa vaqt bera-man va bu vaqt ichida siz 3 dona savol tayyorlaysiz. Ammo savolni shunchaki bayon qilmaysiz, balki savolingizda yashiringan obyektga aylanib, uning tili bilan savolni berasiz. Siz narsa, joy, shaxs yoki voqea bo'lishingiz mumkin. Masalan, quyidagi-cha savol berishingiz mumkin: *men hayot-ligimdayoq o'zim uchun maqbara qurdirgan-man, maqbaramni qurish uchun 720 ming kishi mehnat qilgan, mening maqbaram Misr piramidalari bilan hashami va go'zalli-gi jihatidan bellasha oladi. Men kimman?*” O'tirgan yoki maxsus tanlangan o'quvchi-(lar) “Siz Sin Shixuandi hisoblanasiz”, deb javob berishlari mumkin” [2].

4. “Qo'shilaman-qo'shilmayman” – bu o'quvchilar uchun juda ham zavqli o'yin sanaladi. Ochiq havoga bolalarni olib chiqib, tashkil etish mumkin. Bunda o'qituvchi bob bo'yicha o'tilgan mavzularga oid bir dona fakt aytadi. Fakt xato yoki to'g'ri bo'lishi mumkin. O'quvchilar bu ma'lumotni to'g'ri deb bilishsa, **“Qo'shilaman”** deb oldin-ga qadam tashlaydi. Agar ma'lumotni xato deb bilishsa, **“Qo'shilmayman”** deb joylari-da qolishadi.

5. “Tarixiy shaxslar uchrashganda” – bu metoddan foydalanish ham hayajonli, ham tabassum ulashuvchi hisoblanadi. Masa-lan, siz “Buxoro amirligida mang'itlar hukm-ronligi” mavzusini yoki shu sulolaga oid bir nechta mavzularni o'tib bo'lgach, o'quvchi-larni juftliklarga bo'lib chiqasiz va har birlari shu sulola hukmdorlaridan bir kishidan tan-lab oladi va o'zlarini shu inson deb tasavvur qilishlari kerak bo'ladi. Ustoz o'quvchilar-ga 5 daqiqa tayyorlanib, takrorlab olishlari

uchun vaqt beradi. Shundan so'ng 2 nafar o'quvchi doskaga taklif qilinadi va ular gal-ma-gal o'zlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni aytib, bir-birlariga maqtanadilar, mag'rurlanadilar, shundan so'ng esa bir-bir-larining kamchiliklarini ham aytib, tanqidga ham o'tishlari mumkin. O'yin oxirida o'quv-chilardan jarayondan qanday xulosa chiqar-ganliklari so'raladi.

6. “Tarix sahnada jonlanganda yoxud pantamimo” – bu metoddan bir bobni tugallaganingizdan so'ng mavzularni mus-tahkamlash uchun qo'llashingiz mumkin. Bunda bolalar navbat bilan doska qarshi-siga chiqib, biror tarixiy jarayonni so'zssiz qo'l, oyoq, gavda va yuz ifodalarini harakat-ga keltirib, tasvirlab berishga harakat qiladi-lar, qolgan o'quvchilar esa javobni topishga harakat qiladilar.

7. “Turistni jalb qil” – ushbu metoddan bir nechta davlat mavzularini o'tganingiz-dan so'ng mustahkamlash uchun foydala-nishingiz mumkin. Bunda o'quvchilar juft-liklarga bo'lib chiqiladi va ular 2 xil davlat tanlaydilar. Sinfga mehmon ustoz taklif qilinadi. Bolalarning har biriga turli rangda-gi chipta beriladi. Bolalar o'zlari tanlagan davlat haqida galma-gal tavsif berib, “turist” – mehmon ustozni o'sha davlatga sayohat qilishga undaydilar. Belgilangan vaqt tuga-gach, “turist” bolalarning qo'lidagi chiptalar-dan bittasini tanlashi kerak bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, turist tanlagan chipta egasi o'z davlatini qiziqarli qilib bayon qilgan bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, tarix fanini o'qitishdagi zamonaviy yon-dashuvlar o'quvchilarga tarixiy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi va ularni tahliliy fikrlash, tadqiqotchilik va ijodkorlikka yo'naltiradi. Tadqiqotchilik yon-dashuvi orqali o'quvchilar mustaqil fikr va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Loyihaga asoslangan yondashuv o'quv-

chilarga o'z fikrlarini ifodalash va guruhda ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar tarixiy voqealarni turli usullarda o'rganadilar va buni o'z hayotlariga tatbiq qilishni o'rganadilar. Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va ular tarixiy jarayonlarni turli fanlar doirasida ko'rishadi. Tarixni integratsiyalashgan holda o'qitish o'quvchilarda ilmiy-ijodiy fikrlash va keng qamrovli dunyoqarashni shakllantiradi.

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy

yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotchilik, loyihaga asoslangan ta'lim, sinfdan tashqari ishlar va tarixni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish metodlari o'quvchilarni faol o'rganishga, tarixiy voqealarni ko'proq his etib tushunishga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar o'quvchilarda zamonaviy bilim olish, yaratish va jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Artikova M., Xodjayev B., Sattorov Sh. va boshq. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (ijtimoiy-gumanitar fanlar): metodik qo'llanma. Respublika ta'lim markazi. – Toshkent: 2021. 148 b.
2. Sagdullayev A., Kostetskiy V. Qadimgi dunyo tarixi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: 2022. – 192 b.
3. Tarixdan hikoyalar: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/U. Jo'rayev [va boshq.]; mas'ul muharrir O'. Mavlonov. – Toshkent: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2020. – 184 b.
4. Ismatova N. O'zbekiston tarixi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. Birinchi nashr. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – O'zbekiston Respublikasida chiqarilgan 12 jildli universal milliy ensiklopediya.
6. Thomas J.W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. Autodesk Foundation. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED438749.pdf>
7. www.ziyonet.uz
8. www.edu.uz

CHET TILINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING LUG'AT BOYLGINI OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Tuymayeva Xurshidabonu Xurramovna,
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani
190-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarni o'rgatishda, maktablarda lug'at boyligini rivojlantirish darslarini tashkil etishda keng qo'llaniladigan tavsiyalar beriladi. Mazkur texnika va tavsiyalarining asosiy mohiyati til o'rganish jarayonini yanada yorqin va qiziqarli tashkil etish va o'quvchilarni o'rganilayotgan tilda tezroq muloqot qila olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, ingliz tili lug'at boyligini rivojlantirish darslari jarayonida muvaffaqiyatli joriy etish uchun amaliy bosqichlar, ularni rejalashtirishda foydalaniladigan vositalar va texnologiyalar haqida ham ma'lumotlar taqdim etiladi. Maqoladagi tajribalar asosida berilgan tavsiyalar uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda o'quvchilarda so'z yodlash texnikasini rivojlantirish uchun ishlatiladigan samarali texnikalar haqida ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi bo'limda esa leksika darslarini tashkil qilish va rejalashtirishga oid ko'rsatmalar berib o'tilgan. Uchinchi bo'limda esa gapirish ko'nikmasini shakllantirishda katta yordam beradigan o'yinlardan namunalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: lug'at boyligi, so'z yodlash texnikasi, leksik o'yinlar, o'quv jarayoni, xorijiy tilda muloqot, gapirish ko'nikmasi.

**Преимущества увеличения словарного
запаса учащихся при обучении
иностранному языку**

Туймаева Хуршидабону Хуррамовна,
преподаватель английского языка
190-й школы в Мирзо-Улугбекском районе
города Ташкента

Аннотация: В этой статье представлены рекомендации, которые широко используются при обучении иностранным языкам и организации уроков по развитию словарного запаса в школах. Основная цель данных техник и рекомендаций – сделать процесс изучения иностранного языка более ярким и интересным, а также развить у учеников способность уверенно общаться на изучаемом языке. Кроме того, в статье представлены практические этапы для успешного внедрения уроков по развитию словарного запаса английского языка, а также средства и технологии, которые используются при планировании таких уроков. Рекомендации, основанные на личном опыте, разделены на три части. В первой части приведены техники, которые используются для развития навыков запоминания слов у учеников. Во второй части даны указания по организации и планированию уроков по лексике. В третьей части приведены примеры развивающие игры, которые значительно помогают в формировании навыков разговорной речи.

Ключевые слова: словарный запас, техника запоминания слов, лексические игры, учебный процесс, общение на иностранном языке, навыки говорения.

The advantages of increasing students' vocabulary when teaching a foreign language

Tuymayeva Xurshidabonu Xurramovna,
Teacher of English language at school number
190 in Mirzo-Ulugbek district Tashkent city

Abstract: This article discusses and recommends many useful methods and techniques for the development of vocabulary learning skills in teaching foreign language effectively at schools. The main purpose of the recommended techniques is to support teachers for making the learning and teaching process more

interesting, and to make it easier for the reader to understand the language of communication in the language of communication. In addition, the article presents practical steps for the successful implementation of vocabulary development lessons in English, as well as the tools and technologies used when planning such lessons. The recommendations in the article are based on recent background practice and they consist of four points. In the first section, information is given about the techniques that are used to improve vocabulary learning techniques. The second section provides information on how to set and organize the vocabulary lessons. In the third section, there will be given some examples and instructions of games which can boost speaking skill.

Keywords: learning vocabulary, vocabulary lessons, techniques, vocabulary games, communication, speaking skills.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida yangi liklar va innovatsion yondashuvlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. O'quvchilarni faqat an'anaviy dars shakllariga emas, balki ularning bilim olish jarayoniga mustaqil va interaktiv yondashuvlarni qo'llashga undovchi metodikalar kerak. 2024-2025-o'quv yilida chet tili fanlari haftalik dars yuklamalariga o'zgartirishlar kiritildi. Shuning natijasida 5-,6-sinflarda haftalik yuklama 3 soatdan 4 soatga oshirildi. Bunda ko'proq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish nazarda tutildi. Chunki aynan shu yoshdagi bolalarda yangi bir tilga oid so'zlarni yodlash va fikrlarini bayon qilish uchun ularni ong'li ravishda qo'llay olish samarali amalga oshadi.

Ko'pincha biz, chet tili o'qituvchilari so'z boyligini oshirish darslarida lingvistik o'yinlardan foydalanamiz. Chunki ular yordamida o'rganilayotgan tildagi so'zlarni grammatik struktura asosida to'g'ri qo'llay olish, ularni osonroq yodlab muloqot jarayonini tezroq rivojlanishiga erishishimiz mumkin.

Bugungi kun o'quvchisi biror grammatik qoidaga asoslangan zerikarli mashqni yozma bajarishdan ko'ra, uni amalda qo'shimcha mavzuga doir so'zlar bilan qoidalarga ko'ra gaplar tuzib, fikrini bayon qilib yoki muloqotga kirishib amaliy ish bajarishni afzal ko'radi. Ammo bu jarayon oldindan rejalashtirilgan, tartibli hamda o'qituvchi nazorati ostida bo'lishi kerak.

Maqsadli bo'lgan har bir o'yin yoki lug'at yodlash texnologiyasi 3 bosqichdan iborat: *yod olish, o'zlashtirish va muloqotda qo'llash*. O'qituvchi har bir sinf yoki o'quvchining salohiyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda bu bosqichlarni tashkil qilishi mumkin. Bu tavsiyalar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va umumiy ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Ko'pchilik o'quvchilar grammatikani a'lo darajada bilsada, chet tilida gaplashishga, muloqotga kirishishga qiynaladi. Buning asosiy sababi esa so'z boyligining yetarli

emasligidir. Ingliz tilidagi so'zlarni yodlashda o'quvchilarga yordam beradigan bir nechta samarali texnikalar mavjud. Quyida ba'zi oson va samarali usullarni keltiraman:

1. **O'qish va takrorlash:** so'zlarni o'qigandan keyin, ularni takrorlash. Takrorlash orqali xotira mustahkamlanadi. So'z kartochkalari (Flashcards) samarali vositalardan biri bo'lib, bunda so'zlar va ularning tarjimalarini yoki ta'riflarini kartochkalarga yozib, ularni tez-tez ko'rib chiqish o'quvchilarni eslab qolishga yordam beradi. Har safar kartochkalarni ko'rib chiqqanda so'zlar yanada mustahkam yodda qoladi.

2. **Vizualizatsiya:** so'zlarni tasavvur qilib, ularning ma'nosi bilan bog'liq rasm yoki sahnalarni tasavvur qilish yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. O'quvchilar so'zni tasavvur qilgan holda, uni biror narsa bilan bog'lab misol keltirishlari ham mumkin. Masalan, "magazine" so'zini o'rganayotganda, o'quvchilar qo'lga jurnal tutqazish yoki uning rasmini ko'rsatish bu so'zni eslab qolishga yordam beradi.

3. **Asosiy so'zlar:** yangi so'zlarni bog'liq asosiy so'zlar yoki frazalarga o'rnatish. Bu so'zlar orqali yangi so'zlarni yodlash osonlashadi. Masalan: "cycle"(V) "circle"(adj) "cycling" "bicycle"(N) "encyclopedia"(N) yoki "Beauty"(N), "beautify"(V), "beautiful"(adj), "beautifully"(adv).

4. **Misollar bilan ishlash** (Use words in sentences): yangi so'zlarni gaplarda yoki hikoyalarda ishlatib ko'ring. So'zlarni hikoyalar yoki jumalarda ishlatish, hayotiy misollar tuzish orqali ular tezroq qabul qilinadi. Ya'ni o'quvchilar yangi so'zni yodlashda uni yangi jumalarda ishlatishga harakat qilishlari kerak. Bu so'zni kontekstdan foydalanib yodlashni osonlashtiradi.

5. **So'zlarni guruhlariga ajratish (Chunking):** o'xshash yoki bog'liq bo'lgan so'zlarni bir guruhga ajratish. Masalan, oila a'zo-

lari, tana a'zolari, tabiat, musiqa, sayohat kabi guruhlar. Aksariyat hollarda o'quvchiga qiziq bo'lgan so'zlar yoki mavzularni yodda qolishi osonroq bo'ladi. Albatta bunda o'rganuvchining ehtiyojlari va darajasi inobatga olinishi kerak bo'ladi.

6. **Grammatik ko'rsatma:** yangi so'zlarni grammatik qoidalar bilan birga o'rganing. Bu ularning ishlatilishini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Grammatikani tushuntirishda tayyor qoidani bermasdan, uni o'quvchilarning o'zlari yaratishlarini(indirect method) yo'lga qo'ygan afzal. Masalan: "I enjoy reading", "I enjoy to read in the evening" jumllarini doskaga yozaman va ulardan gaplarning farqini so'rayman. Shundan so'ng "enjoy" so'zidan keyin fe'lning otlashgan shakli gerundiy yoki infinitivni ishlatish uchun qoidani tushuntirib beraman.

7. **Mobil ilovalar:** lug'at ilovalari yoki yodlash ilovalaridan foydalanish. Tabiiyki, texnika jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi davrda o'quvchilar ham gadjetlarga qiziqishadi. "Word up", "7 little word", "Duolingo", "AnkiDroid", "Wordwall", "Wordshake" kabi bir qator ilova va online o'yinlar yordamida nafaqat so'zlarni oson o'rganish, balki gadjetlardan to'g'ri va samarali foydalanish mumkin. Bu funksiyalar orqali so'zlarni o'rganishingizni osonlashtiradi.

8. **Tartibli takrorlash (Spaced repetition):** bu usulda, o'quvchi o'rganilgan so'zlarni ma'lum muddatlarda qayta ko'rib chiqadi. Dastlab, tez-tez takrorlash, so'ng-esa orada bir necha kun yoki haftalarda qayta takrorlash so'zlarning uzoq muddatli xotirada qolishiga yordam beradi.

9. **Birlashma va "mnemonik" (Mnemonic devices):** o'xshash tovushli yoki ma'nodagi so'zlar bilan biror eslab qolish qoidasi yaratish. Masalan, ingliz tilida "rainbow" (kamalak) so'zini yodlashda har bir harfni o'ziga xos narsalar bilan bog'lab,

eslab qolish mumkin (Red, Orange, Yellow, Green, Blue, Indigo, Violet). YokiPush / push/ - itarmoq. Bu soʻz uchun oʻzbekcha “Po’sh-po’sh!”ni tanlaymiz. Yana bozorni eslaymizda u yerda aravakash “po’sh-po’sh” deb aravani itarib ketayotganini tasavvur



qilamiz. Fonetik oʻxshashlik: a voice – ovoz, a dish – idish, candelier – qandil, to chop – chopmoq, candy – qand.

10. Lugʻat daftar tutish (Journaling): lugʻat daftari – har qaysi tilni oʻrganayotgan inson tutishi lozim boʻlgan yordamchi vositadir. Koʻpchilikning lugʻat daftari zerikarli, beʼtibor, tartibsiz boʻladi. Oʻquvchilar bunday tartibsizlik yangi soʻzlarni eslab qolishga salbiy taʼsir koʻrsatishi haqida oʻylab ham koʻrmaydi. Lugʻat daftarida turli xil rangdagi ruchkalardan foydalangan maʼqul. Lugʻat tutishdagi eng katta xato bir xil rangli ruchka ishlatishdir. Tasavvur qiling, lugʻatdagi hamma soʻzlar koʻk rangda yozilgan, ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi, manzara naqadar zerikarli! Aynan shundan keyin bola oʻqishdan zerikadi-da. Oʻquvchining ijodkorlik xususiyati pasayib ketadi. Natijada esa miyamiz zerikkan narsaga eʼtibor qaratishni xohlamaydi. Har kuni yangi soʻzlarni va jumalarni yozib borish, ularni oʻz fikrlaringizni ifodalash uchun ishlatish ham samarali usul boʻlishi mumkin.

Ushbu usullarni birlashtirib, oʻzingizga mos keladigan metodni tanlashingiz mumkin. Shu texnikalardan foydalanish orqali

oʻquvchilar ingliz tilidagi soʻzlarni yanada samarali yodlashlari mumkin.

Maktabda lugʻat darslarini rivojlantirish, oʻquvchilarni jalb etadigan va ularning til koʻnikmalarini oshiradigan tizimli yondashuvni yaratishni oʻz ichiga oladi.



Oʻyin jarayonini tashkil qilish.

Oʻyinlarning ikki turi mavjud: musobaqali va jamoaviy. Musobaqali oʻyin turida oʻquvchi, juftlik yoki jamoalar gʻoliblik uchun harakat qilishsa, jamoaviy oʻyinlarda guruhlar berilgan vazivani tugallash maqsadida birga ishlashadi.

Faoliyat turiga koʻra oʻyinlar asosan juftlik, kichik guruhlar va butun sinf ishtirokida tashkil qilinadi. Sinf partalarini imkon boricha П shaklida qoʻygan maʼqul. Chunki barcha turdagi oʻyin jarayoni tashkil qilish uchun qulay hisoblanadi. Yaʼni, juftlik, toʻrtlik va boshqa muqobil guruhlarini oson tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda juftlik va kichik guruhlarda oʻrindiqlarni bir biriga qaratib yoki ichkaridan tashqariga olib qarama qarshi oʻtirib ishlashlari mumkin. Butun sinf mashgʻulotlarida ham oʻquvchilar erkin harakat qila olishadi.

Oʻyinlarni uzoq tushuntirish bilan emas, balki namoyish qilish orqali oʻrnatish yaxshiroqdir. Oʻqituvchi oʻyin nimani oʻz ichiga olishini qisqacha tushuntirishi, nusxa koʻchirilgan kartochkalarni tarqatishi, oʻquvchilarga ularni oʻrganish uchun ozgina vaqt berishi, soʻngra sinf oldida oʻquvchilardan

biri bilan o'yinni namoyish qilishi kerak. O'yin g'oyasini o'quvchilar og'zaki tushuntirishdan ko'ra kartalarni ko'rish orqali tushunishlari osonroq ekanligi va ular o'yin g'oyasi va foydalanilgan texnikalar bilan ko'proq tanishishlari aniq bo'ladi. notanishlikdan kelib chiqqan har qanday dastlabki muammolar tezda yo'qoladi [1].

instruct	to teach	concern	feeling of worry
afraid	a thing that you do often	calm	not get excited or upset
frequently	it happens often	behave	to act in a particular way
expect	you believe it will happen	avoid	to stay away from smth
content	to be happy and not want more	appropriate	it is right or normal

1. Word Association (So'zlarni bog'lash)

Maqsad: yangi so'zlarni yodlash va ularni kontekstda ishlatish.

Qanday o'ynash: o'qituvchi birinchi so'zni aytadi. Masalan, "school", o'quvchilar esa shu so'zni eslab, unga bog'liq bo'lgan boshqa so'zni aytishi kerak. Masalan, "teacher", "study", "homework" va hokozo. Bu



Kichkina guruhlarda murakkabroq karta o'yinlari o'ynaladigan bo'lsa, o'qituvchi har bir guruh o'quvchilariga karta(lar) bilan birga nusxa ko'chirilgan qoidalar varag'ini topshirishi yoki jarayonni misol tarzida o'zi ko'rsatib berishi tavsiya etiladi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan ingliz tili darsida o'yin jarayonini tashkil etish, darsni qiziqarli va samarali qilishda juda foydali bo'lishi mumkin. O'yinlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularga yangi ma'lumotlarni qiziqarli tarzda o'rganishga yordam beradi va o'zaro raqobatni yaratadi. Quyida ba'zi o'yinlar va metodlar keltirilgan, ular o'quvchilarning ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi:

o'yinni juftlik yoki kichik guruhlarda ham tashkil qilish mumkin.

Foydasi: bu o'yin so'z boyligini oshirish va so'zlarni kontekstda ishlatishni o'rgatadi.

2. Charades (Harakatlar bilan tasvirlash)

Maqsad: ingliz tilidagi so'z va iboralarni tushunish va ifodalash.

Qanday o'ynash: o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga bir nechta so'z yoki iboralar yozilgan kartochkalar beriladi. O'quvchi bitta kartochkani oladi va o'zi gapirmasdan, faqat harakatlar orqali so'zni boshqalarga tushuntiradi. Boshqa o'quvchilar esa bu so'zni topishga harakat qilishadi.

Foydasi: soʻzlarning maʼnosini tushunish va ularni tasvirlash orqali oʻqish va tinglash koʻnikmalarini rivojlantiradi.

3. Pictionary

Maqsad: ingliz tilida soʻzlarni tasvirlash va tushunishni rivojlantirish.

Qanday oʻynash: oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi. Bitta guruh aʼzosi tasvirni chizadi, boshqa guruh aʼzolari esa bu tasvirga asoslanib, soʻzni topishga harakat qilishadi. Tasvirni faqat chizish mumkin, soʻzlar ishlatilmaydi.

Foydasi: bu oʻyin soʻzlarni vizual ravishda eslab qolish va tilni amaliyotda ishlatish imkoniyatini beradi.

4. Scrabble (Ingliz tilida soʻzlar qurish)

Maqsad: soʻz boʻyligini oshirish va yozma koʻnikmalarni rivojlantirish.

Qanday oʻynash: oʻquvchilar turli harflardan iborat boʻlgan kartochkalarga ega boʻlib, soʻzlar yaratishadi. Har bir soʻz uchun ballar beriladi va eng koʻp ball toʻplagan oʻquvchi gʻolib boʻladi. Foyda: Bu oʻyin soʻzlarni toʻgʻri yozish va ularni yaratish koʻnikmalarini rivojlantiradi.



5. 10 Questions (10 savol) yoki "Who am I?"

Maqsad: ingliz tilida soʻzlarni aniqlash va savollarni tuzish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Qanday oʻynash: oʻquvchilardan biri bir predmet yoki narsa tanlaydi va boshqa oʻquvchilar unga faqat "ha" yoki "yoʻq" deb

javob berishlari mumkin boʻlgan savollarni berishadi. 10 savoldan keyin predmetni topishlari kerak.

Foydasi: Bu oʻyin oʻquvchilarga toʻgʻri savollar berish va javoblarni tushunish koʻnikmalarini oʻrgatadi.

6. Story Cubes (Hikoya kublari)

Maqsad: ingliz tilida ijodiy fikrlash va yozma koʻnikmalarni rivojlantirish.

Qanday oʻynash: oʻquvchilar bir nechta "hikoya kublari"ni (har biri turli tasvirlar bilan belgilangan) tashlaydilar va har bir tasvirni asos qilib olib, qisqa hikoya yaratadilar. Oʻquvchilar tasvirlarni birlashtirib, hikoya yaratishlari kerak.

Foydasi: bu oʻyin oʻquvchilarga ingliz tilida hikoya qilish va oʻz fikrlarini ifodalashni oʻrgatadi.

7. Bingo (Inglizcha Bingo)

Maqsad: soʻzlarni eslab qolish va tahlil qilish.

Qanday oʻynash: oʻquvchilarga Bingo kartalari tarqatiladi, bu kartalar turli inglizcha soʻzlar yoki iboralaridan iborat. Oʻqituvchi soʻzlarni oʻqiydi, oʻquvchilar esa bu soʻz-



lar kartalarida bormi-yoʻqligini tekshirib, shartli tarzda bingo ni toʻldirishga harakat qilishadi.

Foydasi: soʻzlarni tez va aniq tanish va eslab qolish koʻnikmalarini oshiradi.

8. Hot Potato (Issiq kartoshka)

Maqsad: ingliz tilida tez va toʻgʻri javob berishni oʻrgatish.

Qanday o'ynash: o'quvchilar doira hosil qilib o'tiradilar. Biror inglizcha savol beriladi va savolga javob berish uchun "issiq kartoshka"ni o'qituvchi beradi. O'quvchilar kartoshkani olishi bilan javob berishlari kerak, javob bo'lmasa, o'zidan keyingi o'quvchiga kartoshkani tezgina uzatishi mumkin.

Foydasi: Bu o'yin o'quvchilarga ingliz tilida tez va aniq javob berishni o'rgatadi.

Bu o'yinlar orqali o'quvchilar ingliz tilida nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. Darsni qiziqarli va samarali qilishda o'yinlardan foydalanish, o'quvchilarni faol va ishtirok etishga undaydi.




Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bolalarga ingliz tilini o'rgatish biroz og'ir biroq, muallim uchun mas'uliyatli va ayni paytda sharaflı vazifadir. Bu o'qituvchidan fidoyilik, izlanuvchanlik hamda mahorat talab etadi. Agar o'qituvchi darsni o'yinlarga boy tarzda olib borsa, uning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

So'zim isboti sifatida e'tiboringizni Andrew Wright (illustrator, o'qituvchi-murabbiy va hikoyanavis)ning quyidagi fikrlariga

qaratmoqchiman. "Til o'rganish qiyin ish. Suhbatda va yozma qismda yangi tushunilgan tilni tushunish, to'g'ri takrorlash, moslashtirish va undan foydalanishga harakat qilish kerak. Har bir daqiqada harakat talab etiladi va uzoq vaqt davomida saqlanishi kerak. O'yinlar ko'plab o'quvchilarga o'zlarining qiziqishlari va ishlarini davom ettirishga yordam beradi, rag'batlantiradi. O'yinlar o'quvchilarga tilni shunchaki o'rganish emas, balki uni his qilishlariga yordam berishning bir usulini taminlaydi"[2].

Mamlakatimizda yosh avlodga xorijiy tillarni o'rgatish uchun barcha sharoit yaratilib, talim sifatini oshirishga alohida etibor qaratilmoqda. Bu jarayonda chet tili xu-



susan, ingliz tili o'qituvchilari ham izlanib, o'quvchilariga xorijiy tilning nozik jihatlari mukammal o'rgatishda o'zaro tajriba almashishi uchun qulay imkoniyat yaratilgani tahsinga sazovordir. Fikrimcha, har bir o'qituvchi o'z zimmasidagi vazifani chuqur anglagan holda, ushbu imkoniyatlardan foydalansa nafaqat jamiyatimizga balki o'zining kasbiy rivojlanishiga ham ulkan hissa hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andrew Wright. Games for language learning(third edition) Cambridge University press. (2002)
2. Jill Hadfield. Elementary vocabulary games. Pearl education Longman. (2010)
3. English for Everyone Junior: 5 words a day. Sophie Adam, 2021. 15. Essential Grammar in Use- Cambridge University Press 2019.
4. Essential English words 1. Paul Nation Fidel. 2009
5. Jonassen, D. H. (2000). Computers as Mindtools for Schools: Engaging Critical Thinking. Prentice Hall.
6. Bates, T. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.
7. Vocabulary Games and Activities © UCLES 2013.
8. 100 Children's Crosswords: Planet Earth. Philip Clarke. Usborne 2020
9. "Vocabulary lesson" darslarini tashkil etishda orttirgan tajribalarim.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – DAVR TALABI

Shavkat Xamrayev,

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti Korruptsiyaga qarshi kurashish
va huquqiy nazorat bo'limi boshlig'i*

Ma'lumki, korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir. Bugungi kunga kelib korruptsiya holatlari ko'plab sohalarda uchraydi. Ta'lim tizimida bunday holatlarning oldini olish eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Zero, ta'lim barcha sohalarning eng asosiy poydevori demakdir.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **bugungi kunga qadar** muayyan ishlar amalga oshirilib, qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, ma'muriy islohotlar natijasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 5-iyuldagi 210-son buyrug'iga asosan institut tuzilmasi qaytadan tashkil etildi. Institut tuzilmasiga yangi bo'lim sifatida, ya'ni malaka oshirish tizimida shaffoflik, ochiqlik, oshkoralik va turli korruptsion xavflarni oldini olish maqsadida **“Korruptsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat”** bo'limi tashkil etilgan.

Bo'lim tomonidan bilan “Korruptsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat bo'limi to'g'risida”gi **Nizom** asosida institutda muayyan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, vazirlikning tegishli buyrug'i (2023-yil 27-iyundagi 196-sonli) asosida korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom kabi jami **16 ta ichki lokal hujjatlar** tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi va ularning qoidalariga qat'iy rioya qilinishi nazoratga olib kelinmoqda.

Bular quyidagilar:

- korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati;
- odob-axloq qoidalar;
- mehnat shartnomalariga kiritiladigan o'zgartirishlarning asosiy shartlari;
- kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladigan asosiy shartlar;
- korruptsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamenti;
- korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi;
- korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi-

ning holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamentini;

- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyati;

- xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatma;

- korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiyati;

- kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;

- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;

- xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamentini;

- xarid komissiyasi to'g'risidagi nizom;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bo'limi tomonidan **"Biz korrupsiyaga qarshimiz"** banneri tayyorlandi va institutning telegram boti va binoning kirish joylariga joylashtirildi. Korrupsiyaviy xavf xatarlarni kamaytirish va institutning korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida jamiyatning xabardorligini oshirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar institutning avloniy.uz sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirildi (<https://avloniy.uz/uz/press-center/news/32>).

Jumladan, korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining (**"Ishonch telefoni"**, **elektron pochta manzillari**, **rasmiy veb-sayt** va

ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz faoliyati yo'lga qo'yildi.

Masalan, hisobot davrida institutga jami **289 ta** turli murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan **13 ta korrupsiyaga oid murojaat** belgilangan tartibda ko'rib chiqildi. **Ikkita xizmat tekshiruvi** o'tkazilib, materiallar prokuratura idoralariga taqdim etildi.

Institut rahbariyati tomonidan jamoada, barcha tarkibiy bo'lim rahbar va xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar, kasbiy odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etish bo'yicha shaxsiy namuna bo'lishi yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berib borilmoqda. Shungdek, korrupsiyaga qarshi kurashish mavzulari bo'yicha **25 ta targ'ibot va tashviqot** tadbirlari o'tkazish asosida xodimlarning huquqiy bilimlari oshirildi.

2024-yil va 2025-yilning I choragida korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi tomonidan ishga qabul qilish bo'yicha **192 nafar** nomzodlar o'rganildi va xulosalar berildi.

Hisobot davrida, bo'lim xodimlari tomonidan institutning bo'lim boshliqlari, kafedra professor-o'qituvchilari va boshqa mas'ul xodimlarga **"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"**gi Qonunning (O'RQ-931-son, 05.06.2024-y.) mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan tushuntirish ishlari tashkilashtirildi. Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xodimlarning deklaratsiya to'ldirish amaliyoti yo'lga qo'yildi, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek, davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini moni-

toring va nazorat qilish reestrini yuritish yo'lga qo'yildi.

Bo'lim tomonidan **178** nafar xodimlar tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar o'rganib chiqildi va muassasa xodimlarining lavozimiga munosibligini ko'rib chiqish bo'yicha qonunchilikdagi cheklovlar (*tadbirkorlik subyektida ta'sischiilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi*) holatlari o'rganildi. Natijada, xodimlardan **7** nafari tadbirkorlik subyektining muassasi (*ishtirokchisi*) ekanligi aniqlandi. Ko'rsatilgan shaxslarga mavjud qonunchilikdagi davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar xususida tushuntirish olib borilgandan keyin ular tomonidan ishdan tashqari vaqtda tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish to'xtatildi va asoslovchi hujjatlar taqdim etildi.

Institut xodimlariga odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, hujjatlarni soxtalashtirish, qonunchilik hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etish bo'yicha doimiy targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida innovatsion g'oyalar va "halollik vaktsinasi" tamoyili asosida (*Vazirlikning 2024-yilning 29-may kunidagi 05-13-1407-sonli ko'rsatmasi*) institut barcha xodimlari o'z ishini halol va vijdonan bajarishi, mas'uliyatini yanada oshirish bo'yicha rasman ogohlantirilib, majburiyatnoma rasmiylashtirildi, vazifa va majburiyatlari hamda javobgarlik masalalari lavozim yo'riqnomalarida nazarda tutildi.

Institutning barcha xaridlari "**Davlat xaridlari to'g'risida**"gi Qonunga muvofiq xarid.uzex.uz platformasi orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, xarid jarayonlarini o'tkazish uchun Davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha Institut rektorining buyrug'i bilan

xarid komissiyasi tasdiqlangan bo'lib, har bir komissiya a'zosi o'tkaziladigan tanlovlarda shaxsiy elektron raqamli imzosi orqali ovoz berib kelmoqda. Tanlov hujjatlari, xarid komissiyasining tanlov bayonnomalari, tuzilgan shartnomalar etender.uzex.uz saytiga joylashtirib, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun ochiqdir. Institutda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son Qarori asosida amalga oshirilmoqda.

Institutga **ishga qabul qilish** jarayonlari ochiq tanlov asosida, tanlov komissiyasi suhbatlari orqali amalga oshiriladi. Tanlov komissiya tarkibida Toshkent shahar Prezident maktabi, ikki nafar ixtisoslashgan maktab va ijod maktab direktorlari ishtirok etadi, ya'ni bu orqali ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi.

Institutda ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilayotgan mehnat shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha xodimlarga o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik vazifalari **majburiyat sifatida kiritilgan**. Ishga qabul qilinayotgan har bir xodim bilan institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi xodimlari tomonidan **profilaktik suhbat** olib boriladi.

Institutda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga qabul qilish jarayonlari ochiq, oshkora hamda shaffof tanlov asosida tashkil etib kelinmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"

867-son qaroriga asosan institutda vazirlik tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarini malakasini oshirish hamda kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslari yo'lga qo'yilgan. Ushbu qarorga asosan 2025-yil 1-yanvardan boshlab pedagog xodimlar uchun har besh yilda bir marotaba 100 soatlik ishdan ajralgan holda o'tkaziladigan **malaka oshirish kurslari** joriy qilingan.

Malaka oshirish kurslariga qabul qilish jarayoni Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining buyurtmasiga asosan amalga oshiriladi. Buyurtma asosida kursga kelgan tinglovchilar mustaqil ravishda o'z mobil telefoni orqali onlinedu.uz platformasidan ro'yxatdan o'tadi.

Kurs yakunidagi yakuniy attestatsiya sinovlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 28-yanvardagi 23-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to'g'risida nizom"ga asosan **2 bosqichda** (test va malaka ishi himoyasi) o'tkazilishi belgilangan.

Birinchi bosqichda malaka ishi himoyasi tashkil etiladi. Malaka ishi himoyasi maxsus komissiya tarkibi tomonidan kuzatiladi va komissiya tomonidan tinglovchiga qo'yilayotgan ballarni muhokama qilmaslik maqsadida tinglovchi olgan ballni xonani tark etmasdan o'qib eshittiriladi.

Ikkinchi bosqichda yakuniy attestatsiya (test) sinovlari tashkil etiladi va test topshirgan tinglovchilar olgan ballni rasmiylashtirish qaydnomasiga o'zlari tomonidan yoziladi va imzo qo'yiladi.

2024-yilda malaka oshirish kurslariga kelgan **9 ming 200 nafar**, 2025-yilning 1-choragiga qadar **2 ming 317 nafar** ting-

lovchilarga dars mashg'ulotlari davomida "Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari" mavzusida mashg'ulotlar olib borilib, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'nikmalari shakllantirildi.

Institutda 2024-yil fevral oyidan maktab direktori lavozimiga nomzodlar va maktab direktorlarini **Menejerlik o'quv kurslarida** o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

Menejerlik kurslarida o'qish istagini bildirgan nomzodlarning arizalari manager.uzedu.uz elektron platformasi orqali online tarzda olib boriladi.

Platforma orqali nomzodlarning arizalarini ketma-ketlik asosida ko'rib chiqish, ularga shartnoma shakllantirish, nomzod tomonidan shartnomani imzolash, to'lov qilish, guruhlariga qabul qilish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan va inson omili kamaytirilgan.

2024-yilda **1093 nafar** amaldagi maktab direktorlar, **1613 nafar** direktor lavozimiga nomzodlar o'qitilgan bo'lsa, 2025-yilning 1-choragi davomida **641 nafar** amaldagi maktab direktorlari, **519 nafar** direktor lavozimiga nomzodlar menejerlik o'quv kurslarida malakasi oshirildi.

Kurslarining yakuniy amaliy topshiriq taqdimoti, test va keys sinovlarini o'tkazishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Amaliy topshiriq taqdimoti sinovini o'tkazishda **3-5 nafardan** iborat komissiya institut va vazirlik tomonidan kelishilgan holda shakllantiriladi va tasdiqlanadi. Komissiya tarkibi har oyda yangidan shakllantiriladi va dars mashg'ulotlarini olib borgan trenerlar tarkibidan kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Amaliy topshiriq taqdimoti komissiya tarkibi tomonidan kuzatiladi va komissiya tomonidan tinglovchiga qo'yilayotgan ballarni muhokama qilmaslik maqsadida

tinglovchi olgan ballni xonani tark etmasdan o'qib eshittiriladi.

Baholashning shaffofligini ta'minlash maqsadida test va keys sinovlari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan maxsus platforma orqali o'tkaziladi.

Qayta tayyorlash kurslarida o'qish istagini bildirgan talabgorlarning arizalarini qabul qilish, ularni qabul jarayonlari yuzasidan statistik ma'lumotlar bilan xabardor qilib turish, tinglovchilarni o'quv-metodik kontentlar bilan yetarli darajada ta'minlash, oraliq va yakuniy nazorat jarayonlarida xolislikni ta'minlash kabi maqsadlarda Yagona identifikatsiya tizimi bilan integrallashgan maxsus platforma (retrain.uzedu.uz) tashkil etildi.

Maxsus platforma orqali qayta tayyorlash kurslariga qabul qilish, shartnomalar shakllantirish, tinglovchilarning darsdagi ishtiroki, oraliq va yakuniy attestatsiya sinovlarini o'tkazish, diplomlarni yuklab olish kabi jarayonlar avtomatlashtirilgan bo'lib, bunda inson omilini kamaytirish va xolislikni ta'minlash asosiy maqsad sifatida qaralgan.

Joriy yil boshidan shu kunga qadar qayta tayyorlash kurslariga talabgorlarning jami **213 nafar** tinglovchilar safiga qabul qilingan bo'lib, ushbu ko'rsatkich **2024-yilning** shu davrida **134 nafar**ni tashkil etganligi qayta tayyorlash istagidagi fuqarolarga maxsus platforma orqali qulayliklar yaratilayotganlik deb qarashimiz o'rinli.

Joriy yil davomida jami **188 nafar** bitiruvchi yakuniy attestatsiyaga jalb etilgan bo'lib, ularning **148 nafar (79%)** kursni muvaffaqiyatli yakunladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarori bilan institutimizda **oliy ma'lumotli ilmiy**

pedagog kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, jumladan **2 ta** "Kattalar ta'limi" va "Ta'limda menejment" mutaxassisligi bo'yicha magistratura hamda **2 ta** "Ta'limda menejment" va "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosliklari bo'yicha doktorantura bosqichida ilmiy pedagog kadrlar tayyorlab kelinmoqda.

Xususan, magistratura bosqichida shu kunga qadar **98 nafar** talabalartahsilolgan va olishmoqda. Talabalarga qulaylik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida hujjat topshirish jarayonidan – yakuniy diplom olishgacha bo'lgan barcha bosqichdagi jarayonlar to'liq **raqamlashtirilgan** bo'lib, hujjat topshirish magistr.edu.uz, o'quv jarayonlarini boshqarish-nazoratini yuritish hamda diplom berish hemis.avloniy.uz axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, hozirda institutimizda doktorantura bosqichida **147 nafar**, jumladan, **43 nafar** tayanch doktorant, **104 nafar** mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan talabgorlar tizim faoliyatiga doir muam-molarga ilmiy yechim berish maqsadida ilmiy-tadqiqot olib borishmoqda. Tadqiqotchilarni qabul qilish hamda o'quv davridagi harakatlarni kuzatib borish daraja.ilmiy.uz platformasi orqali to'liq **raqamlashtirilgan**.

Magistratura va Doktoranturaga **qabul qilish** hamda o'quv davridagi barcha **imtihon sinovlari** va **monitoring jarayonlarini** o'tkazish **onlayn translatsiya** qilinib, baholash va suhbat o'tkazish jarayonlarini **raqamlashtirish** orqali inson omilini minimallashtirishga erishilgan va takomillashtirilib borilmoqda.

Institut rahbariyati tomonidan o'qishga kirish va yakuniy imtihonlarni topshirish jarayonlarining aksariyat qismi elektron tarzda tashkillashtirilgani sababi, inson omilining ushbu jarayonga aralashuvi minimallashtirilgan, bu o'z navbatida korrupsi-

ya bilan bog'liq ehtimoliy holatlarni keskin kamayishiga olib keldi.

Institutda ochiqlikni ta'minlash maqsadida institut funksiyalari sohasidagi tadbirlar hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish borasidagi ishlar to'g'risidagi tafsilotlar, raqamlar, hisobot va ma'lumotlar mun-tazam ravishda rasmiy veb-sayt, internet tarmoqlaridagi boshqa sahifalarda hamda jurnalist va blogerlar ishtirokidagi tadbirlarda, shuningdek, boshqa OAVda yoritib kelinmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, institut faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini yanada kuchaytirish, hujjatlar va belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, kelgusida Institutda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari yaratilib,

ichki idoraviy mexanizmlar joriy etildi. Navbatdagi bosqichda korrupsiyani vujudga keltiruvchi jarayonlar, ijro etish tizimining yomonlashuvi, huquqiy nigilizm, jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati, iqtisodiy aspektlar kabi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar, shuningdek, ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va oldini olish choralari ko'riladi.

Mazkur chora-tadbirlar orqali korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olinishi, faoliyatning ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatining yanada ortishi, xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yuk-salib borishi, faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga erishiladi.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

МАКТАВ ТА'ЛИМИ:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2025-yil,
2-son

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-oktyabrdagi 363/5-son qaroriga asosan
“Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar” ro'yxatiga kiritilgan

Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. Nashr bosma tabog'i 13,75.
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 19.05.2025.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosmaxonasi
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
olingan matnlar “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” ilmiy-nazariy
va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

© “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” jurnali, 2025.

